

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI
ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
MADANIYAT INSTITUTI**

Isaqlova N.J., Qosimova Z.H.

XORIJIY MAMLAKATLARDA TA'LIM
mavzusidagi o'quv qo'llanma

TOSHKENT –2011

Mazkur qo'llanma kasbiy pedagogik ta'lim mutaxassisligi talabalari uchun tayyorlangan bo'lib, unda xorijiy mamlakatlarda ta'limni o'rganishda xorij ta'limi tahlil etilgan.

Qo'llanma mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

pedagogika fanlari doktori, professor

Yu.G'.Mahmudov

Taqrizchilar:

pedagogika fanlari doktori, professor

M.Quronov

pedagogika fanlari doktori, professor

X.J.Xudoyqulov

Kirish

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim – hozirgi davrda pedagogika fanining tarkibiy sifatida ma'lum bo'lgan. Uning ta'limiy ahamiyati xorijiy mamlakatlardagi ta'lim bilan tanishish.

Hozirgi kunlarda shakllanib, rivojlanib borayotgan mazkur yangi fan haqida jiddiy fikrlar bildirilayapti, uning asosiy vazifasi hukmron bo'lib turgan butun o'quv tarbiya tizimi nazariyasini pedagogikasini xorijiy mamlakatlardagi ta'lim bilan qiyosiy tahlil etish.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim –pedagogikaning milliy nazariy va amaliy muammolarni hal etishning asosi sifatida xorijiy mamlakatlarning ta'limini o'rganish. Pedagoglar fikriga asosan milliy pedagogik nazariyalar asosida hozirgi avlodni xorijiy ta'lim bilan qurollantirish mumkin.

Hozirgi pedagogik fandagi vaziyat umumiy holda shundan iborat. Bu vaziyatda xorijiy mamlakatlarning ta'limi juda muhim. Pedagogika-bilimlar tizimidir. Ob'ektivlik, maqsadga muvofiqlik, mustahkamlik, bir-biriga zid bo'lmaslik- uning asosiy xislatlaridan biridir. Pedagogika tizimini har qanday ilmiy nazariya kabi tizimini tashkil etuvchi tamoyillari loyihalashtiradi, birlashtiradi va ushlab turadi ya'ni ushbu tizim asosiy bilimlarga asoslanishi asosiy holdir.

Jahon pedagogik nazariyasi tarbiyaviy jarayon sharoit bilan bog'liq yuqorida tahlil etilgan g'oyalar qanday bo'lishi bilan bog'liq bo'lmasligini allaqachon e'tirof etganlar. O'sib borayotgan avlodlar tarbiyasi juda jiddiy ish bo'lib, uning o'tkinchi narsalarga bog'liq etib qo'yish mumkin emas.

«Xorijiy mamlakatlarda ta'lim» fanining predmeti - jahonda ta'lim hamkorligidagi ish faoliyatlari jarayoni davomida o'quvchilarda hosil bo'ladigan ta'limiy tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, g'oyalar, his-tuyg'ular, kechinmalar, turli xulq-atvor shakllarini tushuntirib beruvchi fandir.

«Xorijiy mamlakatlarda ta'lim» o'quv fanining vazifalari – pedagogikaning xorijiy mamlakatlardagi ta'lim asoslarini o'rgatadi. Barkamol avlod tarbiyasini ta'minlovchi barcha milliy munosabatlar mohiyatini tahlil qilish, milliylikning eng samarali usullarini hayotga tadbiiq etishda xorijiy mamlakatlarning ta'limini o'rganish lozim. Bu o'rinda, ayniqsa tafakkurning, yangicha dunyoqarash va munosabatlarning shakllanishini o'rganish eng dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur fan Pedagogikaning fanlari bilan o'zaro aloqada nazariy va amaliy ahamiyatini shakllantiradi.

1-MAVZU: CHET EL TA'LIMI TARAQQIYOTINING ASOSIY YO'NALISHLARI

Maqsad:

1) *ta'limiy maqsad:* chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish

2) *tarbiyaviy maqsad:* taraqqiyot davridagi ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish

3) *rivojlantiruvchi maqsad:* jahon ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimining tashkil etilishi.
2. Taraqqiyotining ikkinchi davri.
3. Jahon mamlakatlari ta'lim muammolarining umumiy tavsifi.

Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimining tashkil etilishi

O'zbekiston jahon andozalariga mos keladigan ko'p bosqichli ta'lim tizimiga o'tmoqda. Ta'lim texnologiyalari jahon andozalariga mos keladimi, ilg'or tajribalar ta'lim texnologiyalariga kirib bormokdami? - degan savol hammamiz uchun o'ta muhimdir. Biz foydalanadigan ta'lim texnologiyalari shaxsni rivojlanishiga, mustaqil ishlashga o'rgatishi zarur. Chet el tajribalarini o'rganib, ularni sharoitimizga moslab tatbiq qilish kerak. Bu borada bir qator chet el tajribalari, xususan Isroil davlati tajribalari bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Isroil davlatida ta'lim 5 yoshdan 18 yoshgacha davlat byudjeti hisobiga amalga oshirilib, uch bosqichdan iborat (maktabga 6 yoshdan qabul qilinadi):

- a) boshlang'ich ta'lim (1-4-sinflar),
- b) o'rta ta'lim (5-9-sinflar),

Bu bosqichlar yakunida butun Isroil bo'yicha bir kunda bitirish imtihonlari bo'lib o'tadi. Natijalari asosida o'quvchilar o'zi tanlagan maktab yoki texnologik maktablarda o'qishni davom ettiradi.

- v) texnologik ta'lim (10-12 sinflar).

O'quvchilar bu bosqichda kasbiy bilim oladilar va universitetlarga kirish huquqini beruvchi attestat uchun imtihon topshirib borishadi. (Attestatga imtihon topshirish juda murakkab jarayondir.) Har yili 12-sinfni tugatgan o'quvchilarning o'rtacha 20-40 % attestat oladilar.

Shundan keyingi barcha toifadagi ta'lim xizmatlari pullik.

O'n sakiz yoshga kirgan o'g'il - qizlar majburiy armiya xizmatiga chaqiriladi. Armiya xizmatidan keyin attestati borlarning deyarli xammasi universitetga o'qishga kiradi. Attestat olmaganlar texnologik maktablarda o'qishni davom ettirishi yoki olgan kasbi bo'yicha ishlashi mumkin. Attestati yo'qlar texnologik maktablarning 13-14-sinflarida o'qiydi, lekin istagan sinfdan so'ng kichik texnik, texnik hujjati bilan o'qishni yakunlashi mumkin. 15-16-sinflarda o'qishni davom ettirganlar kichik injener (15-sinf) va bakalavr (16-sinf) diplomiga ega bo'ladi. Bunday sinflarga ega bo'lgan texnologik maktablar Isroil yoki chet el univesitetlari bilan shartnomaga ega bo'lib, shu universitetlarning diplomlarini berishadi.

Ta'limdagi ustuvor yo'nalishlar va moddiy-texnik ta'minot

Isroil davlatida texnologik (kasb-hunar) ta'limga juda katta etibor qaratilgan va turli-tuman ko'rinishdagi o'quv muassasalarida amalga oshiriladi. Bular jumlasiga texnologik maktablar, kollejlari, pedagogik markazlar va boshqalar kiradi. Ularning aksariyati ishlab chiqarish yoki firmalar bilan bevosita bog'liq bo'lib, mutaxassislik yo'nalishlariga ega. Masalan: elektronika, kompyuter, ekologiya, kishlok xo'jaligi, kimyo, grajdan dengiz floti va boshqalar.

Ta'lim muassasalarining barcha turlari moddiy texnik bazasi, kompyuter bilan jihozlanganligi juda yuqori darajada. Barcha kompyuterlar Internetga ulangan. O'quv jarayonida Internetdan keng foydalaniladi. Bundan tashqari Tel-Aviv universiteti bilan bir qator texnologik maktablar sputnik kanali orqali amalga oshiriladigan va on line - bevosita muloqat rejimida ishlaydigan masofadan o'qitish tizimiga ulangan. Ta'lim tizimida o'quvchiga juda ko'p bilim berilmaydi, lekin o'quvchilar, hatto bog'cha bolasi ham, mustaqil ravishda fan mavzuga bog'langan holda proyektlar yozadi yoki tayyorlaydi va himoya qiladi. Isroil davlati pedagogikasi ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchiga mustaqil ishlashni o'rgatishga qaratilgan va **«Bilim olishga o'rgatish uchun o'qitiladi»** degan shior bilan ta'lim beriladi.

Hozir Isroil davlatida joriy qilinayotgan ta'lim texnologiyasi ko'ra sinflarda o'quvchilarni o'zlashtirish darajasiga qarab tabaqalarga ajratib o'qitiladi. Ta'lim barcha fanlar bo'yicha hayot va tabiat bilan bog'lagan holda olib boriladi. Fanlarning uzviy bog'lanishi doimo ko'zga tashlanib turdi.

Oliy ta'lim tizimi uch bosqichli:

1. Bakalavriatura - 4 yil,
2. Magistratura - 2 yil,
3. Doktorantura - 3 yil.

Bakalavr va magistr uchun o'qish Isroilda, doktorantura asosan Yevropa va AQSh da amalga oshiriladi.

Isroil davlatida malaka oshirishga asosan ikki guruh omillar ta'sir qiladi:

1. Ijtimoiy-madaniy omillar:

a) jamiyatni ko'p madaniyatlilik (turli davlatlardan kelgan repatriantlar o'ziga xos madaniyatga ega);

b) turli din vakillarining yirik qatlamlarining borligi (iudeylar, musulmonlar, xristianlar va ularning turli okimlari);

v) turli yillardagi repatriantlarning katta oqimi (50-, 70-, va 90- yillar).

2. Pedagogik omillar:

a) texnologik ta'limga o'tish;

b) o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlanishiga yo'naltirilgan ta'lim (ayniqsa o'rta va texnologik ta'limda);

v) o'kuv yurtlarini kompyuterlashtirish davlat dasturi va uning juda yuqori suratlarda amalga oshirilishi;

g) mutaxassislarni tayyorlashdagi ko'p bosqichlilik.

Ushbu faktorlar malaka oshirishning mazmunini tashkil etadi va uning samaradorligini, malaka oshirish kelajagini aniqlashda hisobga olinadi. Bu dastur Vazirlik va munitsipialitetlar darajasida boshqariladi.

Pedagogik faoliyatning tashkil etilishi

Mutaxassis (bakalavr, magistr, doktor) istagan ko'inishdagi o'quv yurtida pedagog sifatida ishlashi uchun albatta bir yil o'qib pedagogik faoliyat ko'rsatish huquqini olishi kerak. Bu o'qish universitetlarning pedagogik fakultetlarida, pedagogik kollej va markazlarda amalga oshiriladi.

Pedagoglarning malaka oshirishi ikki toifaga bo'linadi.

1. Pedagogik ish og'ir hisoblanganligi uchun tayyorlov sinfi pedagoglaridan tortib universitet professorlarigacha olti yil ishlagandan so'ng dam olish, o'zining professional va pedagogik malakasini oshirish va birorta xobbi bilan shug'ullanish uchun bir yil to'liq ish haqi saqlangan holda ishdan ozod qilinadi, ya'ni sabatiklga chiqadi (AQSh sistemasi). Bu vaktida u boshqa joyda ishlashga haqqi yo'k. Pedagog sabatikl davrida albatta malakasini oshirish uchun kurslar eshitadi, individual va guruhlarda maslahatlar oladi, kutubxanalarda va Internet to'rida mustaqil ravishda malakasini oshiradi.

2. Universitet professorlaridan tashqari barcha toifadagi o'quv yurtlarining pedagoglari joriy malaka oshirishlardan o'tib turishi kerak. Buning uchun haftada metodik kun beriladi. Metodik kunda malaka oshirish uchun 2 soatga ekvivalent qo'shimcha haq to'lanadi. Bu kunda u o'zining professional va pedagogik malakasini oshirish uchun kurslarga qatnashi kerak. Kurslarga har hafta yoki soatlar (mablag') yig'ilganda birdaniga qatnashi mumkin. Kurslar natijasida pedagog kredit to'playdi. Minimal kredit yoki kredit birligi 112 soatga teng. Pedagog 112 soatlik kreditlardan ikkitasini yiqqandan so'ng malaka oshirgan hisoblanib, maoshiga 1,6 % qo'shiladi. Bu jarayon o'suvchi koeffitsiyent bilan uzluksiz davom etadi va maoshni 30 % gacha oshishiga imkon beradi.

Malaka oshirish uchun imkoniyatlar juda katta bo'lib, u malakali mutaxassislar, texnika resurslari va moliyaviy jihatdan ta'minlangan.

Ilmiy metodik ta'minot juda yuqori darajada bo'lib, Ta'lim vazirligining inspektorlari va metodistlarining katta armiyasi va universitetlarning professorlari shug'ullanadi. Zarur bo'lgan kurslarning ro'yxati va ularning dasturlari har yilning boshida e'lon qilinadi. Barcha kutubxonalar kompyuterlashtirilgan bo'lib, istagan adabiyotni operativ topishga, Isroilda yo'q bo'lsa chet eldan Internet orkali olishga imkon beradi.

Malaka oshirish uchun juda ko'p markazlar, kurslar, tashkil kilingan. Bundan tashkari malaka oshirish universitet va kollejlarda amalga oshiriladi. Ta'limga, ajratilgan mablag'lar juda katta bo'lib, davlat byudjetining 11 % va munitsipialitetlarning 40% gacha byudjetini tashkil qiladi. Bundan tashqari chet ellardagi homiylar katta miqdorda beg'araz mablag' ajratadilar. Ta'lim tizimini, xususan malaka oshirishni boshqarish markazlashgan va kompyuterlashgan holda Ta'lim vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

Iqtisodiyot kadrlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlashning asosiy yo'nalishi yangi kelgan repatriantlarni ish joylariga tayyorlashdir.

Chet el ta'lim texnologiyalarini o'rganish, ularni tanqidiy tahlil qilish va ular bilan o'z tajribalarimizni boyitish «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunni va «Kadrlar tayyorlash milliy dastur»ni amalga oshirishda o'ta muhimdir.

Xorijiy mamlakatlarda ta'lim fanining maqsadi bo'lajak o'qituvchilarni tarbiyaviy imkoniyatlarga boy milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, xalq og'zaki ijodi namunalari va mutafakkirlarimizning ijodiy va milliy merosidan bahramand etish bilan birga ularning kelajakdagi ish faoliyatlarida amaliy ahamiyat kasb etuvchi pedagogik bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Bu fanda har bir xalq yashash tarzi, tarixiy va ijtimoiy darajasi, milliy madaniyatiga ega ekanligiga mos ravishda, o'ziga xos takrorlanmas milliy-tarbiya madaniyatiga ega bo'lishi va bulardan hayotda foydalana bilishi kerak. Mazkur fanning bozor iqtisodiyoti jarayonidagi tutgan o'rni va ahamiyati, talaba yoshlarni milliy mafkuraviy qarashlarni shakllantirish, jamiyatning ilg'or nufuzini kuchi sifatida sog'lom e'tiqodni, erkin fikrlovchi, komil insonlar bo'lish jarayonidagi o'rni va rolini aniqlash. Jahon pedagogikasida, ayniqsa taraqqiy etgan mamlakatlarda ta'limning amalga oshirilishi, istiqboli to'g'risida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Fransiyaning ta'lim tizimi boy va qadimiy tarixga ega. Bu yerda «Ta'lim haqida»gi Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgartirishlar kiritilgan. Fransiyaning hozirgi davrda amal qilinayotgan «Ta'lim xaqida»gi Qonuni 1989 yil 10-iyulda qabul qilingan. Fransiyada ta'lim tizimining dastlabki bosqichini maktabgacha tarbiya tashkil etadi. Bu bosqichni «Onalar maktabi» deb ham yuritishadi. Bundan ko'zlangan maqsad bolalarning maktabdagi sharoitini o'z sharoiti bilan yaqinlashtirish, ularga oiladagidek iliq munosabatni shakllantirishdan iborat. Fransiya ta'lim tizimida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masala hisoblanadi.

Germaniya maorifidagi asosiy muammo sobiq GDRdagi ta'limni bir xil milliy me'yorga solishdan iboratdir. Asosiy vazifa sobiq GDR dagi ta'lim tuzilmasini yangi me'yorga va o'lchovga tushirish, oddiy usul bilan GFR dagi ta'lim tizimiga o'tkazib qo'yishdan iborat. Ammo buning xam o'ziga xos muammolari bor. Birinchidan mablag' masalasi bo'lsa, ikkinchidan sobiq GDR dagi ta'lim jarayoni qatnashchilarining bu o'zgarishga munosabatidir.

Niderlandiya ta'lim tizimining shakllanish davri 1789 yilda Fransiya revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi. Mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, jumladan xristian yoki katalog cherkovlari tomonidan tashkil etilgan. Bu mamlakat ta'lim tizimi 7-3-2 shaklidir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan. Niderlandiyada qariyb 4 mln. yoshlar kunduzgi ta'lim oladi. Mamlakatda majburiy ta'lim pulsiz, katta yoshlar maktablari va oliygohlari pullik. O'qituvchi va tarbiyachilarning maoshlari davlat tomonidan tayinlanadi. Ta'lim vazirligi Niderlandiyada eng qimmat turuvchi vazirlikdir. Unga davlat bir yilga 29,6 milliard gulden mablag' sarf etadi. Bu davlat byudjetining 17 foizidir. Bu davlatning yer yuzida nufuzli o'rin olishida uning taraqqiy etgan ta'limi juda qo'l keladi.

Yaponiya ta'lim tizimlarining yuksak parvozi o'z-o'zidan bo'lgani yuk. Uning ham o'ziga xos inqirozi va muammolari bo'lgan. Bularni to'liqroq tasavvur qilish uchun mamlakat pedagogik tamoyillari va maorif

taraqqiyotining tarixiy bosqichlariga nazar tashlash maqsadga muvofiqdir. Yapon ta'lim tizimining mumtoz shakllanishi 1867-1868 yillardagi mamlakat hukmdori Meydzi tomonidan amalga oshirilgan islohotlarga borib taqaladi. Bu hukmdorning o'z oldiga qo'ygan ilk qat'iy shiori bo'lib, biri «Fukkoki kioxsi» - boyish, mamlakatni mustahkamlash va harbiylashtirish, ikkinchisi esa «Siokusan kogio»-ilg'or G'arb ishlab chiqarish texnologiyasi asosida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish edi. Meydzi ikki maqsadni amalga oshirishning bosh omili ta'lim tizimlarini tubdan o'zgartirish va yangilashda deb hisoblardi. Yaponiya yuksak ilmiy qudratga ega mamlakatdir. U dunyoda ta'limni rivojlantirishga mablag' sarf etishda AQShdan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Mamlakat ilmiy izlanishlarga xususiy sektorni qo'shib hisoblaganda, umumiy fanni rivojlantirishga ajratilgan mablag'ning beshdan to'rt qismi ajratilmokda. Keyingi 10-15 yilda tabiatshunoslik va texnologiya sohasidagi oliy o'quv yurtlari rivojlantirildi, bunga ilmiy izlanishlarga mo'ljallangan mablag'ning karyib 60 foizi sarf etiladi.

Taraqqiyotining ikkinchi davri

Texnika taraqqiyoti yuqori saviyali mutaxassis va ishchilarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib yubordi. Rivojlangan mamlakatlarda 12-13 yoshgacha bo'lgan bolalarni umumiy majburiy va bepul o'qitish joriy qilindi. Bu omil aholi savodxonligining oshishiga olib keldi, imtiyozli o'quv yurtlari tarmog'i kengaydi. Biroq xalqning asosiy qismi qashshoq yashaganligi, yomon uy-joy sharoitlari, bolaligidan tirikchilik uchun pul topish zarurligi bir qator mamlakatlarda ko'plab bolalarni o'qishni oxiriga yetkazmasdan maktabni tashlab ketishiga majbur qilardi. Ayni paytda, ta'lim sohasidagi salbiy jihatlarni ham ko'rmaslik mumkin emas edi. Chunonki, ba'zi mamlakatlarda yoshlarni millatchilik, irqchilik ruhida tarbiyalashga e'tibor berilgandi. Xususan, AQShda xalq maorifi tizimi irqchilik ruhida edi. Negrlarning bolalari uchun alohida maktablarda oq tanlilarning bolalari uchun tashkil etilgan maktablardagiga qaraganda katta hajmda bilim berilar edi. Mamlakatda hukm surayotgan irqchilikka qarshi kurash masalasi Garriyut Bicher-Stounning «Tom tog'aning kulbasi» asarida o'z ifodasini yaqqol topdi. Bu davrda Sharqda xalq ta'limi sohasida G'arbning yutuqlari tashviq qilina boshlandi. Yevropa ta'siri kuchaydi. XX asr boshlariga kelib, jamiyat taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan tabiiy fanlarning jadal rivojlanishi, texnikaning yanada ildam taraqqiyoti diniy xurofotlardan holi bo'lgan ilmiy dunyoqarashning mavqei mustahkamlanishi uchun sharoit yaratdi. Gumanitar fanlarda, birinchi navbatda, falsafa, iqtisodiyot nazariyasi, adabiyot va sotsiologiyada realistik voqelikni aks ettiruvchi asarlar yuzaga keladi. Bir qator olim va yozuvchilar insonlarning yaxshi yashashi uchun, demokratiya, tenglikni ta'minlovchi jamiyatni barpo qilish maqsadida shunga intiluvchi g'oyalarni ifodalovchi va ulug'lovchi asarlarni yuzaga keltirdilar. Lekin, qanday qilib bo'lsa ham boylik to'plashga harakat qilishni tasvirlovchi asarlar ham paydo bo'ldi. Bu davrda madaniyati, adabiyot va san'atning demokratik asosda rivojlanishi uchun sharoit yaratildi. Ayniqsa, bu narsa adabiyotda yaqqol o'z ifodasini topdi, shu sababli tanqidiy realizm va

naturalizm yuzaga keldi. Tarixchilar insoniyat taraqqiyotining turli davrlari haqida juda katta ashyoviy dalillar to'pladilar. Bu davrda ham azaliy kurash yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash - mafkuraviy, g'oyaviy hayotning asosini tashkil qildi. Gumanitar soha olimlari XX asr boshida ro'y berayotgan yangi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'rganishni kuchaytirdilar. Bu davrda falsafa fani ham rivojlanib davrga moslashdi. Ilgari ma'rifatparvarlik kuchli bo'lsa, endi inson huquqlariga e'tibor kuchaydi. Fanning rivojlanishi bilan uning jamiyatdagi o'rnini belgilash, barcha ijtimoiy muammolarni hal etishda fanning ijobiy hodisa ekanligini asoslash kuchaydi.

Bu davrning mashhur faylasuflaridan biri Fridrix Nitsshe (1844-1900) inson irodasi masalasiga katta e'tibor berdi. Inson borlig'ida maxluqlik va xoliqlik birlashib ketganini asoslashga harakat qildi. U zardo'shtlik ta'siri ostida «Zardo'sht tavallosi» asarini yozdi. Bu asarda kuchli shaxslarni tarbiyalash g'oyasi ilgari suriladi.

Z.Freyd (1856-1939) - psixoanaliz nazariyasining asoschisi, dunyoga tanilgan olim. Uning asarlari XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yevropada adabiyot va san'atning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Freyd qilgan buyuk inqilobining mohiyati shundaki, u Dekartning inson to'g'risidagi tasavvurlarini inkor etib fenomenologik (favqulodda, nodir) yondashuv yordamida ongsizlikni tahlil qilish mumkinligini asoslab berdi. Psixoanaliz an'analarga muvofiq ongsizlik bilib-bo'lmas jarayon deb tushuntiriladi.

Tarixiy taraqqiyotining davriy modeli, dunyo dinlari (buddaviylik, xristian, islom)ning barcha xalqlarni yaqinlashtiruvchi va jipslashtiruvchi bosh omil ekanligi g'oyalari ilgari surildi. Shu tariqa cherkov vijdon erkinligi, diniy e'tiqod erkinligi, barcha dinlarining tengligi tamoyillariga toqat bilan ko'nika boshladi. Bu davrda jahon demokratik madaniyatining fondi Osiyo va Lotin Amerikasi mamlakatlari yozuvchilarining ijodi bilan ham boyidi. Atoqli Yapon yozuvchisi A.Ryuneske novellalarida parazit mulkdorlar axloqining inqirozi, xalq ommasining umumiy kuchini anglash o'z aksini topdi. Hind gumanisti yozuvchisi R.Tagor (1861-1941) falsafiy teranligi va badiiy barkamolligi bilan ajralib turuvchi romanlar, hikoya va she'rlar bilan butun dunyoga mashhur bo'ldi.

Fransuz adibi Viktor Gyugo (1802-1885) o'zining «Dahshatli yil», « Dengiz zahmatkashlari», «Xo'rlanganlar», «To'qson uchinchi yil» kabi asarlarda zulmga, jaholat va adolatsizlikka qarshi norozilik, bosqinchilikka nafrat, kurashchan xalqqa xayrixoxlik bildiradi va haqoratlangan mehnatkash insonning fojiali hayoti va kurashini tasvirlaydi.

Bu davrda, Yaponiyalik mashhur yozuvchi Simey Ftabateyning «Suzayotgan bulutlar», Roka Tokutominning «Kurasivo», «Yashamagan yaxshi» romanlari feodal qoldiqlariga qarshi, milliy qadriyatlarni asrashga xorijning ma'naviy tasviriga qarshi qaratilgan edi. Hindistonda bengal yozuvchisi Shorotchandra Chattopadnoy, shoir Muxammad Iqbol asarlari shahar va qishloq hayotini erkin tasvirladi, xalqni uyg'onishga undadi. Shunday qilib, XIX asr oxiri XX asr boshlarida fan va madaniyat ancha yuksalib insonlarning yaxshi hayot kechirishlari uchun xizmat qila boshladi.

Jahon mamlakatlari ta'lim muammolarining umumiy tavsifi

Ta'lim-tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddadir. Rivojlangan xorijiy davlatlarda ta'limning mamlakat ichki siyosatiga faol ta'sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e'tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojni iqtisodiy ta'minlashga ajratilayotgan mablag' mikdori yildan-yilga oshib bormoqda.

Yaponlarda masalan «maktab muvaffaqiyatli va farovonlik timsoli»gina bo'lib qolmay, u insonlarni yaxshilaydi degan fikr ishonch va e'tiqodga aylangan.

Ta'lim to'g'risidagi g'amxo'rlik taniqli siyosatchilarning ham hamisha diqqat-markazida bo'lgan. Shuning uchun ham AQShning sobiq prezidenti R.Reyganni, Buyuk Britaniya bosh vaziri M.Techcherni, Fransiya prezidenti F.Mettiranlarni maktab islohotlarining tashabbuskorlari deb bejiz aytishmaydi. F.Metteran maktabni «Jamiyatning xarakatlantiruvchi kuch» deb hisoblagan.

Maktab dasturlarini o'zgartirish 2 asosiy yunalishda: ekstensiv va intensiv yo'l bilan amalga oshiriladi.

Birinchi holatda o'quv muddati uzaytiriladi, o'quv materiallari hajmi ko'paytiriladi; ikkinchi holda esa mutlaqo yangi dastur yaratiladi. Bu o'rinda ikkinchi yo'l, ko'pchilik mutaxassislarning e'tiroficha maqbul xisoblanadi.

1961 yilda «Bosh Yangi bazis» tamoyillari asosida AQSh o'rta maktablarni isloh qilish boshlangan edi. Buning mohiyati shundaki, ingliz tili va adabiyoti (to'rt yil), matematika (to'rt yil), tabiiy bilimlar (uch yil), ijtimoiy fanlar (uch yil), kompyuter texnikasi (yarim yil) kabilardan iborat besh yo'nalishdagi majburiy ta'lim joriy qilindi. Har bir yo'nalish o'z navbatida bir necha qismga bo'linadi. Masalan, matematika, algebra, trigonometriya, ish yuritish, kompyuter texnikasini qo'llashdan iborat barcha majburiy predmetlar tarkibiga yangi kurslar kiritildi. 1985 yildan e'tiboran barcha yuqori bosqich kollejlarning to'qson foizi shu besh bazisli tamoyillar asosidagi dasturlar bilan ish olib bormoqda. Natija: majburiy tayyorgarlik bo'yicha ta'lim hajmi qisqardi, shu bilan bir qatorda dastur chuqurlashtirilib o'rganiladigan kurslar hisobiga tig'izlashtirildi.

XX asrning 80-yillarida majburiy ta'lim hajmini qisqartirish jarayoni yanada chuqurlashtirildi. Hatto ayrim kollejlarda bu sohada uch yangi: ingliz til va adabiyoti, matematika, ijtimoiy bilimlar bazislari asosida ish olib borilmoqda. Ta'limning boshqa turlari esa ixtisoslashtirish davrigacha amalga oshiriladigan bo'ldi.

Amerikadagi ko'zga ko'ringan «Found Karnegi» pedagogik markazi bu dasturni XIX asr dasturi deb baholamoqda. O'quv dasturlarini qayta qurish

jarayoni G'arbiy Yevropa davlatlarida ham amalga oshirilmoqda. Masalan, Buyuk Britaniyada ta'lim vazirligining tavsiyalariga muvofiq o'quv rejasi va dasturini ta'lim muassasalarining o'zlari belgilaydilar. Mazkur tavsiyalarga muvofiq 50 foiz o'quv soatlari o'qitilishi shart bo'lgan «Yadro» predmetlar: ingliz tili va adabiyoti, matematika, din darsi, ijtimoiy tarbiyaga ajratiladi. O'quv soatlarining boshqa qismi esa o'qitilish shart hisoblanib, tanlab olingan predmetlarga (gumanitar, tabiiy, matematik) ajratiladi.

80-yillardan boshlab Buyuk Britaniya ham AQShdagi singari o'rganilishi majburiy bo'lgan fanlar doirasida kengaytirildi. Ingliz tili va adabiyoti, matematika va tabiiy fanlar o'quv setkasining yadrosini tashkil etadigan bo'ldi. Qolgan predmetlarni tanlab olish o'quvchilar va ota-onalar ixtiyoridadir. Yaponiya maktablari ikkinchi jahon urushidan keyinroq Amerika ta'limi yo'lidan bordi. Lekin shunga qaramay, bu ikki mamlakat o'quv dasturida qator fanlar ko'zga tashlanadi. Yaponiyada o'z dasturlari jiddiy murakkablashtirilgan asosiy fanlar majmui ancha keng, bir qator yangi maxsus va o'quv fakultativ kurslar kiritilgan. Masalan, umumiy ta'lim maktablarining yangi musiqa ta'limi o'quv dasturiga milliy va jahon mumtoz musiqasini o'rganish ham kiritilgan.

Yapon xalqida «Hamma narsa unitilganda ham, ta'lim esda qoladi» degan hikmatli gap bor. Asosiy o'quv dasturlariga ma'lum cheklanishlarni kiritish, alohida predmetlarni o'rganishni kuchaytirib, ularni chuqur o'zlashtiradi va o'quvchilarni ortiqcha «yuk»dan xalos qiladi. Bu masalani ijobiy hal etishda o'quv kurslari integratsiyasini amalga oshirish yordam beradi. Hozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'quv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirildi. Fransiya maktablarida ularga 60 foiz, Buyuk Britaniya maktablarida 15 foiz o'quv soatlari ajratildi. Bu muammoni to'ldirish, o'quvchilarning u yoki bu kursga bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish uchun maktablar alohida predmetlardan chuqurlashtirilgan kurslarni tavsiya etmoqdalar. Masalan, G'arbiy Yevropa maktablarida 15 foiz o'quvchilar fizika fanini chuqurlashtirib o'rganayotir. Keyingi uch yil davomida AQShda ilmiy bilimlarni chuqurlashtirib o'rgatishni ta'minlash maksadida integratsiyalashtirilgan kurslarning turli variantlari ishlab chiqilmokda. Chet el tajribalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim mazmunini qayta qurish ishida shoshma-shosharlikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Fikrimizcha bu sohada samaraliroq yo'l integratsiya va ixtisoslashtirishga asoslangan o'quv dasturlarini yaratishdir.

Iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda mehnat ta'limini hamda kasbga yo'naltirish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning eng e'tiborga loyiqlari shu ta'lim bo'yicha o'quv dasturlarini kengaytirish, professionalizmga yuz tutish, kuchli moddiy bazani barpo etish yo'lidir. Har holda 1977 yilda AQShda qabul qilingan «Mehnat faoliyatiga tayyorlash akti»ning asosiy g'oyasi ham shunga qaratilgan. Mehnat ta'limi bilan bir qatorda kasbga yo'naltirish ishlari ham zamon talablariga hamohang takomillashmokda. Kasbga yo'naltirish darslari barcha rivojlangan davlatlarda mavjud. Bunday darslarda mehnat olamidagi o'zgarishlar va tendensiyalar, kasbkor sohibi

bo'lish imkoniyatlari ham o'rgatiladi. Bunday darslarni fan o'qituvchilari hamda maxsus kasbga yo'naltirish ishlari bo'yicha maslahatchilar olib boradilar. Bulardan tashqari kasbga yo'naltirish konsultatsiya punktlari ham mavjud bo'lib, ular yuqori sinf o'quvchilari va ota-onalariga soha bo'yicha konsultatsiyachilar tashkil etadilar. Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etishda korxonalar amalga oshirilayotgan ishlar xam e'tiborga molikdir.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyatining 1983 yilda e'tirof etishicha, ta'limda ijtimoiy tengsizlik kayfiyati hukm surmoqda. Bunga pul to'lab o'qish, sinfda yoki kursda o'quv kursini o'zlashtira olmay ikkinchi yilga qolib ketish, imtihonlarni o'ta talabchanlik asosida o'tkazish sabab bo'lmoqda.

Masalan, Fransiya boshlang'ich maktablari o'quvchilarining teng yarmi, litseylar o'quvchilarining 60 foizi fanlarni o'zlashtira olmay takroriy o'quv yiliga qolib ketmoqda. Bu mamlakatning boshlang'ich va o'rta maktablarda bolalar 650 ta imtihon va zachyotlar topshiradilar. Imtihonlardan yiqilish o'quvchilarning asab va ruhiy holatiga qattiq ta'sir o'tkazadigan vaziyatlar, hatto fojiali voqealar ro'y berish hollari uchraydi. Bunday vaziyat shubhasiz, faqat ota-onalar ichidagina emas, o'qituvchilar orasida ham keskin noroziliklarga sabab bo'lmokda.

1983 yildagi AQSh davlat dalolatnomalardan biri to'g'ridan-to'g'ri «mamlakat xavf ostida» deb nomlagan, unda o'quvchilar o'zlashtirishdagi «o'rtamiyonachilik» 70-80 foizni tashkil etayotganligi, funksional savodsizlik avj olayotganligi bayon etilgan. 80- yillarda AQSh o'quvchilarining 50-yillarga nisbatan reyting ko'rsatkichi 973 dan 893 ga tushdi, Fransiyada ham 3 litseychidan biri muvaffaqiyatga uchrayotir. Ta'limda ro'y berayotgan bu salbiy holatni bartaraf etish to'ldiruvchi ta'lim zimmasiga tushadi. To'ldiruvchi ta'lim maktabgacha tarbiya muassasalarida maktab va litseylarda amalga oshirilmokda. AQShda bu xizmatga ommaviy axborot vositalarining imkoniyatlari ham safarbar etilgan. Milliy telekompaniya maxsus o'quv kanali orqali 130 soatlik o'quv ko'rsatuvlari tashkil etdi.

O'quv jarayonlarini tabaqalashtirib olib borish bo'yicha chet el mamlakatlarining ko'pchiligada tadqiqot davom ettirilmokda.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonning dunyo hamjamiyatiga faol qo'shilib borishi milliy ta'lim tizimini jahon andozalariga muvofiqlashtirishni talab qila boshladi. Aytish lozimki, bu borada muayyan ishlar amalga oshirildi. Masalan, **«oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga, mutaxassislar tayyorlashda ko'p bosqichli tamoyilga amal qilishga, O'zbekiston o'quv-ta'lim amaliyotiga kadrlar tayyorlashning jahon tajribasi yutuqlarini tatbiq etishga katta ahamiyat berib»** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1995 yil 1 avgustda «Oliy va o'rta maxsus maktab muammolari institutini tashkil etish xaqida» qaror qabul qildi. Shu sababli Vatanimiz olim, pedagog va uslubiyotchilari hamda xalq ta'limi sohasi rahbarlari amalda sinovdan o'tgan barcha ijobiy holatlarni aniqlash va ularni O'zbekiston milliy ta'lim tizimida qo'llash maqsadida tez-tez ilg'or xorijiy maktablar tajribalariga murojaat qilishmokda. Bu sohada hozirgacha ayrim qiziqarli natijalarga erishildi. Ular, masalan, xorijiy oliy maktab ta'lim organlari tuzilishini o'rganishga taalluqli. O'zbekistonda kadrlar

tayyorlashning Milliy dasturi - doirasida xorijiy oliy maktab tajribasidan nihoyatda keng foydalanilmoqda. Bunda O'zbekiston oliy maktablaridagi ta'lim siyosati va mehnat bozori yo'nalishini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Jahon mamlakatlaridagi ta'lim islohotlari qanday amalga oshirilmokda?
2. Rivojlangan davlatlarda ta'limni isloh qilish yo'llari haqida gapiring.
3. Mehnat ta'limi, kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishlar xakida gapiring.
4. Jahon pedagogikasida ta'lim amalga oshirilishi kanday olib borilmokda?
5. Jahon mamlakatlarining ta'lim tizimida qanday maorif muammolari bor?
6. Chet el ta'lim tizimi haqida nimalarni bilasiz?
7. XIX asr oxirlarida pedagogika fanida qanday o'zgarishlar, yangiliklar bo'ldi?
10. Xorijiy davlatlarda ta'lim tizimining tashkil etilishi haqida ma'lumot bering.
11. Ta'limdagi ustuvor yo'nalishlar va moddiy-texnik ta'minot qanday usulda olib boriladi?
12. Pedagogik faoliyatning tashkil etilishi nimadan iborat?
13. Ta'lim globallasuvi muammosining xususiyatlarini ochib bering.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Yevropa mamlakatlarining geografik xaritasini chizing.
2. Chet el ta'limi bilan mustaqil O'zbekistondagi ta'limni solishtiring.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Germaniyada kasb-hunar ta'limi (Xorijda ta'lim). Ma'rifat – 2002 .
2. Jahon mamlakatlari tarixi. T:O'qituvchi, 1994 y.
3. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995. – 204 b.
4. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
5. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
6. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.
7. www.glef.org. Djordj Lukasning Ta'limning fondi.
8. www.newhorizons.org. Ta'limning yangi uflari.
9. www.rhecherswithoutborders.org. Chegarasiz o'qituvchilar.
10. www.thelearningweb.net. Ta'lim tarmogi.
11. www.inetlibrary.com. Internet-kutubxona.

2-MAVZU: YAPONIYADA TA'LIM TIZIMLARI

Maqsad:

1) *ta'limiy maqsad:* Yaponiya ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish

2) *tarbiyaviy maqsad:* Yaponiya ta'lim tizimida milliylikni tahlil etishni o'rganish

3) *rivojlantiruvchi maqsad:* Yaponiya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Geografik joylashuvi va tabiati.
2. Yaponiyada ta'lim tizimi.
3. Yunesko tashkilotining tashkil topishi va uning faoliyati

Geografik joylashuvi va tabiati

Sharqiy Osiyodagi, Tinch okeanining g'arbida joylashgan yirik Xonsyu, Kyusyu, Xokkaydo va bundan tashqari 3900 dan ortiq orollarni birlashtirib turuvchi yaponiya davlati jahondagi eng rivojlangan davlatlardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga Yaponiya Rossiyaning kuril orollarining bir qismi bo'lgan Iturup, Kupomir, Shikotan va Xabomay orollar guruhlarini o'z hududida deb hisoblab kelmoqda. Mamlakat hududining asosiy qismi qirlar va past tog'lar bilan qoplangan. Baland tog'larning ko'pchiligi harakatdagi vulqonlar hisoblanadi. Bunday vulqonlar mamlakatda 60 dan ortiq shu sababli dunyodagi seysmologik jihatdan eng aktiv va zilzila va ehtimoli yuqori davlat Yaponiya hisoblanadi. Mamlakatlarning eng baland nuqtasi fudzlami vulqoni (3776m). Eng keng tekislik Xonsyu orolidagi Konto va Diysi. Mamlakatda faqat 6 daryo uzunligi 200 km dan oshadi. Sinono daryosi eng uzun (369km) daryo hisoblanadi Yaponiyadagi ko'pchilik ko'llar tiktonik ko'llar bo'lib, ular otilgan vulqon kraterlarida paydo bo'dgan. Eng katta Kul-biva (672km.kv).

Mamlakt aytarli yer osti mineral resurslariga ega emas. Tosh ko'mir, mis, qo'rg'oshin, sink rudalarining kichik konlari topilgan. Shuningdek mamlakat dengiz osti mineral resurslaridan foydalanish chora-tadbirlarini ko'rmoqda. Asosiy tabiiy resurs bu-baliq.mamlakat hududi 13% shudgor qilinadi , 67% o'rmon va butazor.

Aholisi.

Yaponiya aholisi 127.333.002 (2004 yil 06), 1 km.kv ga 335 kishi to'g'ri keladi. Aholining deyarli barchasi yapon millatiga mansub (99.4%) va koreyaliklar 511.262, xitoyliklar 244.241, brazilyaliklar 182.232, filipinliklar 89.851 va boshqa millat vakillari 237.914 kishi. Davlat tili yapon tili. Aholining asosiy qismi (84%) sintoizm va buddizm dinlariga etiqod qilishadi. 16% aholidan 0.7% xristian va dinsiz. Aholining tug'ilish darajasi 0.08% (2004 yil). Yosh bolalar o'limi 3.28 (1000 tug'ilgan chaqaloq, 2004 yil). Mamlakt aholisi o'rtacha yoshi 42.3 yil, aholi umri uzoqligi dunyoda birinchi erkaklar 77,74, ayollar 84,51 yil (2004 yil). Aholining 66.66 mln.ni mehnatga yaroqli hisoblanadi.

Davlat tuzilishi.

Davlat tuzilishi – konstitutsion monarxiya. Yaponiya ma'muriy jihatdan 46 prefektoriya va Xokkaydo gubernatorligiga bo'linadi. Mamlakat 47 prefekturadan Anchi, Anita, Aomori, Chiba, Yexime, Fukun, Fukuoka, Fukushima, Gifu, Gumma, Xirosima, Xokkaydo, Xnogo, Ibaraki, Imikava, Iivate, Kogava, Kagomima, Kanogava, Kochi, Xumamoto, Kioto, Miye, Miyagi, Miyazaga, Kagalo, Kolosaki, Kora, Niigati, Oseto, Okeama, Okinova, Osaka, Saga, Soitama, Shiga, Shimake, Shizuoka, Tochigi, Togushima, Molio, Tottori, Toyama, Vakayama, Yamagata, Yamagucha, Yamokashidan iborat. Afsonaga ko'ra Yaponiya davlatini imperator Dzimmu eramizdan avvalgi 660 yil asos solgan. Milliy bayram imperator Akixito tug'ilgan kuni 23-dekabr (1933 yil).


Imperator Akixito 1989 yil 7 yanvardan beri mamlakatni boshqaradi. Mamlakat konstitutsiyasi 1947 yil 3-may kuni qabul qilingan.

Rasmiy hukumat rahbari Bosh Vazir hisoblanadi. 2001 yil 26 aprelda o'tkazilgan saylovlardan keyin ko'pchilik ovozi to'plagan liberal demokratlar partiyasi rahbari Dzunichiro Koidzumi Vazirlar Mahkamasi raisi bo'lib saylandi. Mamlakat qonunchilik organi 2 palatali parlament bo'lib, u yuqori palata maslahatchilar palatasi (sandi-in) va quyi palata vakillar palatasidan (shuchi-in) tarkib topgan. Yuqori palata 247 o'rindan iborat bo'lib, 6 yilga saylanadilar. Quyi palata 480 o'rindan iborat 4 yilga saylanad. Quyi va yuqori palatalarda liberal demokratlar partiyasi 115 va 110 o'rin bilan ko'pchilik joylarga egalik qilmoqda. Shuningdek mamlakatda yaponiya kommunistik partiyasi. Yaponiya demokratik partiyasi, sotsial demokratlar partiyalari mavjud.

Yaponiya O'zbekiston mustaqilligini 1991 yil 28 dekabrda tan olgan. Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1992 yil 26 yanvarda o'rnatilgan. Yaponiyaning O'zbekistondagi elchixonasi 1993 yil yanvarda ochilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yaponiyaga davlat tashriflari 1994 yil va 2002 yillarda amalga oshirilgan. Ushbu tashriflar chog'ida ikki tomonlama munosabatlar o'rnatishning xalqaro huquqiy asoslari yaratilgan.

Kun chikar o'lka Yaponiya hududining o'lchamiga ko'ra G'arbiy Yevropaning eng yirik mamlakatlari va AQSh shtatlari bilan taqqoslasa bo'ladi. Biroq tarkibiga va shakliga ko'ra Yaponiya hududi ulardan ko'ra keskin farq qiladi. Yaponiya arxepilaglar mamlakati bo'lib, to'rtta yirik va deyarli to'rt mingta mayda orollardan tashkil topgan. U butun bir orollar mamlakatidir. Tabiiy resurslariga kambag'al. Yaponiya sohillarga nihoyatda boydir. Yaponiyaning IGU si uning orollarida joylashganligi bilan bog'liqdir, mamlakat orollari Yevrosiyo bilan Tinch okeani orasida 3,5 ming km ga cho'zilgan bo'lib, Osiyo va Tinch okeani regionini markazidadir. Bu hol mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun juda katta imkoniyatlar ochadi. Mamlakatning Osiyoning chekka sharqida joylashganligi uning iborali nomida aks etgan «KUN ChIQAR O'LKA» deb ataladi.



Yaponiyada ta'lim tizimi

Ma'lumki, XX asrning ikkinchi yarmida Yaponiya ta'lim borasida jahonda eng oldingi o'rinlarga ko'tarildi. Vaqti-vaqti bilan YuNESKO tomonidan majburiy boshlang'ich va o'rta ta'lim yoshlari orasida o'tkaziladigan test sinovlari orqali bu natijalar xalqaro miqyosda tasdiqlanib turadi. Shunga qaramasdan Yaponiyada 90 yillarning oxirida ta'lim tizimida reforma boshlab yuborildi. Yapon mutaxassislarining e'tirofiga ko'ra asosan o'tgan asrning 82 yillaridan mamlakatda jiddiy o'zgarishlari yuz bergan va bu o'zgarishlar iqtisodiy, ma'naviy mutanosiblikni talab qila boshlagan reformaga kirishilgan. Bu o'z o'rnida maktab va oiladagi bola ta'lim va tarbiyasi, tizimiga bir davrda salbiy ta'sir o'tkazgan payti ayni shu yillarda bolalar asabiylashib guruh-guruh bo'lib urishishga, o'qituvchilarga gap qaytarishga, hatto ota-onalarini ham haqorat qilish darajasiga borib qolishgan. Maktab, tarbiya yo'nalishidagi bu kutilmagan hodisalar an'anaviy sharq tarbiyasi yo'nalishida bo'lgan yapon tarbiya tizimini, ushbu tizimda faoliyat ko'rsatayotgan mutaxassislarni karax holatiga olib kelgan. Ushbu holatni kuzatish tahlil etish orqali mutaxassislar bunga sababni mamlakatdagi taraqqiyot talablari yoshlar yelkasiga og'ir, bolalarga mos kelmaydigan muammolar yuklaganliga olib kelganligini aniqlangan, e'tirof etishgan. Bilim olish Yaponiyada ham inson uchun doimo o'ta muhim vazifa sanalgan. Ammo urushdan keyingi yillarda yuqorida ta'kidlanganidek, ta'lim olish yoshida bo'lgan avlod zimmasiga yuklangan ortiqcha yuk yillar o'tgan sayin, ya'ni, saksoninchi yillarda muammo keltirib chiqargan va buni ko'pchilik mutaxassislar ham sezmay qolishgan. Masalaning mohiyati, ota-onalar bolani zamon talablariga moslashtirish uchun qanday qilib bo'lmasin o'qishning navbatdagi yuqori bosqichiga kuch bilan bo'lsa ham mumkin va mumkin bo'lmagan usullarda (asosan) onalarning yetaklab o'tishlari bilan bog'liqligi aniqlangan. Navbatdagi pog'onaga qaysi bir sabablarga ko'ra erisholmagan bola moddiy va ma'naviy qiynoqlarga solingan, uni majbur qilishdan to'xtashmagan, natijada bola yo onaga qo'l ko'targan yoki o'z joniga qasd qila boshlagan. Masalaning hal etilishida katta o'rin tutgan tadbirlardan biri - o'rta ma'lumot olishning oxirgi bosqichi bo'lmish 10-12 sinflardagi imtihonlar bekor qilinib, barcha bolalarga uchun yetishmayotgan sinflar soni ko'paytirilgan, oliy ta'limni hohlovchilarga yetarlicha xususiy institutlar ochilib tanlov muammosi bartaraf etilgan. Shu sababli Yaponiyada davlat institutlariga tanlov hali hamon bir o'ringa bir, bir yarim bolani tashkil qilar ekan. Yaponiyada maktablar asosan uch yo'nalishda davlat, ommaviy va xususiy maktablar tartibida faoliyat ko'rsatishadi. Davlat va xususiy maktablar faoliyati mazmun-mohiyati tushunarli. Ammo ommaviy maktablar-chi. Ularning qanday o'ziga xos xususiyatlari bor? Ular ham boshqa yuridik sub'ektlar kabi soliq to'lovchilar mablag'iga yuritiladi, ammo ularga munitsipalitet yoki prefektura rahbarlik qiladi. Maktab va o'quv yurtlari uchun maorif vazirligi faqat tavsiyalar ishlab chiqaradi. Yaponiya ta'lim tizimi islohotlari davrining boshlanishi aslida 1868 yildagi Meydzi inqilobi bilan bog'liq. Inqilob natijalaridan keyin yapon jamiyatning endigi taraqqiyotiga eski ta'lim tizimi javob berolmaganligini aytsak o'ladi. Shu bois mamlakatda o'sha yillari ta'lim tizimida katta tashkiliy ishlar olib boriladi. 1871 yil ilk bor maorif vazirligi tizimida 1877 yili Tokio universiteti tashkil topadi. Ayni shu davrda yaponlar

dunyoning yetakchi ta'lim tizimlarini o'rganib chiqib, undagi eng yangi yo'nalishlarni o'zlariga singdirishga kirishadilar va bu yo'nalishda Amerika, Fransiya, asosan Yevropa ta'lim tizimlari asos qilib olinadi.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan. Yaponiya o'z oldiga ikki vazifani: 1 - boyish, 2 - g'arb texnologiyalarini Yaponiya ishlab chikarishiga kiritish masalasini qo'ydi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligini angladi.

1872 yili «Ta'lim haqida» Qonun qabul qilindi. Bunda yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uygunlashtirilgan. 1893 yilda kasb ta'limi yo'nalishidagi birinchi kollej paydo bulgan. 1908 yilda Yaponiya boshlang'ich ta'limni majburiy 6-yillik qilib belgiladi.

1946 yili qabul qilingan konstitutsiya fuqorolarning ta'lim sohasidagi huquq va burchlarini belgilab berdi. Unda barcha bolalar bepul umumiy ta'lim olishi shart ekanligi qayd etilgan. Hozirgi zamon yapon ta'lim tizimining tarkibi quyidagicha: bog'chalar, boshlang'ich maktab, kichik o'rta maktab, yuqori o'rta maktab, oliy ta'lim tizimlariga kiruvchi oliy o'quv yurtlari. Bolalar yoshlariga karab 3, 2, 1 - yillik ta'lim kurslariga jalb qilinadi. Yaponiyada maktabgacha ta'lim muassasalarining 59,9 foizi xususiy, 40,8 foizi davlatnikidir.

Maktabgacha ta'limga Yaponiyada katta e'tibor beriladi, chunki psixologlarning ta'kidlashicha 7 yoshgacha inson bilimlarni 70 foizini, qolgan 30 foizini butun qolgan umri davomida o'zlashtirar ekan. Maktabgacha tarbiya odatda oiladan boshlanadi. Yapon ayollari uchun onalik har doimgidek birinchi o'rinda turadi. Ko'pgina yaponkalarining aytishlaricha, bola tarbiyasi-ularning hayotlarining maqsadidir.

Yapon tarbiyachilarini bolalarni kichik guruh(xan)larga bo'lib o'qitishlari maktabgacha tarbiyaning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bu guruxlar o'zlarining stollariga, bolalarning o'zlari tanlagan shaxsiy nomlariga, (bu bolalarda qarorlar qabul qilishda, o'zgalar fikrini hurmat qilish, guruh a'zolarini barchasini tashabbuskor bo'lishga) o'rgatadi. Bunday usul kichik maktablarda ham, o'rta maktablarda ham davom etadi. Bu guruhlar o'rtacha har 5 oyda shakllanib turadi. Yapon bolalariga sinfni boshqarish juda yoqadi. Shuning uchun har kuni bolalarning o'zlari (toban) boshqaruvchi tanlaydilar. Har bir bola bu vazifani bajarib ko'radi.

Boshlang'ich maktabda o'qituvchilar bolalarni tanqidga, ya'ni o'z xulqlarini yomon tomonlarini, maktabdagi kamchiliklarni tanqid qilishni o'rgatadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchi faqat ta'lim berish bilan cheklanib kolmay, bolaning har tamonlama rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham Yaponiyada o'qituvchi kasbiga katta e'tibor beriladi. Yaponiya-rivojlangan davlatlar ichida o'qituvchining maoshi davlat rahbarlari maoshidan ham yuqori bo'lgan yagona davlatdir.

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasi 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'z ichiga oladi. 6 yillik boshlang'ich ta'lim va 3 yillik o'rta maktab 9 yillik majburiy ta'limni tashkil etadi va u bepuldir. Muhtoj oilalarning bolalari bepul nonushta, o'quv qurollari, tibbiy xizmat bilan ta'minlanadi. Zarur bo'lgan

hollarda ularning oilalariga moddiy yordam ko'rsatiladi. Shu bilan birga Yaponiyada xususiy maktablar ham mavjud.

Yukori o'rta maktab 10,11,12-sinflarni o'z ichiga oladi, bunday maktablarning kunduzgi, sirtqi, kechki bo'limlari mavjud. O'quvchilarning 95 foizi kunduzgi maktablarda o'qiydi.

Yaponiyada o'quv yili -240, AQShda - 180 kun. Yozgi kanikul iyun oyining oxirida boshlanib, avgustda tugaydi. Darslar kuniga 7 soatdan o'tiladi.

Oliy ta'lim. Universitetlarga yuqori va o'rta maktabni yoki 12 yillik oddiy maktabni bitirgan o'quvchilar qabul qilinadi. U yerda 460 ta universitet bulib, 95 tasi davlat tasarrufida, 34 tasi munitsipial, 31 tasi xususiydir. 1-toifadagi universitetlarda har bir o'qituvchiga 3 nafar, 2-toifali universitetlarda esa 20 tadan talaba to'g'ri keladi. Universitetlarga qabul qilish ikki bosqichga bo'linadi: 1-bosqichi turar joyda o'tkaziladi, buning uchun eski yapon tili, matematika, fizika, kime, jamiyatshunoslik, tarix bo'yicha test sinovlaridan o'tiladi.

Yaponiyada oliy ta'lim majburiy hisoblanadi va u kasb ta'limi bilan uzviy bog'liqdir. Oliy ta'lim tizimi quyidagi turlarni o'z ichiga oladi.

1. To'liq sikldagi universitetlar (4 yil).
2. Tezlashtirilgan universitetlar sikli (2 yil).
3. Kasb ta'lim kollejlari.
4. Texnika institutlari.

Yunesko tashkilotining tashkil topishi va uning faoliyati

Yunesko Birlashgan Millatlar tashkilotining ta'lim, fan, madaniyat masalalarini rivojlantirishga ixtisoslashtirilgan tashkilot bo'lib u 1946 yilda tashkil etilgan. BMT ikkinchi jahon urushidan keyin suveren davlatlarning ixtiyoriy birlashuvi asosida jahonda tinchlik va xavfsizlikni saqlash xamda o'rtasida tinch hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tuzilgan. BMT o'zining tuzilishiga ko'ra Bosh Assambliya (yalpi majlis), Xavfsizlik kengashi, Xalqaro sudga ega. Bulardan tashqari BMTning domiy amalda bo'lgan faoliyatini kotibiyat olib boradi va uning ishini Bosh assambliya saylab qo'yadigan Bosh Kotib boshqarib boradi.

Bosh Assambliya har yili jahon siyosatining dolzarb muammolarini muhokama qiladi va bu masalalar bo'yicha BMTga a'zo bo'lgan davlatlarga yoki Xavfsizlik kengashiga tavsiyalar beradi.

Hozirgi kunda BMTning Yunesko tashkiloti bolalarni Himoya kilish tashkiloti (Yunisef), oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi masalalari bilan shug'ullanuvchi «FAO» tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST), Atom energiyasi bo'yicha xalqaro vakillik (MATATE), Kosmik fazodan tinch maqsadda foydalanish Komiteti, Xalqaro Elektr Aloqalari Ittifoqi singari o'nlab tashkilotlar davlatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtirishga jahon siyosatining yetakchi kuchiga aylanib bormoqda.

1993 yili ma'lumotlarga ko'ra Yunesko tashkilotiga 171 davlat, jumladan O'zbekiston ham a'zo. Bu tashkilotning qarorgohi Fransiyaning poytaxti Parij shahrida bo'lib, uning bosh organi - Bosh direktordir. Yunesko faoliyati o'ta xilma-xil va ko'p qirralidir, uning ta'lim sohasidagi ishlari ko'p

yo'nalishlarda olib boriladi. Jumladan, rivojlangan mamlakatlarda savodsizlikni tugatish, jahon ta'limi rivojlanishidagi tendensiyalarni tahlil qilish va uni ommalashtirish, u yoki bu mamlakatlarda ta'lim bo'yicha olib borilayotgan siyosatni ham ma'naviy rag'batlantirish va boshqalar. Yunesko mazmunli ta'limning hamma uchun birday imkoniyat doirasida bo'lishini ta'minlash, uning uzluksizligini qaror toptirish, ta'limni va uning shaklini kelajakda rivojlanishi tamoyillaridan kelib chiqadi. O'qituvchi kadrlar tayyorlash, ularning nazariy-amaliy saviyasini muttasil oshirib borish, ba'zi mamlakatlarda muammo bo'lib hisoblangan xotin-qizlarning erkaklar bilan teng bilim olish xuquqlarini ta'minlash, ekologik ta'limni yo'lga qo'yish, darslik va dasturlarni takomillashtirish, mamlakatlar o'rtasida ta'lim bo'yicha hamkorlikni butun choralar bilan rivojlantirish va juda ko'p boshqa masalalarni hal qiladi.

Bu faoliyatning barchasi yoshlarga jahon talablari ruhida ta'lim berish, ularni xalqaro hamkorlik, o'zaro ishonch, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgandir. Fan va texnikani rivojlantirish borasida Yunesko bir qator davlatlararo dasturni amalga oshirdi. Bu dastur asosan, ekologik muhitni yaxshilash, atrof-muxitni muhofaza qilish bilan bog'liqdir. Hozirgi dunyoda millatlar va xalqlarning madaniy, tarixiy meroslarini asori atiqalarini asrash, avaylash, kelajak avlodlar uchun uni saqlash ta'mirlash ishlari katta ahamiyatga molikdir. Bu masalada Yunesko asosiy o'rinni egallaydi.

Uning ro'yxatiga jahon tarixiy yodgorliklarining iftixori hisoblangan Buyuk Xitoy devori, London Tauyeri, Kliment Jarodagi milliy park va boshqa minglab ob'ektlar kiradi. 1993 yildan boshlab O'zbekistonning Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon, Toshkent va boshqa joylaridagi ko'plab tarixiy obidalar ana shu ro'yxatga kiritiladi.

Yunesko faoliyati tarkibiga yana xalq og'zaki ijodiyoti, folklor o'lanlar, aytishuvlar, maqomlar, xalq kuylari, laparlarni saqlash ham kiradi. Adabiyot bo'yicha Yuneskoning roli ayniqsa salmoqlidir. Jahon adabiyoti, uning shoh asarlari, adabiy meros, ayniqsa u tomonidan e'zozlanib, ular to'planadi va jahonning turli tillariga tarjima qilinib, bosmadan chiqariladi va tarqatiladi.

1992 yil 2-martda O'zbekiston BMTga a'zo bo'lgach, BMTning barcha tashkilotlariga haqli a'zo bo'lib kira olish huquqiga ega bo'ldi. Shu bois O'zbekiston 1993 yil 26-oktabrda Yuneskoga a'zo bo'ldi. 1993 yil Yuneskoning ko'zga ko'ringan ekspertlari yurtimizga tashrif buyurib, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining tarixiy obidalari bilan tanishdilar. Natijada bu yodgorliklarni qayta tiklash va ta'mirlash dasturi tuzildi va bu dastur 1995 yildan amalga oshirila boshlandi.

Yunesko tashabbusi bilan Parijda Muhammad Tarag'ay Ulug'bek tavalludining 600-yillik yubiley tantanalari bo'lib o'tdi. Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlarining yubileylari o'tkazildi. Yunesko ekologik muammolari hal etishda ham yordam ko'rsatishga tayyor. BMT jahon madaniyati va ma'rifatini rivojlantirish o'n yilligini (1988-1997) o'tkazishga qaror qilingan edi. Yunesko ham shu doirada faoliyat yurgizib, «Buyuk Ipak yuli»ni kompleks o'rganish dasturini qabul qildi. Bu dasturning maqsadi Sharq bilan G'arb o'rtasidagi quruqlikdan va dengizdagi yo'lining salohiyatini aniqlash,

tiklashdan iborat bo'lsa, ikkinchi tomondan bu yo'l Sharq bilan G'arbning madaniy va ma'rifiy hamkorligini xam bir-biriga bog'lovchi ko'priklar ekanligini ochib berish, uni tiklashdan iboratdir.

Bu tadqiqotlar to'rt asosiy yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Irak yo'li mamlakatlariga kiruvchi xalqlarning tili va yozuvini o'rganish.

2. Karvonsaroylar o'rnini aniqlash va ularni qayta tiklash, pochta aloqalarini yo'lga qo'yish.

3. Kosmik arxeologiyani qayta jonlantirish.

4. Jahon turistlar tashkiloti bilan hamkorlikda ipak yo'li bo'ylab turistik yo'nalishlarni ochish va uni harakatga keltirish. Yuneskonning tashabbusi va hamkorligi bilan O'zbekistonda qator madaniy ma'rifiy tadbirlar o'tkazish davom etmoqda

Xulosa qilib shuni ta'kidlaganda mustaqillikning dastlabki yillaridan bizning jamiyat ham yangi iqtisodiy munosabatga o'tdi, hayotimizga bozor tushunchasi kirib keldi. Demak, jamiyatimizning asoslaridan biri bo'lmish ta'lim tizimini ham o'zgartirishni taqozo etardi. Shu o'rinda Prezident I.A. Karimov bir so'zida: "Ta'lim va tarbiya tizimini o'zgartirmasdan turib, odamlar ongini, demakki, ularning turmush tarzini ham tubdan o'zgartirish mumkin emas" deb ta'kidlagan edi. (I. Karimov: "Vatan va xalq mangu qoladi" T. 2010. 102b.) Ushbu muhim fikr mamlakatimiz ta'lim tizimini o'zgartirish maqsadida bu yo'nalishda muhim ahamiyatga ega qarorlar qabul qilinishiga olib keldi va bugungi kunda ham kerakli o'zgarishlarni kiritib ta'lim tizimini takomillashtirib bormoqda. Shu bilan bir vaqtning o'zida jamiyatimiz, xalqimiz, qolaversa ertangi kunimiz davomchilari bo'lgan yosh avlod kelajagi va unga qanday ega bo'lish masalasini yanada jiddiyroq o'ylab ko'rish zarurati hali hamon sezilib kelmoqda. Millatning yoshlari to'g'risida qayg'urar ekanmiz, hali ta'lim va tarbiya sohasida muhim o'zgarishlar o'z navbatini kutib turipti. Vaholanki, ta'lim tizimidagi katta o'zgarishlarni hal qilmay turib jamiyatdagi muammolarni hal qilib bo'lmasligi aniqlashib bormoqda. Shu o'rinda Markaziy Osiyo va qolaversa umumturkiy xalqlar orasida eng kattalaridan biri bo'lganimiz uchun qardosh xalqlar orasida yashab va istiqomat qilib kelayotgan o'zbeklar, ularning yoshlari va bu yoshlarning kelajagiga ham aynan bizning ta'lim tizimimiz va undagi yutuq va kamchiliklar jiddiy ta'sir qilishini inobatga olishimiz zarurga o'xshaydi. Demak, ular to'g'risida ham qayg'urishimiz, ularga bizning yurtimizga kelib xususiy va yaponlarnikiga o'xshash ommaviy yoki shunga o'xshash maktablarda bilim olishlariga sharoit yaratib berishimiz, bizning ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatlarni ular bilan baham ko'rishimiz, o'qituvchi kadrlar, darsliklar orqali yordam berishimiz zarurati sezilmoqda. Bizning yutuq va kamchiliklarimiz nimada, degan savoldan oldin eng avvalo biz kimmiz degan savol turadi. Bugungi kundagi tilimiz, maktabda o'zbek tilining o'rgatilishi, yoshlar va o'qituvchilar tili, uning ahvolini jiddiy tahlil qilishimiz lozim. Ma'lumki, fan, texnika, umuman yangilik qayerda paydo bo'lar ekan o'sha yerning til boyligi, qilingan ixtirolar, yangiliklar orqali boshqa millat va tillarga kirib keladi. Tilimizga yangiliklarning kirib kelishiga qarshilik qilmasdan uning asl imkoniyatlarini ham qayta o'rganib, unutilgan so'zlarni tiklash, o'zbek

tilining katta lug'aviy qatlamini amaliyotga kiritishimiz lozim. Tarbiya va ta'limning eng asosiy vazifasi: oila, bog'cha, maktab, letsey va kollej, institut yoki universitet yoshlarga butun umr shunday bilim olishni o'rgatsinki, har bir o'quvchiga u o'z manfaatini har doim, hamma joyda himoya qilishga imkon bersin. Buning uchun umumta'lim maktablari, ularning turlari, aytaylik, davlat maktablari, yaponlarnikiday yoki boshqa bir turdagi ommaviy maktablar, xususiy maktablar va ularga bo'lgan munosabatni vatanimizning bugungi iqtisodiy va ma'naviy yuksalish bosqichidan kelib chiqqan holda qayta qarab chiqish vaqti keldi. Insonlar irsiy notenglikka ega bo'lib qolaverishini XXI asrda qaytadan isbotlab o'tirishning o'zi aniq aksiomani sxolastik muammoga aylantirib qayta velosiped ixtiro qilish ekanligini qancha tez tushunib yetsak, o'z ertangi kunimizga, millatimizga, uning yoshlariga shunchalik tez yordam qilgan bo'lamiz. Sababi, biz yashayotgan asr intellektual asriga aylanib bo'lgan. Kimki bu asrni mana shunday qabul qilmas ekan, jahon taraqqiyotidan chetda qolib ketadi. Bugungi kunda bolalarini tashqariga, xorijiy davlatlarga o'qishga yuborayotgan ota-onalarni tushunsa bo'ladi. Chunki chetda o'qish har doim dunyo bilimlarini tezroq o'zlashtirish yo'llaridan hisoblangan. O'tmishda bobolarimizning uzoq yurtlarga borib ilm o'rganganlarini eslaylik. Ammo hozirgi ota-onalarning farzandlarini qaysi mamlakat va qaysi maktablarga nima uchun yubormoqchi bo'lganlari katta e'tiborni talab qiladi. Vaholanki, chet elda ta'lim ham pul topishning, ya'ni biznesning bir turi sanaladi. Shu nuqtai nazardan mashhur maktablar reytinglarini o'rganish orqali ularni oson topish mumkin. Ammo mamlakat va yo'nalish tanlash har holda doimo siz va sizning farzandingiz ixtiyorida qolaveradi. Hamma muammo tanlovdan tanlovdan keyin boshlanadi. Chunki ko'pgina mamlakatlardagi nufuzni maktablar sizning pul to'lashingiz yoki boshqa imkoniyatlaringizga, bog'lab osonlashtiradi o'zlari test uyushtirib iqtidorli, talantli yoshlarni, tanlab oladi. Shunday imkoniyatlardan foydalanib siz dunyoning mana-man degan maktablariga bolalaringizni joylashtirishingiz mumkin. Bu degan so'z, kelgusida sizning farzandingiz Oksford yoki Kembrij (bu o'rinda nima uchun Toshkent yoki Samarqand universitetlari emas degan savol tug'iladi) universitetiga abituriyentlikka yetib boradi. Bugungi kun jahon taraqqiyotiga nazar tashlar ekanmiz bu kuzatish shuni ko'rsatmoqdaki, taraqqiyot asosan uch yo'nalishga borib taqalmoqda. Birinchidan: yuqori texnologiya va hamma davlatlarning bunga intilishi. Ikkinchi yo'nalish; jamiyatning butun tarmoq va jihatlarini axborot bilan ta'minlash, bir so'z bilan aytganda asrimiz ma'lumot asriga aylanib bormoqda va nihoyat uchinchi yo'nalish; jahonning baynalmilallashib borayotganidadir. Qaysi xalq va millat jahonning qaysi burchagida yashashidan qat'iy nazar ularning dinlari, madaniyatlari, qadriyatlari va boshqa umuminsoniy ko'rsatkichlari hamma davlat va millatlar mulkiga aylanib borayotganini ko'rish mumkin. Jahon mamlakatlarining oliy ta'lim tajribasi, ma'lumotlar ko'pligidan bir qadar bo'g'ilib borayotganini, yoshlar uchun kerak bo'lmaydigan fan va ma'lumotlarning tiqishtirilayotgani ilm berishda mayda-mayda yo'nalishlar ko'payib borayotganini kuzatish mumkin. Ma'lumotlarning ko'pligi, dasturlarning turli-tumanligi haddan ziyod yangi pedagogik texnologiyalarning qo'llanilayotgani va hatto jahon tajribasida o'qituvchisiz bilim

olish yo'llari va usullari ko'p bo'lishiga qaramasdan o'qituvchi shaxsi hali hamon alohida mohiyatga ega bo'lib qolmoqda. Bu esa maktabga kelayotgan o'qituvchi yetarli hayot tajribasiga ega shaxslar bo'lishi lozim degan xulosani tasdiqlamoqda. Bu esa o'z o'rnida pedagogik institut va pedagogik muassalariga kiruvchilarning orasida tanlovning alohida jiddiy tahlil qilinishini oldimizga qo'ymoqda. Bugungi kunda maktablarimiz, ularning turlari, xilma xilligi, bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim tizimimizning yanada takomillashuvi, yoshlarga ma'lumotlarni tizimli va yetarli berishni, bu borada yetuk va barkamol avlod tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan pedagog shaxsining mukammalligi, yosh pedagog mutaxassislarning zamon talabiga javob berishi kelajak va kelajak avlodimiz bo'lmish yoshlarimiz tarbiyasida tutadigan o'rnini unutmasligimiz kerak.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Yunesko tashkiloti qanday tashkilotlar bilan hamkorlikda ish olib boradi?
2. Yunesko bilan BMT tashkiloti, Yunisef masalalari haqida tushunchangiz.
3. Yaponiyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
4. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
5. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
6. Yaponiyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?
4. Yaponiyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.
5. www.ref.uz

3-MAVZU: AQSHDA TA'LIM

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** AQSh ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** AQSh ta'lim tizimida o'ziga xoslikni tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** AQSh ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Geografik o'rni
2. AQShda ta'lim tizimi.
3. Nobel mukofati sohiblari.

Geografik o'rni

AQSh aholisi soniga ko'ra ham 3-o'rinda turadi. AQSh aholisi soni jihatidan Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya va Italiya aholisini qo'shib hisoblaganda ham ulardan oldindadir.

Biroq AQSh yosh davlat sifatida aholisining tabiiy o'sishi bo'yicha dunyoda eng oldingi o'rinlarni egallagan vaqtlar allaqachon o'tib ketdi. 80-90-yillar aholisining tabiiy o'sishi ancha kamayib, bu hol aholisining yosh jins piramidasida o'z aksini topdi. Endilikda aholining mutloq ko'payishi (o'sishi) 2 mln kishidan kam.

AQSh aholisining soniga immigratsiya hamisha katta ta'sir ko'rsatib kelmokda. XX asr boshida dunyoning deyarli 70 makmlakatlaridan AQSh ga 55 mln odam kirib kelgan. Hozirgi paytda har bir qator cheklashlarga qaramay mamlakatga 1 mln odam immigratsiya qilmoqda. Yalpi immigratsiya AQSh aholisi milliy tarkibida uning shakllanishida ham hal qiluvchi rol o'ynaydi. Hozirgi zamon Amerika millati avvalo dunyoning turli nuqtalardan, ayniqsa Yevropa bilan Afrikadan ko'chib kelganlarning etnik aralashib va qo'shib ketishi natijasidir. XX asr 2 yarmida Yevropadan immigratsiya ancha kamaydi, biroq Osiyo va Lotin Amerikasi immigrantlari orasida meksikaliklar ko'pchilikni tashkil etadi: millionlab meksikaliklar tirikchilik uchun pul ishlash maqsadida har yili goh oshkora, goh yashirin chegaradan o'tib ketadilar. Hozirgi vaqtda AQSh da 100 dan ortiq etnos vakillari yashasa-da, etnogrof olimlar ularni 3 asosiy guruhga bo'ladilar. Amerika qo'shma shtatlari maydoni: 9372587 kv km, aholisi: 242,1 mln kishi, poytaxti - Vashington. Davlat tuzimi: Federal respublika, davlat tili: ingliz tili. Davlat boshligi: Prezident. Dini: Protestant, islom va boshka. Ma'muriy xududiy joylashishi: 50 shtat va 1 ta okrug



AQShda ta'lim tizimi

Amerikada yagona davlat ta'lim tizimi mavjud emas. Ya'ni har bir shtat o'zi mustaqil ravishda ta'lim tizimini aniqlaydi. AQShda ta'lim tizimi quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar 3-5 yoshda bo'ladi.
- boshlang'ich maktab (1-8 sinf)da o'quvchilar 6-13 yoshda bo'ladi.
- o'rta maktab (9-12 sinf)da o'quvchilar 14-17 yoshda bo'ladi.
- oliy ta'limning quyi bosqich ta'lim muassasalari.

AQShda mavjud ta'lim tizimi mamlakat prezidenti va hukumatini tobora qoniqtirmayotir. Jon Kennidi 1963 yildayok shunday degan edi: «Yomon maktab davlatning yomon siyosatigina bo'lib, uni yomon iqtisodiyotga olib kiruvchi zamindir». Demak, AQShda ta'limning hayotdan orqada qolayotgan 60-yillaridayok sezilgan edi. 2000 yilda «Amerika ta'lim strategiyasi» dasturi e'lon qilindi.

Talabalarning tabiiy va matematika fani yutuqlarini o'zlashtirishda jahonga eng oldingi o'rinlarga chiqishlari: har bir voyaga yetmagan amerikalikning iqtisodiyot sohasida jahonning barcha yoshlari bilan bellasha oladigan bo'lishlari; maktablarda giyohvandlik va zo'ravonlikka barham berish o'qish uchun barcha shart-sharoitni yaratib berish ko'zda tutiladi. Bu AQShda ta'lim istiqbollarini belgilab beruvchi muhim dasturdir.

AQSh ta'lim tizimining maqbul tomonlarini ijobiy qo'llanilish bilan boshqarish, uni to'la mustaqillikka o'rgatish va tatbiq etish, besh yoshlik bolalarning maktab bosqichiga puxta tayyorlash, dars jarayonining bir xil andozasidan qutilish yo'llarini izlash, yo'nalishli va ayrim predmetlarini chuqurlashtirishning o'rgatish bo'yicha olib borilayotgan ishlarini yangi bosqichga ko'tarish, kasb yo'nalishi berish yo'lida olib borilayotgan ishlarini chuqur tahlil etib, mahalliy sharoitda kelib chiqish o'z ish faoliyatda qo'llashni tashkil qilish e'tiborga loyiqdir.

AQSh pedagogikasidagi:

- bolani o'z kuchi va imkoniyatiga ishonch ruhida tarbiyalash;
- o'quvchilarning eng kichik shaxsiy imkoniyatlarini ruyobga chiqarish uchun kurash;
- vatanga g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash kabi asosiy xususiyatlar boshqa davlatlar, jumladan bizning pedagogikamizga ham tatbiq etish zarur bo'lgan muhim sifatlardir.

Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.
2. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1-5-sinflarni o'z ichiga oladi.
3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6-8-sinflardan iborat.
4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9-11-sinflar bo'ladi. Mazkur yuqori maktab bilan Oliy ta'limni aralashtirmaslik kerak.

Amerika maktablarida 9-sinfgacha asosiy e'tibor matematikaga emas, balki tabiiy fanlarga qaratiladi, yuqorida tasdiqlangan yagona dasturlar bo'lmaydi. O'quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Amerika

maktablarida texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan, sinflar kompyuterlashtirilgan. Har bir maktabda boshlang'ich sinf o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar, stadionlar, turli laboratoriyalar bor. Amerika maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablag'i bilan ta'minlanadi. Lekin shaxsiy maktablar ham anchagina. Katta shaharlarda yashovchi o'ziga to'q ota-onalar farzandlarini shaxsiy maktablarga berishga harakat qilishadi. Davlat maktablarida tekin, shaxsiy maktablar esa - pullik o'qitiladi. Vashington shahridagi shaxsiy maktabda bolani o'qitish uchun bir yilga taxminan o'n ming dollar to'lash kerak. Bunday maktablarda boy oila farzandlari ta'lim oladilar. Shaxsiy maktablarning har biri o'zi xos xususiyatlarga, maxsus dasturlarga, maxsus o'qituvchilarga ega. Bunday maktablarda sinfda o'qiydigan o'quvchilar soni kam bo'ldai. Shaxsiy maktablarda boshlang'ich sinflardan boshlab estetik tarbiyaga, san'atga alohida e'tibor beriladi.

Amerika davlat maktablarining yuqori sinflaridagi o'qish-o'qitish tizimi biznikidan tubdan farq qiladi. Yuqori sinflardagi har bir o'quvchiga alohida o'qituvchi-murabbiy biriktiriladi. U shu o'quvchining qobiliyati, qiziqishlarini sinchiklab o'rganib, faqat shu o'quvchiga mos alohida reja tuzadi, uning o'qishiga rahbarlik qiladi. U o'rganishi lozim bo'lgan majburiy fanlar ro'yxatini tuzib chiqadi. Masalan, 9-sinf o'quvchisi bir fandani, deylik, kimyodan kuchli bo'lsa-yu, chet tilidan oqsasa, bu o'quvchiga 9-sinfda o'ninchi sinf rejasini bo'yicha kimyoni o'rganishga ruxsat etiladi. U chet tilini 9-sinf hajmida yoki yengillashtirilgan reja bo'yicha o'rganishi mumkin. Kimyodan yoki matematika, biologiya, fizika va boshqa tabiiy fanlardan maktab rejasini muddatidan oldin tugatgan, barcha kontrol ishlarini topshirgan o'quvchiga maktabda o'qib yurgan vaqtidayoq shu fanlar bo'yicha o'zi kirmoqchi bo'lgan kollejning birinchi kursi imtihonlarini ham topshirishiga imkoniyat yaratiladi.

Amerikaning yuqori maktablarida shunday o'qituvchilar borki, ular kollejlarning birinchi kurslarida o'qitiladigan ma'lum fanlardan dars berishlari hamda imtihon olishlari shart. Amerika maktablarida bitirish imtihonlari yo'q. Oliy o'quv yurtlariga kirish uchun bizdagidek kirish imtihonlari olinmaydi. Biroq har bir abituriyent oliy o'quv yurtiga kirish uchun matematika va ingliz tilidan sinov (test) topshiradi. Bunday testlar Amerikada har yili 3—4 marta o'tkaziladi. Sinov savollari kitob shaklida har yili chop etiladi. Ularda mingga yaqin mashqlar, masalalar va ularning yechimlari ko'rsatiladi. Sinflarda qanday savollar bo'lishi bizga o'xshab sir tutilmaydi, balki ochiq-oydin "matematika va ingliz tilidan bu yil mana shu savollarga javob berish lozim" deb ko'rsatiladi. O'quvchilar bu kitobni olib, kirish sinovlariga tayyorlanadi.

Amerikada talabalar matematika va ingliz tilidan kirish sinovlarini 10-12 sinflarda o'qib yurgan vaqtlarida, o'zlariga qulay paytda topshira oladilar.

Amerika oliy o'quv yurtlariga kirish uchun belgilangan sinov (test)lar ikki xil bo'ladi:

SAT (Sxolastik aptityud test);

AKT (Amerikan kollej test) sinovlari.

SAT sinovlari murakkabroq bo'ladi. Mashhur universitetlarga kirish uchun SAT sinovlarini topshirish shart bo'ladi.

Bulardan tashqari Murakkablashtirilgan sinov ham bor. Bu sinovni oliy maktablarga kirayotgan barcha talabalar ham topshirishlari shart emas. Mabodo biror talaba shu murakkablashtirilgan sinovlarni topshirib universitetga kirsa, u talabaga maxsus stipendiya beriladi. Amerikaning eng katta boyligi — bu aql. Aql bu mamlakatda qadrlanadi, aqlli talabalar alohida taqdir lanadi. Aqlli, a'lochi talabalar o'quv yurtlarining faxri sanalgani sababli ham, ularga turli yo'llar bilan yordam berish, stipendiyalar tayinlash orqali ularni o'quv yurtlarida saqlashga harakat qiladilar. O'zi tanlagan sohada yutuqlarga erishayotgan talabalar ro'yxati har yili alohida kitobda nashr etilib turiladi. Bundan maqsad mazkur soha bilan qiziquvchi kompaniyalarning e'tiborini bo'lajak olimlarga qaratishdir.

Yuqorida sanab o'tilgan sinovlarning natijalari va yuqori sinflarda barcha fanlardan olgan baholarining o'rtacha miqdori talabani universitetga qabul qilish yoki qilmaslik uchun asos hisoblanadi. Amerika kollejlari ikki yillik va to'rt yillik bo'ladi. Ikki yillik kollejlarni bitirgan talaba oliy ta'lim pog'onasidagi eng birlamchi darajaga ega bo'ladi. To'rt yillik kollejlarni tugatgan talabalar bakalavr darajasini olib, oliy ma'lumotning birinchi pog'onasiga erishadilar. To'rt yillik kollejlarda bizning to'rt yillik institut va ayrim universitetlarga mos keladi. Amerika universitetlari tarkibiga ikki va to'rt yillik kollejlarda, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda ikkinchi bosqich oliy ma'lumot beruvchi o'quv yurtlari kiradi.

Ikkinchi bosqich oliy ma'lumot beruvchi o'quv yurtlari bizning aspiranturaga to'g'ri keladi. Bu o'quv yurtiga kirish uchun ikki fandan imtihon topshirilishi shart. O'qishni muvaffaqiyatli bitirgan talaba magistrlik darajasini oladi. Magistrlik ilmiy darajasini olgan talaba doktoranturaga kirishi mumkin. Amerikada doktoranturaga kirish uchun faqat mutaxassislikdan jiddiy imtihon topshiriladi. Imtihon komissiyasi tarkibida talabaning bo'lajak ilmiy rahbari ham ishtirok etadi. O'qishni muvaffaqiyatli bitirib, dissertatsiya yoqlagan talaba doktorlik ilmiy darajasini oladi. Ijtimoiy fanlardan doktorlik dissertatsiyasi yoqlagan talabalarning hammasiga "falsafa doktori" ilmiy unvoni beriladi. AQSh maktablari - oliy maktabgacha mana shunday bosqichlarga ega.

Amerika Qo'shma Shtatlari oliy ta'lim maskanlari:

- Nyu-Jersi shtatidagi Ratgers universiteti;
- Michigan Davlat Universiteti;
- Ogayo Davlat Universiteti;
- Illinoys universiteti;
- Sakramentodagi Kaliforniya Davlat Universiteti;
- Merilend Universiteti;
- Jahon banki instituti.

Nobel mukofati sohiblari

Har yili dekabr oyining dastlabki kunlari jahon ilm ahlining nigohi Shvetsiyaning Stokgolm shahriga qaratiladi. Chunki bu yerda yirik kashfiyot va olamshumuml ixtirolar mualliflarini o'tib borayotgan yil natijalari bo'yicha buyuk kashfiyotchi olim Alfred Nobel nomi bilan ataladigan eng nufuzli mukofat bilan taqdirlash marosimlari o'tkaziladi.

Ilm-fan rivoji butun jahon olimlarining tabiat in'omlarini o'rganish yo'lidagi buyuk ishlarida ularni doimo birlashtirib kelgan. Inson tafakkurining mahsuli

bo'lgan kashfiyotlar bevosita ilmiy va nazariy tadqiqotlar bilan bog'liq bo'lgani bois, turli mamlakatlar olimlarining hamkorligi nafaqat fan va texnikaning, balki butun insoniyat rivojining asosi hisoblanadi.

Turgan gapki, keng jamoatchilik olimlarning qo'lga kiritayotgan yutuqlariga befarq qarab turmagan hamda ularning buyuk xizmatlariga nisbatan xolis baho berish tizimlari ishlab chiqilgan. Ayniqsa, bizning davrimizga kelib fan va texnika sohasidagi yutuqlarni keng ko'lamda taqdirlash ommalashib ketdi.

Ilmiy markazlar, akademiya va jamiyatlar, ko'plab milliy korporatsiyalar, turli davlatlarning maxsus qo'mitalari hamda xalqaro tashkilotlar olimlarning ilm-fan rivojidagi xizmatlari yoki kashfiyotlarini turli mukofotlar ko'rinishida munosib taqdirlab kelmoqda. Ana shunday ilmiy mukofatlardan biri 1900 yil 29 iyunda ta'sis etilgan Nobel mukofotidir. Ushbu noyob mukofot taniqli taniqli shved olimi Alfred Nobel vasiyatiga asosan ta'sis etilgan bo'lib, har yilning dekabr oyida berib boriladi.

Har yili 21 oktabr – Alfred Nobel tavallud topgan kuni yangi mukofot sohiblarining nomlari e'lon qilinadi. Ilk mukofot sohiblaridan misolar keltiramiz:

Nemis fizik tadqiqotchisi – Vilgelm Konrad Rentgen

Niderlandiyalik fizik-kimyogar – Yakob Xendrik Vant-Goff

Nemis bakteriolog oli – Emil Adolf Bering

Amerikalik olim – Laynus Karl Poling

Amerikalik fizik olim va iqtidorli muhandis-elektrik – Jon Bardin

Angliyalik kimyogar – Frederik Senger

Angliyalik fizik – Uilyam Genri Bregg



Nazorat savol va topshiriqlari:

1. AQShda ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. AQShda oliy ta'lim qanday olib boriladi?.
5. AQShda ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.
5. A.To'rayev., I.Karimov. Nobel mukofoti sohiblari. – Toshkent, 2001. – 173 b.

4-MAVZU: FRANSIYADA TA'LIM TIZIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Fransiya ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish;
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Fransiya ta'lim tizimida tabaqalashtirishni tahlil etish;
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Fransiya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish.

Reja:

1. Fransiyaning geografik o'rni
2. Ta'lim tizimi tarkibi.
3. Fransiya gumanistik harakat.

Fransiyaning geografik o'rni

Fransiya Respublikasi – G'arbiy Yevropadagi davlat bo'lib, g'arbda va shimolda Atlantika okeani hamda La-Mansh bo'g'ozi, janubda O'rta dengiz bilan o'ralgan. Maydoni 547,03 ming kv². Aholisi 60,500 kishi. Poytaxti - Parij shahri. Ma'muriy jihatdan 22 region, 96 ta departamentga bo'lingan. Fransiya tarkibi dengiz orti departamentlari (Gvadelupa, Martinika, Reyunon), dengiz orti hududlari (Taiti, Yangi Kaledoniya, Fransiya Polineziyasi, Tinch okeanidagi Uollis va Futuna orollariva boshqalar.), hududiy birliklar (Mayotta, Sen-P'er va Mikolen).

Fransiya respublikasining amaldagi konstitutsiyasi 1958 yil referendumda qabul qilingan. Davlat boshlig'i – president. U umumiy va to'g'ridan-to'g'ri ovoz berish yoki bilan besh yil muddatga saylanadi va yana bir marta saylanishi mumkin. Qonun chiqaruvchi hokimiyat – parlament 2 palata Milliy majlis va Senatdan iborat. Ijrochi hokimiyatni president va Vazirlar kengashi amalgam oshiradi.

Aholisining 90 % dan ko'prog'i fransuzlar; shuningdek, elzas va lotarin, katalon, Breton, flamand va basklar ham yashaydi. 3.5 mln muhojir (jazoir, portugal, italian, ispan, arman va boshqalar) bor. 4 mln musulmonlar istiqomad qiladi. Rasmiy tili – fransuz tili. Bundan tashqari, bir qancha mahalliy shevalari ham mavjud. Shaxar aholisi 73%. Aholining 80 % i xristian (katolik), 5% ga yaqini musulmon, 2% protestant, 1% yahudiy. Yirik shaharlari: Parij, Marsel, Lion, Tuluza, Nitsta, Nant, Strasburg, Bordo, Monpele, Lill.



Fransiyada ta'lim tizimi

Fransiya jahondagi iktisodiy rivojlangan mamlakatlar ichida yetakchi o'rinni egallaydi. Uning ta'lim tizimlari ham qadimiy va boy tarixga ega. Bu mamlakatda «Ta'lim haqidagi» Qonun dastlab 1955 yilda qabul qilinib, 1975 yilda unga bir qator o'zgarishlar kiritilgan. Fransiyada davlatining hozirgi davrida amal qilayotgan «Ta'lim haqidagi» Qonuni 1989 yil 10 iyulda qabul qilingan bo'lib, uning o'zgartirishlariga ta'lim strategiyasida ro'y bergan o'zgarishlar, mamlakatning ichki, tashqi siyosatidagi islohatlar, yuzaga kelgan iqtisodiy sharoitlar, chet el pedagogikasidagi ilg'or tajribalarning mamlakat ta'lim tizimiga kirib kelishi, o'quv fanlarining uyg'unlashuvi va boshqalar sabab bo'ldi.

Fransiyada ta'limning asosiy maqsadi shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlash, uni mustahkam faoliyatga tayyorlash, bozor munosabatlari sharoitida o'quvchilarni tadbirkorlikka, ishbilarmonlikka, omilkorlikka o'rgatish, shunga yarasha kasb-korga ega qilishdan iborat. Bu yerda: davlat maktablari, xususiy maktablar, oraliq maktablar mavjud. O'qitiladigan fanlar ichida fransuz tili va

adabiyoti, o'qish va yozuv alohida ahamiyatga molik. Ular uchun dars vaqtining 30 foizi ajratiladi. O'rtacha haftalik soatlar 26 soatdan iborat, darsning davomiyligi esa 60 daqiqa. O'quv yili 5 chorakka bo'linadi. Fransiyada maktablarida boshlang'ich sinflarda o'qish ertalabki va tushdan keyingi qismlarga bo'linadi. Ertalab o'quvchilar ona tilidan, tushdan keyin esa matematika va boshka fanlardan saboq oladilar.

Fransiya ta'limida bolalarning go'daklik chog'idanoq maktabda o'qitish uchun tayyor holda olib kelish g'oyat muhim masaladir. Bu bosqichda tarbiyalanuvchilar quyidagicha tabaqalashtirilgan:

- kichik guruh 2-4 yosh,
- o'rta guruh 4-5 yosh,
- katta guruh 5-6 yosh.

5-6 yoshlilar maktabga tayyorlov guruhi bo'lib, ularga Fransiyada shu yoshdagi bolalarning 100 foizini qamrab olingan. Bolalarni maktabga tayyorlash uchun alohida dastur va darsliklar mavjud.

Fransiyada boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadi. Boshlang'ich maktab bepul va majburiy. Uning vazifasi o'qish, yozish, hisoblash malakasini berishdir. O'quv mashg'ulotlari ertalab soat 9 dan 12 gacha hamda soat 14 dan 16 gacha 5 soat davom etadi. Maktabda ovqatlanish pullik, lekin arzonlashtirilgan narxlarda. Boshlang'ich sinflarda o'qish uch bosqichda amalga oshiriladi:

1. Tayyorlov bosqichi.
2. Elementar kurs (bu bosqich ikki yil davom etadi).
3. Chuqurlashtirilgan bosqich.

Dasturlarda o'quv fanlarining barchasiga uch bosqich bo'yicha aniq, alohida-alohida talablar qo'yilgan.

1990 yildagi hukumat qaroriga muvofiq bolalar bilimi va qobiliyatiga qarab, dars jadvalini tabaqalashtirilgan holda tuzish huquqi berildi. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab, o'rta maktabga o'tadi. O'rta ta'lim esa kollejlarda va litseylarda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda amalga oshiriladi. O'rta ta'lim ikki bosqichda beriladi. Birinchi bosqich (11 yoshdan 15 yoshgacha) 4 yil bo'lib, eng kichik sinf 6-sinf, 5,4-o'rta sinf hisoblanadi.

Oliy ta'lim universitetlarda uch davrda amalga oshiriladi. Birinchi davr umumiy bo'lib, o'qish muddati ikki yil. Ikkinchi davrda o'qish bir yil davom etadi. Talablar uni magistr darajasi bilan yakunlaydi. Uchinchi davrda o'qish bir-ikki yil bo'lib, bunda:

- biron bir fanni chuqurlashtirib o'rganganligi haqida diplom (bir yil);
- davlat doktorlik dissertatsiyasi - biron bir sohani mukammal o'rganib, dissertatsiya yozish kabi hujjatlar olish mumkin.

Fransiyada oliy ma'lumot va ixtisoslik beruvchi oliy texnologik institutlar mingdan ortiq. Uchinchi davrda doktorlik dissertatsiyasi (ikki yil) tayyorlanadi. Ular odatda sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish, informatika mutaxassisliklariga ixtisoslashgan. O'qish muddati ikki yil bo'lib, sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi.

Sirtqi ta'lim shaxobchalari juda keng bo'lib, u 500 turdagi o'rta, oliy, professional ma'lumot berishni tavsiya etadi. Fransiyada maktab rahbarligi lavozimiga erishmoq uchun ta'limga rahbarlik qilishdan saboq beruvchi maxsus markazlarda o'qiydilar. Bunday markazlar ular rahbarlik qilish, maktab iqtisodiyotini boshqarish, ta'limdagi yuridik masalalar, qonunchilik, ota-onalar bilan ishlash, madaniy-oqartuv ishlarini tashkil etish, jamoada yaxshi ruhiy muhitni barpo etish kabi jihatlarni o'rganadilar. O'qishni yakunlagach suhbatdan, test imtihonlaridan o'tadilar. Direktor dars bermaydi. Uning ish faoliyati ikki yil davomida diqqat bilan kuzatib boriladi. Shu ikki yil davomida maktab direktori iste'dodli tashkilotchi, yetuk rahbar sifatida faoliyat ko'rsata olmasa, u bu lavozimdan olib tashlanadi. Maktab o'qituvchilariga qo'yilgan talab Fransiyada o'ta yuqori. Ayniqsa, boshlang'ich maktablarda o'qituvchi o'z kasbini ustasi, ajoyib notiq, san'atkor, musiqachi, sportchi, tashkilotchi, namunali xulq-atvor egasi bo'lmog'i lozim.

O'qituvchilar o'z nazariy – uslubiy malakalarini oshirishga katta ahamiyat beradilar. Malaka oshirish kurslaridan o'tish uchun aniq muddat belgilab qo'yilmagan. O'qituvchilar o'z ixtiyori bilan test markazlarida imtihon topshiradi. Shu imtihonlar davrida o'qituvchi faoliyatida ayrim nuqsonlar sezilib, malaka oshirishga ehtiyoj aniqlansa, o'z vaqti va mablag'lari hisobiga malaka oshiradilar.

2000 yilda Fransiya maktablaridagi ahvol sinchiklab o'rganilib, o'quvchilarning ko'pchiligi darslarga kirmay, boshqa ishlar bilan mashg'ul ekanligi aniqlanib, bu kamchilikni tuzatish uchun choralar ko'rilmokda. Chunki aynan darsga kirmay yurgan bolalar o'rtasida giyohvandlik va huquqlarni buzish kabi holatlar ko'p uchraydi. Umuman, Fransiyada ta'lim tizimini rivojlantirish uchun katta mablag'lar ajratiladi.

Fransiya oliy ta'lim muassasalari:

- Tuluza ijtimoiy fanlar universiteti;
- Parij-Saus universiteti;
- Sorbonn universiteti

Fransiyada gumanistik harakat

XIX asr o'rtalarida Italiyada paydo bo'lgan Uyg'onish harakati XX asrning ikkinchi yarmida Yevropaning bir qancha mamlakatlarida boshlanadi. XXI asrning boshlarida esa Fransiyada vujudga keladi. Bu vaqtda fransuz qiroli Fratsisk I Italiyaga harbiy yurish boshlagan va katolik reaksiyasining boshlig'i – ispan qiroli Karl V bilan urush olib borayotgan edi. Italiyada bo'lgan fransuzlar Uyg'onish davri madaniyati bilan yaqindan tanishadilar. Arxitektorlar Fransisk I istagi bilan Renessans stilida qasr quradilar. Gumanist yozuvchilar Dante, Petrarka, Bokkachcho asarlari fransuz tiliga tarjima qilinadi. Ular qadimgi antik madaniyat yodgorliklarini katta qiziqish bilan o'rganadilar. Fransuz protestantizm (boshqacha qilib aytganda kalvinizm) ikki davrni boshidan kechiradi. Dastlabki protestantlar gumanistik qarashlar, fikrlashga moyil intelligent guruhlar bo'lib, ular mavjud tartib va din asarlariga ham tanqidiy qarar edilar. Mashhur matematik *Lefevr d Etapl* (1455 1537) Italiyadan qaytib kelgach, Aristotel va boshqa grek olimlarining fikrlarini yangicha talqin qilishga kirishadi. Endi u tarjimalarga suyanib emas, balki asosiy manbalarga murojat etib, o'sha fikrlarning asosiy ma'nosini ochishga

intiladi va bu sohadagi sxolastik qarashlarni rad etadi. So'ngra Lefevr «Muqaddas kitoblar»ni ham shu jihatdan tekshirishga kirishadi. Injilda u ro'za haqida ham, poplar uylanmasliklari va boshqa sirli voqealar haqida ham gap yo'qligini aniqlaydi. Fransuz Uyg'onish davri adabiyotining yirik vakili ulug' gumanist yozuvchi *Fransua Rable* Turen viloyatining Shinon nomli shaharchasida advokat oilasida 1494 yilda tug'iladi. Uning otasi Antuan Rable o'g'lining ruhoniyligi bo'lishini istaydi va uni Shinon shahri yaqinidagi mahalliy abbatlikka beradi. qadimgi davr yozuvchilari, jumladan Gomer asarlari hamda Reformatsiya davri vakillarining kitoblari uning diqqatini o'ziga tortadi. Xalq hayoti va uning badiiy ijodi bilan tanishadi. 1530 yilda Manpelega kelib, meditsina ilmi bilan shug'ullanadi. Grek medigi Gippokratning «Aforizmlar»ini izohlab beradi. 1532 yil Lion shahridagi kasalxonalaridan birida vrach bo'lib ishlaydi. Ulug' gumanist Erazm Rotterdamskiy bilan aloqada bo'ladi. Rable «eng insoniy ota» deb Erazmga yuqori baho beradi. 1537 yilda Monpeleda meditsina doktori degan darajani oladi. Rable gumanistik ijodining nodir namunasi xalq orzu istaklarini chuqur aks ettirgan o'lmas asari «Gargantuya va Pantagryuel» romanidir. Bu epopeyaning dastlabki kitobi 1533 yilda Alkofribas Naze taxallusi bilan «Ulkan pahlavon Gargantuyaning o'g'li dipsodlar qiroli ajoyib Pantagryuelning dahshatli va g'oyat qo'rqinchli harakatlari va qahramonliklari» nomi ostida paydo bo'ladi. Qattiq hazil, kuchli kulgu va nozik kinoyalar bilan pardalangan asarning chuqur ma'nosini anglash uchun yozuvchi uni diqqat bilan o'qish zarurligini uqtiradi. «Kitobimni ochingiz va unda bayon qilingan voqealar haqida yaxshilab o'ylab ko'ringiz. Shunday qilsangiz tushunasiz asarning sarlavhasini o'qish bilan unda bema'ni narsalar bayon etilgan ekan degan xayolga kelish mumkin, lekin aslo bunday emas siz mutloq ishonaverishingiz mumkin, uni o'qish natijasida ham jasoratli, ham dono bo'lasiz, chunki mening kitobimda butunlay boshqacha yo'sindagi ruh va qandaydir faqat yuksak didli kishilarga tushunarli bo'ladigan ta'limotni ko'rasizki, bu esa sizga bizning din, xuddi shu kabi siyosatimiz va ro'zg'orshunoslikka doir o'ta maxfiy va dahshatli sirlarni ochib beradi». «Gargantuya va Pantagryuel» besh kitobdan iborat bo'lib, uni yaratishga yozuvchi 20 yildan oshiqroq vaqt sarf etadi:

a) «Pantagryuelning otasi ulug' Gargantuyaning g'oyat vahimali hayoti haqida» 1534 y nashr etilgan.

b) «Oliyjanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida uchinchi kitob» 1546 yil Parijda endi F.Rable nomi bilan bosilib chiqdi.

v) «Jasur Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli gaplari haqida to'rtinchi kitob» 1552 yilda; Rablening so'nggi kitobidan parcha («Ovoz chiqaruvchi orol») yozuvchi vafotidan 9 yil o'tgach, 1562 yilda paydo bo'ldi. 1564 yildagina;

g) «Oliyjanob Pantagryuelning qahramonona harakatlari va qimmatli fikrlari haqida beshinchi kitob, ya'ni so'nggi kitob» nashr etildi. Fransua Rable Gargantuya haqidagi birinchi kitobida o'sha davr gumanistlarini qiziqtirgan ta'lim-tarbiya, urush va tinchlik, kelajak, baxtli jamiyat qanday bo'lishi kerakligi haqidagi muhim masalalar ustida fikr yuritadi. Tarbiya masalasida yozuvchi eski tuzumni «quruq yod oldirish fikrlash qobiliyatini o'stirish» degan

tushuncha o'sha davr tarbiyachilarining aqliga sig'magan narsa ekanligini, hamda faqatgina bir yo'nalishda ish olib borishi, tashqi va ichki dunyo degan tushunchalardan ularning holi ekanligi qattiq tanqid qiladi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Fransiya ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Fransiya oliy ta'lim qanday olib boriladi?.
5. Fransiya ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.

5-MAVZU: ISPANIYADA TA'LIM

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Ispaniyada ta'limi tizimining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Ispaniya ta'lim tizimida o'ziga xoslikni tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Ispaniya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Geografik o'rni.
2. Ispaniyada ta'lim tizimi.
3. Ispaniyada gumanistik harakat

Geografik o'rni

Ispaniya Ovrupaning janubi-g'arbida joylashgan mamlakatdir. O'n yettita muxtor viloyatdan iborat. Quruqlikda Fransa, Portugaliya, Andorra bilan chegaradosh. Qonun chiqaruvchi organi — kortes (ikki palatali parlament).

Mamlakat aholisining to'rtidan uch qismini ispanlar, qolganini katalonlar, galisiylar, basklar tashkil etadi.

Maydoni: 504,8 ming kv. km.

Aholisi: 39 million 270 ming kishi (1996).

Poytaxti: Madrid shahri.

Davlat boshlig'i: qirol.

Tuzumi: konstitutsiyaviy monarxiya.

Pul birligi: ispan pasetasi (yevro).

Yirik shaharlari: Barselona, Sevilya, Valensiya, Saragosa, Malaga, Bilbao



Ispaniya sanoati va qishloq xo'jaligi ancha taraqqiy etgan mamlakat, foydali qazilmalari ko'p. Qora va rangli metallurgiya, avtomobilsozlik, dastgohsozlik, neftni qayta ishlash, elektrotexnika, to'qimachilik sohalari jadal rivojlangan. Qishloq xo'jaligida donli ekinlar, sabzavot, paxta, zaytun, sitrus o'simliklari katta o'rin tutadi. Ispaniya sayyohlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu mamlakatga har yili 43 million sayyoh keladi.

Ovrupalik olimlar falsafa va tib, riyoziyot va kimyo, jug'rofiya va falakshunoslik sohasidagi ilmlar bilan ilk bor Andalusianing yirik shaharlari Ishbiliya (Sevilya), Qurtuba (Kordova), G'arnota (Granada)dagi masjid-madrasalarda tanishishdi. Mardlik, botirlik timsollari, majoz, go'zal badiiy obrazlar

G'arb adabiyotiga asosan Andalusdagi arab adabiyoti orqali kirib keldi. Mamlakat jomea (dorilfunun)larida Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Ar-Roziy, Hasan ibn Haysam kabi musulmon allomalarning asarlari uzoq vaqt o'qitib kelindi. Andalusiya tarixda ilm-fan, madaniyat eng gullab-yashnagan, Islom Uyg'onishi ro'y bergan o'lka sifatida mashhur bo'ldi. Ovrupaning turli mamlakatlaridan bu yerga tahsil olish, noyob ilm xazinalari bilan tanishish, Islom madaniyatini o'rganish uchun odamlar oqib kelishar edi. G'arbliklar hatto kiyinishda ham Andalusiya mudarrislaridan nusxa ko'chirishgan. Hozir Ovrupa universitetlarida ilmiy libos deb tanilgan kiyimlarning asli andalusiyydir. Manbalarda yozilishicha, Andalusiyaning o'sha paytdagi amiri Hakam mashhur Abul Faraj al-Isfahoniyning "al-Ag'oniyy" kitobi to'g'risida eshitib qoladi va bir nusxa olish uchun muallifga ming tilla dinor yuboradi. Muallif kitobidan nusxa ko'chirtirib, amirga yuboradi va shu tariqa bu kitob muallifning vatani Iroqdan oldin uzoq Andalusiyada o'qildi. Yana tarixchilarning yozishlaricha, Andalusiyadagi "al-Hikam" kutubxonasida to'rt yuz ming jild kitob bo'lgan, unda mavjud she'riy devonlar mundarijasining o'zi qirq to'rt juz'ga yetgan. Shom (Suriya)lik taniqli alloma Mustafo Husniy as-Siba'iyning yozishicha, umaviylardan Abdurahmon Uchinchi zamonida Qurtuba shahri musulmon Andalusiyaning poytaxti bo'lgan. Bu yerda tunlari ko'chalar chiroqlar bilan yoritilgan. Shahar ko'chalariga tosh yotqizilgan, axlatlar beto'xtov tozalab turilgan. O'shanda bir million kishi yashayotgan shaharning atrofi bog'-bo'ston edi. Vaholanki, o'sha zamon Ovrupasining eng katta shaharlarida ham o'rtacha yigirma besh ming odam yashardi, xolos. Qurtubada ikki yuz sakson uch ming uy, to'qqiz yuzta hammom, sakson mingta qasr, olti yuzta masjid bor edi. Shaharda hamma o'qish-yozishni bilgan. Shahar kutubxonasida bir yuz yetmish ayol qadim xatda Mushafni ko'chirishardi. Saksona madrasa bo'lib, ularda kambag'allar bepul o'qishgan. Ellikta shifoxona bemorlarga tekin xizmat ko'rsatgan. Qurtubadagi markaziy masjid hanuzgacha islomiy me'morlikning noyob namunasi sifatida tilga olinadi. Masjidning bir ming to'qson uchta rangli marmar ustuni bo'lib, mezananing balandligi qirq gaz edi. U kechalari to'rt ming yetti yuzta chiroq bilan yoritilgan, ularga har yili yigirma to'rt ming qadoq moy quyilgan. Masjidning bronza va oltin bilan ziynatlangan o'ttiz to'qqizta darvozasi bo'lgan. Andalusiya poytaxtida islomiy me'morlik va san'atning yana bir shoh asari — az-Zahro saroyi barpo qilingan edi. Turk tarixchisi Ziyo Poshsho uni shunday ta'riflaydi: "U zamonasining shunday ajoyiboti ediki, Alloh borliqni yaratganidan buyon bunday qasr qurish hech bir me'morning xayoliga kelmagan..."

Qasr qubbasi turli naqshlar bilan bezatilgan to'rt ming uch yuz o'n oltita marmar ustun ustiga o'rnatilgan edi. Kichik zallardagi musaffo buloqlardan chiqqan suv ko'rinmas ariqlar orqali eng katta zaldagi oq marmar hovuzga kelib quyilardi. Hovuzda esa ming turli baliqlar suzib yurardi. Binoning to'rt tomonida sakkiztadan eshik bo'lgan, ular abnus daraxtidan yasaliib, oltin bilan ziynatlangan. Az-Zahro qasri to'rt yilda qurib bitkazilgan. Har kuni olti ming dona harsangtoshga ishlov berilgan. Qurilishda o'n mingdan ziyod ishchi, ming nafar mohir hunarmand, shu jumladan, uch yuz binokor, ikki yuz duradgor va boshqa kasb egalari ishlashgan. Bir ming to'rt yuz ulov qurilishda mehnat qildi. Andalusiyaning yana bir shahri

Harnota (Granada)dagi al-Hamro qasri ham aqlarni lol qoldiradigan darajada go'zal va mahobatli edi. Andalusiya shaharlarida musulmonlar nihoyatda to'kin va farovon yashashgan. Ishbiliyaning o'zida ipak ishlab chiqaradigan olti ming dona dastgoh bo'lgan. Zaytunzorlar bilan o'ralgani uchun shaharda yuz ming juvozxona muntazam ishlab turgan. Boshqa shaharlarda ham sanoatning ma'lum turlari rivojlanib, ovrupaliklar bu yerdan qurol-yarog', po'latdan yasalgan asbob-uskunalar xarid qilishgan. keyinchalik salib urushlari natijasida ana shunday gullab-yashnagan, ulkan Islom hazorasiga asos solgan Andalusiya mamlakati bosib olinib, musulmonlar qirg'in qilindi. Kutubxonalarga o't qo'yildi, saroy va qasrlar vahshiylarcha vayron etildi, masjidlar cherkovlarga aylantirildi yoki buzib tashlandi. XX asrda ham Ispaniya ko'plab urushlarga tortildi, fashizm balosini boshdan kechirdi. 1975 yili Frankoning o'limidan so'ng Xuan Karlos qirol deb e'lon qilindi, uch yil o'tgach, yangi Konstitutsiya qabul qilindi, 1982 yili mamlakat NATOga a'zo bo'ldi.

O'tgan asrning oxirlarida Ispaniya yana asta-sekin Islom sari yuz tuta boshladi. O'rta asrlar Andalusiya'sining yuksak madaniyati, axloqi, mafkurasi yana ispaniyaliklarni qiziqтира boshladi. Mamlakatda aholini Islom tarixi, din asoslari bilan tanishtiruvchi maxsus kurslar va doimiy seminarlar faoliyat ko'rsata boshladi. Bugun bunday kurs rahbarlari ko'rgazmali qurol qidirib uzoqqa bormaydi, chunki Granada, Sevilya, Toledo shaharlarida musulmon me'morlar tiklagan muhtasham qasrlar hanuzgacha saqlanib qolgan. Kutubxonalarda bir zamonlar Andalusiya'da gullab-yashnagan Islom hazorasi haqida hikoya qiluvchi kitoblar ham bor.

Hozir Ispaniyada yarim milyondan ortiq musulmon istiqomat qiladi. Ularning sakson besh foizini maroqashliklar tashkil etsa-da, ispanlarning o'zidan ham Islomni qabul qilayotganlar oz emas. Shuning uchun Granada, Sevilya kabi yirik shaharlardagi jome' masjidlari qoshida ispan tilida so'zlashuvchi aholi uchun maxsus o'quvlar, anjumanlar tashkil etilyapti. Bugungi kunda jahonda o'n ikki milyondan ortiq ispan tilida so'zlashuvchi musulmon bor, ular Ispaniyadan tashqari Janubiy Amriqoning turli mamlakatlarida yashashadi. O'tgan yili Sevilyada musulmon ispanlarning birinchi butunjahon kongresi o'tkazildi. Bir vaqtlar kuchli xunrezlik va qatli omga tortilgan, ta'qib va xo'rlashlarga giriftor etilgan Ispaniya musulmonlari bugungi kunda mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol qatnashyaptilar. Ularning safi yildan-yilga kengayib bormoqda.

Ispaniyada ta'lim tizimi

Ispaniyada ta'lim tarkibi quyidagilardan iborat:

- maktabgacha ta'lim
- bazoviy ta'lim
- bachilerato (kasb ta'limi)
- oliy ta'lim

Ispaniyada maktabgacha ta'lim bolalar bog'chasi (2-3yosh) hamda boshlang'ich maktab (4-5 yosh) dan iborat. Davlat ixtiyoridagi bog'chalar bepul. Bog'chalarning xilma-xilligi ularning otaliqqa olgan tashkilotga bog'liq.

Bazoviy ta'lim 8 kursdan iborat bo'lib, o'quvchilari 6-14 yosh oralig'ida bo'ladi. Dastlabki 5 yil bir o'qituvchida bo'ladi. O'quvchilar ona tili, adabiyot, matematika, tabiat, musoqa fanlarini o'rganadi. 8 yoshda ular chet tilini o'rganadi.

Ikkinchi bosqichda har xil predmet o'qituvchilari dars o'tadilar.

Maktab darslari 1 sentabrda boshlanadi. Maktab ta'limining yakunida imtihon topshirishadi. Imtihondan o'tgan o'quvchilar bachilertoga topshirishi mumkin. Imtihondan o'tmaganlar ikkinchi yil o'quv yiliga qolishi mumkin.

Bachilerato o'rta ta'limning yuqori bosqichini eslatadi. U uch kursdan iborat. Ikkinchi kursda kasb-hunar ta'limini olishi mumkin, bu ixtiyoriy hisoblanadi. Bachirleto bepul, davlat ixtiyorida. Uchinchi kursda o'quvchilar aniq yoki ijtimoiy fanlarni aniqlashi lozim. Yakuniy imtihonlar oliy ta'limga kirish imtihoni hisoblanadi. Universitetlarda ta'lim pullidir.

Ispaniyada o'rta ta'lim

Ispaniyada o'rta ta'lim quyidagilardan iborat:

- boshlang'ich ta'lim (6-12yosh);
- o'rta majburiy ta'lim (12-16 yosh)

Ispaniyada kasb ta'limi

Ispaniyada 4 bosqichdan iborat kasb ta'limi mavjud:

1. 1-darajaga o'rta ta'limning yuqori sinflari kiradi.
2. 2-darajaga 18 yoshdan boshlab o'qib, 1-darajali kolledjni bitirishi lozim.

Birinchi yili o'quvilar tanlangan kasb yuzasidan 4 ta fanni o'qishadi. Ulardan bittasidan imtihon yil yakunida bo'ladi. Ikkinchi yilga 3 ta fan va imtihon qoladi. 4 ta imtihon natijalari asosida diplom beriladi. Bu diplom mutaxassilik yuzasidan ishlash huquqini beradi, lekin menenjerlikni bermaydi. Yakuniy imtihon natijalari universitetga kirish imkonini beradi. Ya'ni universitetning birinchi bosqichigv kirish imkoniyatidir. Talabaga uch variant qo'yiladi: ishlash, o'qishni davom ettirish yoki universitetga kirish.

3. 3-darajali kollejda 1 yil o'qib, sertifikat olinadi. Bu sertifikat menejer bo'lish yoki rahbar bo'lish imkonini beradi.

4. 4-darajada bakalavr diplomi beriladi. Bu diplom bilan firmani boshqarishi mumkin.

Ispaniyada ish bilan ta'minlash faqat 3-darajali diplom asosida amalga oshiriladi.

Ispaniyada oliy ta'lim

Ispaniyada oliy ta'limni faqat universitetlar beradi. Ispan universitetlari uch tabaqadan iborat:

1. Davlatniki (3 yil).
2. Xususiy (3 ta)
3. Serkov ixtiyoridagi oliy ta'lim.

Ispan universitetlarida 4 bosqichli ta'limdan iborat:

- universitet fakultetlarida 3 tabaqali oliy ta'lim o'qitiladi.
- oliy texnik uchilishilarida texnik ta'lim birgalikda 3 tabaqali oliy ta'lim ham o'qitiladi.
- universitet maktablarida talabalarni oliy ta'limning birinchi bosqichiga tayyorlab beradi.

- universitet kolledjlarida maktabdagidek birinchi darajaga talabalarni tayyorlab beradi.

Oliy ta'lim tiplari quyidagicha:

1. Oddiy ta'lim, ya'ni talaba mashg'ulotlarga qatnashishi lozim.

2. Kechki ta'lim (ishlaydiganlar uchun)

3. Distatsion ta'lim – «pochta orqali ta'lim» sirtqi ta'lim bo'lib, davlat yoki xususiy bo'lishi mumkin.

Universitetlarda ta'lim sentyar oxiri oktabr boshida boshlanib, 2 semestr dan iborat. Universitetga qabul kollejning kasbga yo'naltirilgan kursda o'qish (1 yil) natijasi asosida amlga oshiriladi. Abururentning o'rta ma'lumotini aniqlashda 2 ta yozma ish topshiriladi. Talabaga quyidagicha talablar qo'yiladi:

Ekvivalent bosqichda:

1. Bakalavr – 2 kursdan iborat bo'lib, 1 kurs oxirida talaba 3 yo'nalishdandan iborat bakalavrni oladi, ya'ni

- arxetektur yo'nalish;

- texnik yo'nalish;

- barcha yo'nalish bo'yicha

2. Magistr – 2 kurs yakunida bakalvr yo'nalishlari bo'yicha ta'lim quyidagilardan iborat:

- Arxitektur.

- Injener.

- Litsenziat.

- Tadqiqotchi magistr.

3. Doktor – 3 kurs yakunida dissertatsiyani ilmiy kengash muhokamasiga tayyorlaydi.

Universitetlarga kirish imtihonlari 2 qismdan iborat. Birinchi qismida 3 ta test bo'ladi: adabiyotdan insho hamda ispan tilini tekshirish testi, chet tili va falsafadan test. Ikkinchi qismida universitetda tanlangan yo'nalishlar bo'yicha majburiy hamda fakultativno'y testlar 4 ta fan bo'yicha bo'ladi.

Ispaniyada gumanistik harakat

Ispan Uyg'onish davri realistik teatrining yuqori pog'onaga ko'tarishi dramaturg *Lope de Vega* ijodi bilan bog'liqdir. Lope Felis de vega Karpo 1562 yilning 25 noyabrida Madridda hunarmand oilasida tug'ildi. Uning otasi Feliks de Vega Astura dehqonlaridan bo'lib, ish axtarib Kastililaga kelib qoladi va zardo'zlik bilan shug'ullanadi. Lopo Felis 1573 yilda izuitlar maktabida, Alkala de Enaresi universitetida tahsil ko'radi. 1576 yilda otasi vafot etgach, o'qishni tashlaydi. Lopo Felis o'sha davrning badavlat kishilari qo'lida kotiblik qiladi. U juda yoshlikdan she'riyatda ist'edod ko'rsatadi. 1588 yillar boshlarida mashhur rassom qizi Izabell de Urbinaga uylanadi. Shu yili Lope de Vega «Yengilmas armada» flotining Angliya qirg'oqlariga qilgan yurishlarida askar sifatida qatnashadi. Yosh shoir kema palubasida «Anjelika go'zali» (1588) poemasini yaratadi. Mag'lubiyat bilan tugagan bu yurishdan qaytgach Lope bir necha yil (1589-1593) Valensiyada yashaydi, so'ngra Kostiliyada va pirovardida Madridda istiqomat qiladi. Shu vaqtdan boshlab u yangi ruhda yozilgan komediyalar bilan ispan milliy dramaturgiyasini tashkil topishiga va rivojlanishiga asos soladi.

Lope de Vegani bilim doirasi juda keng bo'lib u xilma-xil janrlarda o'z mahoratini sinab ko'radi. Sonet, romans, qasida, poema, pastoralar, hikoya, roman va dramatik asarlar yaratadi. Lope de Vegani o'zi bir komediyasida yozgan pesalarining soni 1500 ta bo'lganini eslagan. Dramaturg vafotidan so'ng uning biografiyasini tuzgan shogirdi va muxlisi Pres de Montalvan esa Lopening hamma pesalari 1800 ta ekanligini ta'kidlagan. Bunga qo'shimcha yana 400 ta diniy xarakterdagi pesalar ijod qilgani ma'lum. Yozuvchini shu vaqtgacha topilgan va nashr etilgan pesalarining soni 500 taga yaqin, shulardan 50 tasi diniy mavzulardagi dramalardir. Lope de Vega dramaturgiya sohasida katta shuhrat qozonadi. Hayotiy faktlarni bilishi uning tarixiy, afsonaviy va zamonaviy mavzularda xilma-xil pesalar yaratishiga imkon beradi. Yozuvchining dramaturgiya sohasidagi qarashlari «Komediya yaratish yangi san'at» (1609) she'riy asarida batafsil bayon qilinadi. 1615 yildayoq Servantes uning ijodiga yuksak baho berib shunday deydi: «U butun komediantlarni yengdi va o'z hukmiga bo'ysundirdi va jami o'n ming varaqdan ortiq komediyalar bilan dunyoni to'ldirdi... U bilan raqobatlashishiga esa undaydiganlar ko'p edi. Hammasi qo'shilib uning bir o'zi yozganlarining yarmini ham yozolmaydilar». Lope de Vega pesa kompozitsiyasining izchilligi dialog san'atini o'z o'tmishdoshlaridan o'rganishi o'rta asr xalq teatri traditsiyalaridan foydalanishi natijasida Uyg'onish davri hushchaqchaqlik motivlarini aks ettiruchi asarlar yaratadi va xalqqa manzur bo'ladi. Lope de Vega dramaturgiyasining hajm jihatidan ham tematika jihatidan ham keng doiraga chiqishi uni qat'iy bir ramkada klassifikatsiya etishini qiyinlashtiradi. Diniy temalardagi pesalari va bir opera librettosini hisobaga olmaganda, Lope asarlarini asosan uch katta qismga bo'lish mumkin. Bular: tarixiy-qaxramonlik, ijtimoiy-siyosiy va sevgi-maishiy temalarida yaratilgan drama va komediyalardir. Uning traditsiyalarini davom ettiruvchi qator yozuvchilar *de Alorkom* va *Tirso de Molinalarning* dramalari bu davr ispan adabiyotida alohida o'rin egallaydi. *Gilen de Kastro* (1569-1631) ustoz Lope de Veganing realistik prinsiplariga amal qilib, o'z ijodida xalq badiiy yodgorliklari namunalari keng foydalandi. Uning muhim asari ispan milliy qahramoni Sid haqidagi xalq romanlari asosida yaratilgan «Sidning yoshligi» dramasi. Pesada sevgi, oila or nomusi uchun kurash va absalyutizmga yuz bergan krizis aks etgan. Lope de Vega dramaturgiya maktabining yirik vakili *Xuan Ruis de Alarkon* (1580-1639). Meksikada aristokratiya oilasida tug'iladi, uning yoshligi o'sha yerda o'tadi, so'ng Ispaniyaga kelib o'qishni davom ettiradi, universitetni bitirgach, advokatlik bilan shug'ullanadi. Alorkonning adabiy merosi katta emas u til va kompazitsiyasi jihatidan puxta ishlagan 30 ga yaqin pesa yozgan. Alorkoning milliy qahramonlik sikldagi pesalaridan biri «Segoviyalik to'quvchi» (1634) asaridir. Unda dramaturg inson kuchi va irodasi, adalat va chin sevgining tantanasi haqida hikoya qiladi. Yozuvchi bosh qahramonning og'ir taqdirini tasvirlar ekan, diniy aqidalarga sira murojat etmaydi, balki voqealarga siyosiy tus berib, dvoryan don Fernando kurashini ota qasosi uchun emas, balki haqoratlangan kambag'al to'quvchining adolat uchun olib borgan kurashi sifatida talqin qiladi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Ispaniyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Ispaniyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?.
5. Ispaniyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.
5. <http://ispanobucheniye.narod.ru/simvol.html>

6-MAVZU: BUYUK BRITANIYADA TA'LIM TIZIMI

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Buyuk Britaniyada ta'limi tizimining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Angliya ta'lim tizimida o'ziga xoslikni tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Buyuk Britaniya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Geografik o'rni.
2. Ta'lim tizimi tarkibi.
3. Ingliz gumanistlaridan namunalar.

Buyuk Britaniya va shimoliy Irlandiya birlashgan kirolligi

Maydoni -244,7 ming kv.km.

Aholisi -60 mln.kishi

Poytaxti - London

Davlat tuzumi-konstitutsion monarxiya.

Davlat boshligi-qiroi.

Dini: protestantlar 90%.

Davlat tili: ingliz tili. Butun dunyoda 500 mln.kishi shu tilda so'zlashadi.

YaMM 19102 AKSh dollari, YaIM 20103 AKSh dollariga teng. Buyuk Britaniya BMT, YeIX, NATO kabi o'nlab tashkilotlarga a'zo.

Shimoliy g'arbiy Yevropadagi davlat hisoblanadi. Buyuk Britaniya oroli va Irlandiya orolining shimoliy sharqiy qismida hamda ularga yondosh mayda orollarda joylashgan. G'arbdan Atlantika okeani, shimoldan shimoliy dengiz o'rab turadi. Yevrosiyo materigidan La-Mansh bo'g'izi orqali ajralib turadi.

Buyuk Britaniyaning yer yuzasi asosan pasttekisliklardan iborat. Angliyaning shimoli g'arbida tog'likdan, markazi va janubi sharqi tekislik va sartepa tekisliklardan, Shotlandiyaning qirg'og'i egri bugri, shimoliy qismi tor va chuqur Glen mor depressiyasi 2 qismga bo'lib turgan Shimoliy Shotlandiya tog'lig'idan iborat. Bu ikkala qismning janubida Granpian tog'lari mamlakatning eng baland cho'qqisi Ben Nevis (1343 metr) ko'tarilib turadi.

Buyuk Britaniya foydali qazilmalarga kambag'al. Asosan temir rudasi va yuqori sifatli toshko'mir, tosh tuz, kaolin, ozroq miqdorda yonuvchi slanets qazib olinadi. Neft va rangli metall konlari mavjud. Shimoliy dengizning Buyuk Britaniya qirg'og'i yaqinida tabiiy gaz konlari bor.



Buyuk Britaniyadagi demagrafik vaziyat boshqa rivojlangan kapitalistik mamlakatlardagi holatlarga o'xshash. Hozirgi paytda mamlakat aholi soni dinamikasi uning tabiiy harakatiga butunlay sabab bo'ldi. Ikkinchi jahon urushdan keyin darrov aholining tabiiy o'sishi 1000 kishiga 4,5 kishini tashkil etdi. 1965 yilga kelib 6,8 kishiga ko'paydi. Keyingi yillarda keskin kamaydi. 90-yillarning boshlariga kelib esa tabiiy o'sish 1000 kishiga 1 kishini tashkil qildi, tug'ilish va o'lim deyarli tenglashdi. (11,12 kishi), aholining umumiy soni esa keyingi yillar davomida sezilarli o'zgarishingiz saqlanmoqda. Axolining bunday tabiiy harakati mehnat resurslarining qiskarishga xavf soladi.



Buyuk Britaniya ta'lim tizimi

Britaniya ta'limi 4 bosqichdan iborat: boshlang'ich (Primary school) – 5-11 yoshgacha, o'rta ta'limi (Secondary school) – 11-16 yoshgacha, navbatdagisi - 16-18 yoshgacha, oliy ta'lim - 18 yoshdan boshlanadi.

Maktab (boshlang'ich va o'rta) ta'lim majburiy hisoblanadi. Har bir o'qituvchi davlat ta'lim rejasidagi fanlarni o'qishi lozim. Fanlarning eng asosiylari bu ingliz tili, fan va matematika. Asosiy fanlar – san'at, geografiya, tarix, musiqa, jismoniy tarbiya, chet tili. Maktab ixtiyoridagi maktablar asosiy fanlarni va milliy ta'limni o'z ichiga olgan asosiy o'quv rejasini bo'yicha dars o'tishlari lozim. Maktabda har bir maktab bosqichlari uchun alohida o'quv plani mavjud: 6-7 yosh uchun, 7-11 yosh uchun, 11-14 yosh uchun, 14-16 yosh uchun. Har bir o'quv bosqichining yakunida asosiy fanlardan imtihon bo'lib, unda o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari 10 ballik tizimda baholanadi. 11 yoshdan boshlangan har bir o'quv bosqichining imtihon natijalarini doskaga ilib qo'yilishi kerak.

Navbatdagi ta'lim 16 yoshdan yuqorilar uchun mo'ljallangan. Bu ta'lim universitetga o'qishga kirish uchun bo'lib, kasb ta'limidan iborat. Kasb ta'limi - har doim to'ldirib turiladi. Navbatdagi ta'lim maktab ta'limining davomi

hisoblanadi. Bu ta'limda o'quvchilar akademik fanlar, kasbga tayyorlanish, umumiy o'zlashtirishni o'rganadilar. Juda ko'p kolledjlar navbatdagi ta'limda «navbatdagi ta'lim» dasturidan foydalanadilar, ya'ni yakuniy imtihon va oliy milliy diplom bilan yakunlaydilar. HND ixtiyoriy mutaxassilik bo'yicha amaliy 2 yillik ta'limdan keyin olinadi. HND kasbiy faoliyatini boshlovchilar uchun bo'lib, ular bakalavr bosqichini davom ettirmaydilar. Kasbiy darajadagi bitiruvchining mazkur diplomi bosh texnik yoki kichik menenjer darajasi bilan teng. HND universitetdagi bakalavr bosqichini 2 yil o'qishga imkon yaratadi.

Oliy ta'limga o'qish 18 yoshdan boshlanadi. Ba'zi dasturlar 2-4 yilga mo'ljallangan. Bularni Sandwich-kurslar deb atalib, o'quv muassasalaridan tashqari ishlab chiqarish amaliyotini o'tash davrini o'z ichiga oladi, lekin meditsina va vetirinariya kurslari uchun 5 yil ketadi. Buyuk Britaniyada 174 ta universitet va kolledjlar oliy ta'limniki, san'at, texnologiya va meditsina o'quv yurtlari mavjud. Hamma oliy ta'lim davlat tomonidan moliyalashtiriladi, faqat 3 tasidan tashqari. Buyuk Britaniyada 30% gacha yoshlar oliy ta'limda o'qiydilar. Oliy ta'lim quyidagilardan iborat:

- Bakalavr,
- Magistr,
- Doktor.

Bakalavr bosqichi magistr va doktorlik uchun sharoit yaratadi hamda universitet va kolledjning kunduzgi bo'limida 3-4 yillik maxsus dasturiga qatnashishi lozim. Bu bosqich bitiruvchilari o'rta injener-texnolog yoki o'rta rahbarlikda xususiy yoki davlat ixtiyoridagi korxonalarga ishlash imkoniyatini beradi. Magistr diplomi bizning oliy ta'lim diplomiga, doktor diplomi esa kandidatlik diplomiga to'g'ri keladi.

Magistr bosqichining dasturida 8-9 soat leksiya va seminardan so'ng imtihon topshirilib, 3-4-oyda diplom proyektrini tayyorlaydilar. Imtihon natijalari hamda diplom loyihasi uchun magistr darajasini beradi. Bu bosqichning qoidasi doktorlik darajasini olishi kerak hisoblanadi.

Doktor bosqichining dasturi ilmiy tadqiqot ishlaridan iborat. Hech qanday ma'ruza yoki o'quv seminarlari o'tkazilmaydi. Ilmiy rahbar doktorga ilmiy tadqiqot mavzusini beradi hamda mazkur tadqiqotni olib borishga sharoit yaratib beradi. Tadqiq ishiga 2-3 yil vaqt ketadi. Yakunida talaba yakuniy hisobotlarida, ilmiy yoki maxsus jurnallarda nashr etishi kerak hamda nashr etilgan materiallar asosida dissertatsiyani yozadi. Muvaffaqiyatli dissertatsiya himoyasidan so'ng doktorlik darajasi beriladi.

Oliy ta'limni universitet yoki oliy ta'lim kolledjlarida olishi mumkin. Har bir muassasa diplom berishi lozim.

12-13 asrlarda ochilgan Oksford va Kembridj universitetlari – davlat ixtiyoridagi universitet hisoblanadi. Bu universitetlarda o'qitish o'zgachadir, ya'ni o'qituvchilar individualniy maslahatni kollej olib boradi, seminar, ma'ruza va amaliy ishlarni universitet olib boradi. 60-yillargacha Kembridjda 19 ta erkak va 4 ta ayol, Oksfordda 22 ta erkak va 5 ta ayol qabul qiladilar. Hozir erkak kolledjlari ayollarni qabul qiladi, lekin har bir universitetdan 2 ta kolledjdan tashqari.

Buyuk Britaniyadagi universitetlarni davlat moliyalashtiradi, talabalar o'qish uchun pul to'laydilar. Buyuk Britaniya yuz yillardan beri sifatli klassik ta'limi bilan mashhurdir. Bu ta'lim davr sinovidan o'tgan va xalqaro ta'lim bozorida yetakchi o'rinda turadi. Hozirda 80 mingdan ortiq xorijiy talabalar britan ta'lim tizimi yutuqlaridan bahramand bo'lmokda.



Ingliz gumanistlardan namunalar

O'tmishning buyuk yozuvchilari xalq ijodiga murojat qilib, uning syujet va badiiy ifoda vositalaridan ijodiy foydalanganlar. Qadimgi Shotlandiyada qo'shiq to'qish va aytish an'analari kuchli edi. Hayotdagi barcha voqealar, ya'ni tug'ilishdan to o'lingacha, mehnat jarayoni, dam olish, to'y va ommaviy sayillar ham qo'shiqsiz, kuysiz o'tmagan. Bizgacha 300 ga yaqin syujet va ballada saqlangan bo'lib, ularning variantlari esa mingdan ortiqdir. Balladaning dastlabki ma'nosi raqs va muzika bilan aytiladigan qo'shiqdir. Robin Gud va uning otryadining jangovar harakatlariga bag'ishlangan balladalar 40 tadan ortiqdir. Robin Gud qahramonliklari yozma adabiyot namunalarida ham o'z ifodasini topgan. *Shekspirning* «Bu sizga yoqadimi» komediyasida Gud tilga olinadi. *Robert Grinning* «Vekfild dala qorovuli» dramasida xalq qasoskori Robin Gud haqida ajoyib epizod bor. Ingliz gumanistik adabiyotining tarixiy rivojlanish bosqichlari bor. Bu bosqichning muhim xususiyati shundaki, bu vaqtda yashagan gumanistlar antik dunyo madaniyatini qiziqib o'rganadilar. Tragediya va komediya janrini yaratishga kirishadilar. Uyg'onish adabiyotining ikkinchi gullagan bosqichi Shekspir vafotigacha bo'lgan davrlarga to'g'ri keladi. Bu davrda yirik dramaturglar yetishib chiqdilar. *Tomas Mor* (1478-1535) Londonda sudyalarning oilasida tug'iladi. Oksford universitetini tugallaydi, lotin va grek tillarini o'rganadi. Morning gumanistik qarashlari uning «Utopiya» 1516 y romanida o'zining yorqin

ifodasini topgan. Roman asar muallifi bilan dengizchi Rafael Gitlodey o'rtasidagi suhbat shaklida yozilgan. «Universitet bilimdonlari» deb atalmish qator dramaturglar yetishib chiqib, ular uyg'onish davri teatrini yangi bosqichga ko'tarishga ulkan hissa qo'shdilar. Bular Shekspirning zamondoshlari: Jon Lili, Kristofer Marlo, Robert Grin, Tomas Kid va boshqalardir. *Jon Lili* (1553-1606) dramaturgiyada «tuban va yuqori» komediya janriga asos solgan yozuvchi bo'lib, uning dastlabki asari «Evfues yoki donolik anatomiyasi» (1579) romanidir. *Kristofer Marlo*—o'z asarlarida romantik va realistik xususiyatlarni mujassamlashtirgan yangi tipdagi teatrning yaratilishiga salmoqli ulush qo'shgan ingliz dramaturglaridan biridir. 1564-1593 yillarda yashab ijod etgan, oddiy tabaqaga mansub bo'lgan bu yozuvchi qudratli va kuchli ehtirosli shaxslar obrazini yaratib gumanistik tragediyaning rivojlanishiga zamin yaratadi. Uning qahramonlari maqsadga erishish uchun intiluvchi va jamiyat axloq normalarini tan olmaydigan qattiqqo'l kishilardir. «Ulug' Temur» (1587-88), «Doktor Faustning fojiali taqdiri» (1588-89), «Malta yahudiysi» (1592) tragediyalarining qahramonlari shu tipdagi shaxslardir. Marlo 1593 yilda 30 yoshida qora guruh a'zolari tomonidan vahshiylarcha o'ldiriladi. *Robert Grin*—yozuvchi va dramaturg 1558-1592 yillarda yashab ijod etgan. Bilim doirasi keng kishi bo'lib, turli janrlarda: poema, roman, drama asarlari yaratdi, xalq dramasi janriga asos soldi. Hikoyalari esa pastarol (cho'ponlik) adabiyotiga xos sevgi intrigalarini aks ettiradi. Uning bizgacha yetib kelgan 6 ta pesasida romantik motiv, qahramonlik, jasorat va do'stlik olqishlanib, saroy urf-odatlarini masxara qilinadi. Muallifning uslubiy sifatlari uning «Alfons», «Darg'azab Roland», «London uchun ko'zgu», «Monax Bekon va monax Bengey tarixi» va nihoyat afsonaviy qahramon «Robin Gud» haqida xalq balladalari asosida yaratilgan «Jorj Grin—Vekfild dala qorovuli» (1592) tragediyalarida yorqin ifodalangan. *Vilyam Shekspir* - ulug' shoir va dramaturgning tarjimai holiga doir ma'lumotlar juda kam saqlangan bo'lib, uning hayoti va adabiy faoliyatiga oid materiallar zamondoshlarining bergan baholari hamda xotiralari asosida yig'ilgan va to'ldirilgan. Vilyam Shekspir 1564 yilning 23 aprelida Markaziy Angliyaning Stretford shaharchasida tug'ildi. U oiladagi 8 farzandning uchinchisi edi. Otasi Jon Shekspir charm qo'lqop tayyorlovchi hunarmand bo'lib, savdo bilan ham shug'ullanadi, katta obro' orttirib, shahar kengashiga saylanadi va shahar boshlig'i vazifasida ishlaydi. Stretford Evon daryosi sohilida joylashgan bo'lib, Birmingemdan Oksford va Londonga boruvchilar bu shaharchaga tushib o'tar

edilar.

Stretfordga aktyorlar truppasi ham kelib, turli tomoshalar ko'rsatib turar edi, bu voqea shahar madaniy hayotiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Shekspirning teatrga qiziqishi ham shu yerda uyg'onadi. Vilyam dastlab mahalliy «Grammatika maktabi»da o'qiydi. U yerda asosan lotin tili o'rgatilib, sxolastik logika va ritorikadan qisqacha tushuncha berilar edi. U ayniqsa Rim shoiri Ovidiy asarlarini qiziqib mutola qiladi, lekin ko'p o'qiy olmaydi. Otasining ishi muvaffaqiyatsizlikka uchrab, kambag'allashib qolgach, hali 16 yoshga to'lmagan Vilyam o'qishni tashlab ishga kiradi. 18 yoshida u Anna Xetuey degan fermer qiziga uylanib, Syuzanna ismli qiz, Yudef va Gamlet ismli o'g'illar ko'radi. Stretford Shekspirning katta talab va ehtiyojlarini qondira olmasdi. U 1587 yilda

Londonga boradi va teatrga xizmatga kiradi. Avval sufliyor yordamchisi, so'nga aktyor, keyinroq rejissyor, hatto teatrni boshqarishda direktor bilan hamkorlik qilgani ham ma'lum. Shekspir teatrdagi faoliyati davomida dastlab boshqa avtorlarning pesalarini qayta ishlab, ularni yangi mazmun bilan boyitadi («Adashishlar komediyasi», «Qiyiq qizning quyilishi», «Har narsaning me'yori bor»). Shu bilan birga, uning o'zi ham qalam tebrata boshlaydi va tez vaqt ichida u dramaturg sifatida nom chiqaradi. Aktyorlar orasidan chiqib katta obro' ortira boshlagan bu yangi dramaturgni ayrim yozuvchilar ko'rolmaydilar. Masalan, Shekspirning zamondoshi dramaturg *Robert Grin* uni past tabaqadan chiqib, bizning patlarimizga o'ralib olgan «qarg'a», o'zini «sahnani birdan-bir larzaga keltiruvchiman» deb tasavvur qiladigan «ustabilarmon» kishi deb kinoya qiladi. Shekspirning dramaturgiya sohasidagi ijodi ko'p qirrali va ta'sirchan edi. Shu sababli uning hasadgo'ylari ko'p bo'lishi tabiiy edi. Shekspirning adabiy faoliyati uch davrga bo'linadi. Hammasi bo'lib u ikki poema, 154 sonet va 37 pesa yaratadi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Buyuk Britaniyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Buyuk Britaniyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?.
5. Buyuk Britaniyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

3. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
4. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
5. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.

7-MAVZU: KOREYADA TA'LIM TIZIMLARI

Maqsad:

1) **ta'limiy maqsad:** Koreyada ta'limi tizimining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish

2) **tarbiyaviy maqsad:** Koreya ta'lim tizimida o'ziga xoslikni tahlil etishni o'rganish

3) rivojlantiruvchi maqsad: Koreya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Ta'lim tizimi tarkibi.
2. Maktabgacha ta'lim.
3. Boshlang'ich va o'rta ta'lim.
4. O'rta ta'lim jarayonini.
5. Kasbiy ta'lim.
6. Oliy ta'lim.

Janubiy Koreyada ta'lim haqidagi Qonun 1948 yilda qabul qilingan. Ta'lim tizimiga asos qilib an'anaviy g'arb modeli olingan: 6 yil — quyi maktab, 3 yil — o'rta, yana 3 yil — oliy maktab; so'ngra to'rt yillik kollej va bakalavr unvoni beriladi; tanlangan fan yana 2 yil chuqur o'rganilgandan so'ng magistr unvonini olish mumkin. Fan doktori bo'lish uchun yana 3 yil vaqt sarflash lozim.

Mamlakatda oliy o'quv yurtlarining ishlari yaxshi yo'lga qo'yilgan. Koreyada 104 ta oliy o'quv yurti bor, ularning 80 foizi xususiydir. Hozir mamlakatda oliy o'quv yurtlarida o'qishga qiziqish juda kuchayib ketgan. Har yili maktablarni bitiruvchilarning 40 foizi o'qishga kiradi. Talabalar soni bo'yicha Koreya dunyoda birinchi o'rinda turadi. Lekin maktabgacha ta'lim muassasalari ishida muammolar bor. Talab ehtiyojni qondira olmayapti. Shuning uchun 1982 yilda maktabgacha tarbiya haqida qonun qabul qilindi. Bu yerda tarbiyaga bolalar bog'chasida asos solinishini yaxshi tushunishadi. Shu tufayli bu tarmoq keyingi yillarda 60 foizga kengaydi. Bunda diniy tashkilotlarning hissasi kattadir.

Boshlang'ich maktab masalasiga kelganda (bu maktabga olti yoshlilar kelishadi) sinflarning tig'izligini kuzatish mumkin. Har sinfda 50 nafargacha bola o'qiydi. Dars nagruzkalari ham ko'proq. Lekin o'yinlar dam olish o'quv dasturiga kiritilgan. Shuning uchun dam olishga imkoniyat bor.

Boshlang'ich maktabda dars 40 minut davom etadi. O'rta maktabda esa darslar 45 minut.

Oliy maktabda darsning davomiyligi 50 minutga teng. Bu yerda ikki muhim jihatga to'xtalib o'tish zarur. Oliy maktabga, albatta, kirish imtihonlari topshirib kiriladi, o'qishlar pullik.

Boshlang'ich maktabda 9 ta fan o'qitiladi. Koreys tilini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Bundan tashqari arifmetika, ayrim ijtimoiy fanlar ham o'qitiladi.

O'rta maktabda fanlar yana 4 taga ko'paytirilgan. 7-sinfдан boshlab chet tillar o'rgatiladi. Mamlakatda ingliz tiliga e'tibor kuchli. Ko'pchilik bu tilda bemalol gaplasha oladi. Chet tillarni o'qitishga haftasiga 4-5 soat ajratilgan. Koreyslar yana bir tilni - klassik xitoy tilini majburiy ravishda o'rganadilar. 8-sinfdan boshlab Xitoy tarixi o'rganiladi.

Hunar maktablari Koreyada 600 tani tashkil etadi. Bu maktablarning 45 foizi bo'lajak mulkdorlarni tayyorlaydi, 23 foizida texnik kasb egalari yetishib

chiqadi. Qolgan maktablarda dengizchilik, qishloq xo'jalik ixtisoslari o'zlashtiriladi.

Shunisi diqqatga sazovorki, bu maktablarga korxonalar otaliq qiladilar. Ta'lim haqidagi qonun talablaridan biri shudir.

Koreyada ham alohida iqtidorli bolalarga e'tibor kuchli. So'nggi yillarda 5 ta sport, 6 ta ilmiy maktab ochilgan. Jismoniy tarbiyaning rivojlanishiga Seul olimpiadasi katta ta'sir ko'rsatgan.

Koreyada nogironlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikni har qadamda kuzatish mumkin. Aytaylik, bu yerda aravachalar yordamida harakatlanuvchilar uchun yer osti liftlari mavjud, maxsus jihozlangan past qilib qurilgan telefon-avtomatlardan nogironlar bemalol foydalanadilar, rivojlanishdan orqada qolgan bolalar uchun maxsus maktablar mavjud. Bu maktablarning aksariyati xususiy yoki diniy tashkilotlarning xayriya mablag'lari hisobiga qurilgan. Davlat maktablarida din o'qitilmaydi. Lekin 3-sinfdan boshlab «Odobnoma» kabi maxsus fan joriy etiladi. Bu fan 12-sinfgacha o'qitilib, haftasiga 2 soat vaqt ajratilgan.

Bu fan o'z ichiga dinni ham qabul qiladi. U qotib qolgan bir narsa sifatida emas, qadriyat sifatida o'qitiladi. Bu butun tarbiya tizimi natijasidir. Ehromlarga borish, tarixiy yodgorliklar bilan tanishish, ma'naviy tarixni o'rganish maktab fanining majburiy davomi hisoblanadi.

Maktablar uchun o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasiga ham katta e'tibor beriladi. Koreyadagi barcha talabalarning 6,5 foizi bo'lajak pedagoglardir. Mamlakatda 11 ta o'qituvchilar kollejlari mavjud. Har bir provinsiya o'z kollejiga ega. Boshlang'ich sinflar o'qituvchisi bo'lish uchun 2 yil o'qish kerak. Fan o'qituvchisi birmuncha ko'proq o'qiydi.

Koreyada o'qituvchining ish haqi 700 dollarga teng. Agar bunga pedagogika oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishdagi yuqori tanlovni ham qo'shadigan bo'lsak, bu mamlakatda o'qituvchi kasbining e'zozlanishi sabablari ayondir.

Janubiy Koreyada ta'limning obro'si naqadar kattalagini quyidagi misoldan ham ko'rsak bo'ladi:

Soliqlar tizimida ta'limiy soliq joriy qilingan: ishlab chiqaruvchilar foydaning ma'lum foizini maorifga yuboradilar. Davlat byudjetining 24 foizi ta'limga sarflanadi. Mamlakat prezidenti (u xalq ta'limi Davlat kengashini boshqaradi) shaxsan provinsiyalar ta'lim boshqarmalari (bizdagi xalq ta'limi boshqarmalari kabi) boshliqlarini tayinlaydi. Bu ham ushbu mamlakatda maorifga qanchalar zo'r ahamiyat berilishini ko'rsatib turibdi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Koreyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Koreyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?
5. Koreyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.—Toshkent:O'zbekiston, 1995.— 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. —Tashkent, 2006. — 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. — Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.—Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. — 288 b.

8-MAVZU: GERMANIYADA TA'LIM TIZIMI

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Germaniya ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Germaniya ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Germaniya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Geografik o'rni
2. Ta'lim tizimi tarkibi.
3. O'zbekiston va Germaniyada ta'lim tizimining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari
4. Germaniyada gumanistik harakat.

Geografik o'rni

Germaniya - Markaziy Yevropada joylashgan. G'arbda Niderlandiya, Lyuksemburg va Fransiya, shimolda Daniya, sharqda Polsha va Chexiya, janubda Avstriya va Shveysariya bilan chegaralanadi. Shimoliy qismini Boltiq dengizi, Shimoliy dengiz suvlari yuvib turadi. Bu markaziy holat 1990 yil 3 oktabr kuni Germaniya birligi kayta tiklangandan keyin yanada yaqqol ko'zga tashlandi. Germaniya sharq va g'arb orasida har qachongidan ham kattaroq aloqa markazi hisoblanadi. U Yevropa hamjamiyati va NATOning a'zosi bulib, Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari orasida aloqachilik vositasi vazifasini bajaradi. Germaniya Federativ davlatchilikning klassik mamlakati hisoblanadi. Germaniyaning davlat hududi 357000 km² ni tashkil kiladi. Shimoldan janubgacha bo'lgan eng uzun masofasi 876 km. g'arbdan sharqqa esa 640 km,

chegarasining chetki nuqtalari: shimolda Zilt orolidagi List shaharchasi, sharqda-Deshka saksonlar qishlog'i, janubda-Oberstdorf bavarlar qishlog'i va g'arbda-Zelfkant shaharchasi. Chegaralarining umumiy uzunligi-3767 km.

Mamlakat hududi 3 ta tabiiy rayonga ajratiladi: 1. Shimoliy Germaniya pasttekisligi 2. Murakkab tuzilishga ega bo'lgan qadimgi tog'lar (Grats, Shvarsvald, Tyurengiya o'rmonlari). 3. Janubiy Bavariya yassi tog'lig'i. Mamlakatning eng baland cho'qqisi Astriya chegarasida joylashgan. Asosiy daryolari - Reyn, Elba, Oder, Dunay, Vezer. Hududining katta qismini shimoliy Germaniya pasttekisliklari egallaydi.

Germaniya Federativ Respublikasi haqida umumiy ma'lumotlar


Germaniya Federativ Respublikasi sotsial-demokratik federativ mamlakat hisoblanadi. U 16 ta federal yerlardan tashkil topgan: Baden-Vyurtemberg, Bavariya, Berlin, Brandenburg, Bremen, Gamburg, Gessen, Meklenburg-Forpomeraniya, Quyi Saksoniya, Shimoliy Reyn-Vestfaliya, Reynland-Pfals, Saarland, Saksoniya, Saksoniya-Angalt, Shlezvig-Golshteyn va Tyuringiya. Berlin shahri ham federal yer, ham Germaniya poytaxti hisoblanadi. 1949 yildan 1990 yilgacha Germaniya ikki mamlakatlarga: Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasiga bo'lingan edi. Germaniya Yevropa Ittifoqining asoschi-a'zolaridan biri, 1955 yildan NATO va 1973 yildan BMT ning to'liq a'zosi hisoblanadi.



Germaniyaning maydoni 357 046 km² tashkil etadi. Uning aholisi 2006 yil 1 yanvarga kelib 82,44 millionni tashkil etadi. Umumiy aholi sonining taxminan sakkiz foizi (6,8 million) chet elliklardan iborat. Asosiy chet elliklar Turkiya (26,1%), Italiya (8,0%), Serbiya-Chernogoriya (7,3%) va Polsha (4,8%) dan kelib chiqqan. Umumiy chet elliklar sonining 31,7 foizi Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa mamlakatlarning fuqaroligiga ega.

Davlat rahbari federal prezident hisoblanadi. Hukumat rahbari esa federal kansler. Germaniyada qonun chiqaruvchi ikki palatali parlament: Bundestag va Bundesrat mavjud. Bundestag xalq tomonidan 4 yil umumiy, to'g'ridan-to'g'ri, ochiq, teng huquqli va yashirish tarzda saylanadi. Bundesrat 16 ta yerlar vakillaridan yig'iladi. 16 ta federal yerlar suveren mamlakatlar hisoblanadi va ular qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud organlariga ega.

Germaniyaning iqtisodiyoti asosan eksportga yo'naltirilgan. Germaniya xom ashyoga boy bo'lmagan mamlakat sifatida asosan energiya sohasida: neft va gazni import qilishga muhtoj. Germaniyaning xalq xo'jaligiga tashqi savdoning ahamiyati juda katta. Germaniyaning eng muhim eksport mahsulotlariga avtomobil va avtomobil qismlari, mashinalar, kimyo, elektrotexnika hamda oziq-ovqat mahsulotlari kiradi.



- | | |
|--|---|
| 1. Baden-Vyurtemberg, poytaxti Shtutgart; | 10. Shimoliy Reyn-Vestfaliya, poytaxti Dyusseldorf; |
| 2. Bavariya, poytaxti Myunxen; | 11. Reynland-Pfals, poytaxti Mayns; |
| 3. Berlin, poytaxti Berlin; | 12. Saarland, poytaxti Saarbryukken; |
| 4. Brandenburg, poytaxti Potsdam; | 13. Saksoniya, poytaxti Drezden; |
| 5. Bremen, poytaxti Bremen; | 14. Saksoniya-Angalt, poytaxti Magdeburg; |
| 6. Gamburg, poytaxti Gamburg; | 15. Shlezvig-Golshteyn, poytaxti Kil; |
| 7. Gessen, poytaxti Visbaden; | 16. Tyuringiya, poytaxti Erfurt. |
| 8. Meklenburg-Forpomeraniya, poytaxti Shverin; | |
| 9. Quyi Saksoniya, poytaxti Gannover; | |

1-rasm. Germaniya davlatining xaritasi va federal yerlari

Germaniyaning ta'lim tizimi

Germaniya ta'lim tizimining tuzilmasi

Germaniyaning ta'lim tizimi 4 bosqichdan iborat bo'lib, uning 2 – bosqichi 2 turga bo'linadi. Ba'zi federal yerlarda hozirgi kungacha maktabgacha ta'lim tizimi 4 bosqichli ta'lim tizimiga kirmaydi. Ta'lim tizimi bolalar bog'chasi va maktabgacha bo'lgan davrdan keyin majburiy boshlang'ich ta'lim bilan boshlanadi.

Birinchi bosqich (Primarbereich) – boshlang'ich maktabdagi (yoki qushimcha ko'mak beruvchi maktabdagi) 4 yillik davrni qamrab oladi. Ba'zi federal yerlarda 6 yillik boshlang'ich maktablar ham mavjud.

Maktab turiga bog'liq bo'lmagan yo'naltirish bosqichlari, ya'ni 5- va 6-sinflar **ikkinchi bosqich - I (Sekundarbereich I)** sanaladi.

Ikkinchi bosqich - I (Sekundarbereich I) – asosiy maktab attestati yoki real maktab attestatini olishgacha yoki gimnaziyaning yuqori sinfigacha bo'lgan davrni qamrab oladi va asosiy maktab, real maktab va gimnaziya yoki bitta birlashtirilgan maktablarda amalga oshiriladi.

Ikkinchi bosqich - II (Sekundarbereich II) – ikkinchi bosqich - I dan keyin boshlanadi, u gimnaziyaning yuqori sinflari yoki kasb-hunar maktablarini qamrab oladi. Qisqartirilgan gimnaziyalarda 10-sinf ikkinchi bosqich - II ning bir qismi hisoblanadi.

Uchinchi bosqich (Tertiärbereich) – oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini olish bilan boshlanadi va oliy o'quv yurtlari hamda kasbiy akademiyalarda amalga oshiriladi.

To'rtinchi bosqich (Quartärbereich) – kasb-hunar ta'limidan keyingi xususiy va kasbiy malaka oshirish (misol uchun: kasbiy tayyorgarlik kurslarini o'tkazadigan muassasalar va xalq universitetlari).

Germaniya ta'lim tizimi fuqarolarning butun umri davomida o'qishi uchun imkoniyatlar yaratadi.

Federal yerlarning ta'lim tizimidagi suverenitetiga (oliy hokimiyati) ko'ra, Germaniyada umumiy o'rta maktab, kasb-hunar va oliy ta'lim tizimlariga mas'ullik federal yerlar zimmasiga yuklatilgan bo'lib, ular ta'lim tizimi sohalarini qonun doirasida turli xil tashkil etishi va nomlashi mumkin. Ta'lim jarayoni federal mamlakat miqyosida amal qiladigan hujjatlar bilan yakunlanadi.

Германия таълим тизими тузилмаси

Ёш

Таълим
босқичлари

	Малака ошириш				Тўртинчи
	Касбий малака ошириш		Олий ўқув юртлари		босқич
	Касбий академиялар				Учинчи
	Дуал тизими		Касбий мактаблар	Гимназиянинг юзори	босқич
					Иккинчи
					босқич II
	Махсус касбий мактаблар		Реал мактаблар	Бирлаш-тирилган мактаб-	Иккинчи
19	мактаб-				
18					босқич I
	Йўналтириш босқичлари				Биринчи
17					
	Бошланғич мактаблар				босқич
16					
15	Махсус				Элементар
14	болалар				
13					босқич

Germaniya ta'lim tizimi tarixi

Germaniya ta'lim tizimining boshlanishi o'rta asrlarga borib taqaladi. Avval umumiy o'rta maktab ta'limi ruhoniylarni tarbiyalash uchun xizmat qilgan, asosan, dvoryanlar bolalarini, keyinchalik shaharning oliy qatlamini tayyorlaydigan monastir va lotin tili maktablari mavjud bo'lgan. Ko'pgina bolalarning birdan-bir imkoniyati o'z ota-onalari tomonidan dars olish bo'lgan, qariyb 1100 hunarmandchilik sexlarida ustalar tomonidan tashkil etilgan hunarmandchilik ta'limi hozirgi kundagi kasbiy ta'limning avvalgi ko'rinishiga amal qilgan. Ritsarlar o'z-o'zlarini tarbiya qilib va tayyorlab borganlar. Oliy ta'lim tizimi ham o'rta asrlardagi o'zining ildiziga ega. Hozirgi Germaniya davlati hududida 1386 yilda birinchi universitet – Geydelberg universiteti tashkil qilingan.

Umumiy o'rta maktab ta'limi tizimining tobora rivojlanishi o'rta asr oxirlarida o'tkazilgan reformatsiya bilan boshlangan. Shunday qilib, katta shaharlardagi sobor va ruhoniylar maktablari bilan birga shahar cherkovlari qoshidagi jamoa maktablari, kommunalar javobgarligida olmon yozuvchilik maktablari, savdo-sotiq bilimlarni o'rgatish uchun va byurgerbolalari uchun xususiy faqirlar maktabi kelib chiqqan. Yevangelik maktablar bolalarga Injilni o'qishni o'rgatish uchun amal qilgan. Maxsus tabaqachilikdan kelib chiqqan maktablar ritsarlik akademiyasidan kelib chiqqan. XVIII asrdan boshlab maktablar shahar va qishloqlardagi hamma bolalarni qamrab olganlar, shundan keyin kasb-hunar maktablari (mayda hunarmandchilik yakshanba maktablari va mayda hunarmandchilik maktablari) paydo bo'lgan.

Umumiy o'rta maktab ta'limining rivojlanishidagi eng muhim bosqich umumiy maktabga borish majburiyati bo'ldi. Butun Prussiya yerlari uchun 1763 yilda qabul qilingan mamlakatning maktab to'g'risidagi bosh reglamenti ba'zi bir kichik hududlarda qonuniy joriy etildi, lekin bu asta-sekinlik bilan faqat xalq maktablarida o'tkazildi.

Germaniya universitetlarida va oliy maktablarda 1800 yildan boshlab yangi gumanistik ta'lim islohotlari boshlanib ketdi. Bu orqali to'liqsiz umumiy o'rta ta'lim haqida guvohnoma beradigan o'rta, ya'ni real maktablar kelib chiqdi. Birinchi texnika oliy o'quv yurtlariga (Braunshveytn texnika universiteti 1745 yil, Karlsruye universiteti) ham asos solingan. Universitetga kirish uchun **yetuklik attestati** (Prussiyada 1834 yildan boshlab) talab etilgan. 1900 yili universitetda o'qishga kirish uchun ko'pgina gimnaziyalarning bitiruvchilari bir xil huquqli deb tan olingan (gumanistik gimnaziyalar, real gimnaziyalar, real maktablarning yuqori sinflari).

Vaymar Respublikasi 1920 yili majburiy 4 sinfli boshlang'ich maktabini xalq maktabida joriy etdi. Imperiyaning (reyx) maktab ishlari bo'yicha kengashining keyingi talablari bajarilmay qoldi. Gumanistik gimnaziyalar soni tobora kamayib borardi, ulardagi yuqori sinflarda zamonaviy xorijiy tillar va tabiiy fanlarni o'qitish kuchliroq talab etilardi. Ta'limning bunday shakli Uchinchi imperiyada 1945 yilgacha ideologiya ta'siri kuchayishiga qaramasdan qolib ketdi. 1937 yilda 8-sinfdan so'ng, **yetuklik attestati** joriy etildi.

1949 yili Germaniya Federativ Respublikasining Konstitutsiyasida Veymar Respublikasida saqlanib qolgan Federal yerlarning ta'lim tizimidagi suvereniteti

(oliy hokimiyati) tasdiqlandi. Federal yerlarda oldingi maktab turlari va o'qish muddati yana (8 yillik xalq maktabi, 9 yillik gimnaziya) saqlanib qolindi. Boshida (Dyusseldorf kelishuvi (1955)) ehtiyotkorlik bilan harakat qilindi, bu bilan esa hududlarda yanada turli xildagi maktab tizimini yaxlitlashtirish va asta-sekinlik bilan qayta qurishga erishildi. 1964 yilgi Gamburg kelishuviga binoan asosiy maktablarning joriy etilishi bilan umumiy shart-sharoitlar olib kirildi. Bunga qarama-qarshi holda Germaniya Demokratik Respublikasi (GDR)ning ta'lim tizimi 1949 yildan 1990 yilgacha kuchli markazlashgan va marksizm-leninizmning ideologik asoslariga ko'ra olib borildi. 1959 yilgi maktab to'g'risidagi qonun bilan 8 yillik maktablarga gimnaziyaning o'rniga majburiy 4 yillik kengaytirilgan yuqori sinfli o'rta maktab qo'shib berildi. Sutkalik maktablarda bolalarga tunu-kun ta'lim-tarbiya berish har doim ko'pgina onalarga kasbiy faoliyat olib borish imkoniyatini bergan.

1990 yillar oxirida xalqaro taqqoslashga asoslangan tadqiqotlar (misol uchun PISA) natijasida olingan salbiy natijalarga binoan ta'lim mavzusi yana bir bor asosiy e'tiborga olindi. Mutaxassislar tanqisligi tobora oshib borardi. Finlandiya kabi bu sohada muvaffaqiyatga erishgan mamlakatlarga nazar solganda, sanoqsiz o'rganishlar (maktabgacha ta'lim, barcha o'quvchilarning birgalikda o'qishi, ko'proq individual ko'maklashish, mustaqil maktablar, mustaqil umumiy maktablarning yo'qotilishi) doirasida ta'lim siyosatiga asosiy e'tibor yana bir bor qaratildi. Ayniqsa ko'pgina maktablarda «ko'chib kelgan oilalar bolalarining» ajratilishi bunga sabab bo'ldi. Xalqaro taqqoslash va oldingi GDRning ta'lim tizimiga nazar solganda 12 yillik maktabdan so'ng olingan **yetuklik attestati** (sakkiz yillik gimnaziya va **markaziy yetuklik attestatini** olish amalga oshirilgan. Ta'lim sifatini mustahkamlash uchun qilingan hatti-harakatlar, misol uchun, federal yerlarda taqqoslash ishlari va maktablarni tahlil qilish va baholash, ta'lim tizimi sifatini mustahkamlash instituti (IQL) tashkil etish katta sarf-harajatlar orqali amalga oshirildi.

Bolalar bog'chalari. Maktabgacha tarbiya tizimi Germaniya ta'lim tizimida ham muhim bosqich hisoblanadi. Bolalar bog'chalari ta'limning quyi bosqichi hisoblansada, lekin u davlat ta'lim tizimi tarkibiga kirmaydi.

Bolalar 3 yoshdan bolalar bog'chalariga maktab yoshiga yetguncha kun bo'yi yoki kunning bir qismi davomida boradilar. Bog'chalarga borish ixtiyoriy hisoblanadi. Bolalar bog'chalarining vazifalari bolani tarbiyalash, o'qitish va xizmat ko'rsatishdan iborat. Ba'zi federal yerlarda boshlang'ich maktabga o'tish uchun maktabgacha sinflar va maktab bolalar bog'chalari kabi turli muassasalar ham mavjud.

Bog'chalarni mablag' bilan ta'minlash turli jamoat tashkilotlari, hayriya birlashmalari, korxonalar, xususiy shaxslar, diniy muassasalar zimmasidadir. Ota-onalar bolalar bog'chalariga o'z farzandlari tarbiyalanayotganliklari uchun ancha miqdorda pul to'laydilar. 3 yoshdan 6 yoshgacha bolalarning 80% bog'chalarga qatnaydi. Germaniyada odatda bolalar bog'chada kunning birinchi yarmigacha tarbiyalanadilar. Kunning ikkinchi yarmida esa uyda, oilada bo'ladilar. Germaniyada kuni uzaytirilgan bog'chalar ham mavjud.

Birinchi bosqich (Primarbereich)

Germaniyada ta'limning birinchi bosqich boshlang'ich maktablarni qamrab oladi. Ko'pgina federal yerlarda bolalar 6 yoshdan maktablarga boradi. Mavjud qoidalarga ko'ra boshlang'ich maktab ta'limi 4 yillik, Berlin va Brandenburgda esa 6 yillikdir. Boshlang'ich maktablarda o'quvchilar o'z qobiliyatlarini rivojlantirishlari va ularni "yaxshi o'zlashtiradigan" va "past o'zlashtiradigan" deb ajratmaslik maqsad qilib olingan. Shunga ko'ra, birinchi ikki yilda va ko'p hollarda o'quvchilarga baho quyilmaydi, balki ularga og'zaki baholar berib boriladi. Keyingi o'quv yiliga o'tkazish odatiy holga ko'ra amalga oshiriladi. Past o'zlashtirgan o'quvchilar o'quv yilini takroran qaytarish bilan emas, balki ularga qo'shimcha ko'mak beruvchi kurslar taqdim etish orqali o'qitiladi. Shu bilan birgalikda, boshlang'ich maktablar oiladan tashqaridagi birinchi majburiy ijtimoiylashuv maskani hisoblanadi. Darslar nemis tili, matematika, musiqa, dinshunoslik va boshqa fanlar bilan to'ldiriladi. Bu bosqichda darslarni fan bo'yicha o'tkazish tamoyili mavjud emas, har bir o'qituvchi barcha fanlar bo'yicha darslarni o'tkazishi mumkin.

Boshlang'ich maktablar tez-tez pedagogikada innovatsiyalarni joriy etishiga o'z hissasini qo'shadi. O'qituvchilarni tayyorlash sohasida pedagogik qiziqishlar ortganini ko'rish mumkin. "Pedagogika" fani birinchi bosqich ta'limi uchun o'qituvchilarni tayyorlash yo'nalishlarida boshqa ta'lim bosqichlari uchun o'qituvchilarni tayyorlash (qo'shimcha ko'mak beruvchi maktablar va maxsus maktablardan tashqari) yo'nalishlariga nisbatan ko'proq o'qitiladi.

Boshlang'ich maktablarda maxsus bilimlarni o'rgatish yoki loyiha darslari, ochiq darslar kabi darslarni o'quv jarayonida joriy etish, yangi o'quv metodlarni ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlash, xorijiy tillarni oldinroq o'rgatish bo'yicha yangi konsepsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish talablari qo'yilmoqda. Hozirgi kunda jadallashib ketayotgan o'zgarishlardagi ijtimoiy jarayonlarga binoan boshlang'ich maktablar yarim kunlik yoki bir yil davomida darslarni o'qitish shaklida qolib ketmoqda. Sinflarning xilma-xilligi (turli millatli sinflar) tobora oshib bormoqda.

Ikkinchi bosqich I (Sekundarbereich I)

Ikkinchi bosqich I ta'limi yo'naltirish bosqichlarini va to'liq umumiy o'rta maktablarning yuqori sinflarini, asosiy maktab, real maktab va ikkinchi bosqich I gimnaziyalari va birlashtirilgan maktablarni to'liq qamrab oladi. Ikkinchi bosqich I ta'limi asosiy maktabni bitirganlik haqida guvohnoma yoki umumiy o'rta maktab ta'limi attestati bilan yakunlanadi. Oxirgi guvohnoma gimnaziyaning yuqori sinflarida o'qish huquqini berish uchun yetarli malakalarni beradi.

Yo'naltirish bosqichi 5 va 6-sinflarni qamrab oladi va u keyingi maktablarda (maktab turiga bog'liq bo'lgan yo'naltirish bosqichi) yoki undan ajralgan holda (maktab turiga bog'liq bo'lmagan yo'naltirish bosqichi) amalga oshiriladi. Yo'naltirish bosqichi o'quvchilarning keyingi maktab hayotiga yo'naltirishga va uni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Mazkur bosqich muammolariga o'quvchilarni maktab ta'limining tegishli shakllariga to'g'ri taqsimlash vazifasi kiradi. Ko'pgina o'quvchilarda balog'at yoshida o'z bilim darajasida yuqoriga yoki past tomonga harakatlanish hollari

namoyon bo'ladi. Bunday bo'lishiga 4-sinfdan keyin bolalarga noto'g'ri baho berish ham sabab bo'lishi mumkin. Germaniyada maktabni almashtiruvchi va takrorlovchi ("qolib ketuvchi") bolalar soni o'sib bormoqda. Maktablarning boshqaruv ma'muriyati bu holat nafaqat pedagogik, balki moliyaviy muammolar tufayli yuzaga kelayotganligi sababidan mazkur sonni pasaytirishga va maktablarning rivojlanishiga istiqbolni belgilashni maqbullashtirish va o'qituvchilarning malakasini ko'tarish orqali erishishga harakat qilmoqda.

Asosiy maktablar

Asosiy maktablar xalq maktablarining yuqori sinflari rivojlanishidan kelib chiqqan va unga 1964 yili qabul qilingan Gamburg kelishuvi doirasida shunday nom berilgan. Ular dastlab o'quvchilarni kasb-hunar ta'limiga tayyorlashi lozim bo'lgan hamda amaliy va metodik yo'naltiruvchi umumiy o'rta maktab sifatida namoyon bo'lgan. Germaniyada ota-onalar o'z bolalarini 5-sinfdan (Berlinda 7-sinfdan) asosiy maktablarga borishga izn beradilar.



2-rasm. Berlin shahridagi Rutli asosiy maktabi binosi.

1990 yil 3-oktabrda Germaniya Federativ Respublikasiga sharqiy federal yerlarning qo'shib olinganidan so'ng, asosiy maktablarni qurishga qarshi qaror qabul qilindi. Mazkur qarorga 1993 yili Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlar kengashi (KMK) o'z xulosasini chiqardi va asosiy maktab va real maktab ta'lim yo'llarini bog'laydigan umumiy o'rta maktablarining turli xil nomlanishini tan oldi. Asosiy maktablar o'z faoliyatini bugungi kunda Bavariya, Baden-Vyurtemberg, Berlin, Gessen, Quyi Saksoniya, Shimoliy Reyn-Vestfaliya va Reynland-Pfals yerlarda olib bormoqda. Ko'pgina Federal yerlarda asosiy maktablar umuman joriy etilmagan (bu sharqiy Germaniya federal yerlariga tegishli) yoki asosiy maktablar real maktablar bilan bog'lab qo'yilgan (bu "sobiq" Germaniya Federativ Respublikasiga tegishli).

Asosiy maktablar 9-sinf va ba'zi federal yerlarda 10-sinf bilan tugallanadi. Federal yerlarning ko'pchiligi o'quvchilarga ixtiyoriy 10 sinfli asosiy maktablarni taklif qilmoqda. Asosiy maktablarning qariyb 30 foiz o'quvchilari 10-sinfga boradilar. Asosiy maktablar o'quvchilarga amaliy kasb-hunar ta'limi uchun asos sifatida umumiy maktab ta'limini o'rgatadi.

Real maktablar

Real maktablar Prussiya o'rta maktablariga taqlid qilgan holda gimnaziya va xalq maktablari o'rtasidagi "kengaytirilgan umumiy ta'lim olish" uchun o'rta qism

sifatida tashkil etilgan. Avvalgi davrlarda yetuklikka erishish uchun o'quvchilar real maktablarga yuborilgan.

Bunday maktab shakli yuqori malakalarni talab qiluvchi kasb-hunar ta'limida o'qishni hoxlovchi maktab bitiruvchilari ehtiyojini qoplashi lozim.

Real maktab 5-, 7-sinfdan 10-sinfgacha bo'lgan keyingi bosqichdagi maktablar hisoblanadi. Real maktablar kengaytirilgan umumiy o'rta ta'limni beradi. Real maktabni tugatganligi haqida guvohnoma barcha sohalarda murakkab bo'lgan kasblar uchun umumiy asoslar o'rgatilganligini bildiradi.

Real maktablarning muvaffaqiyati, bir tomondan, maishiy xizmat ko'rsatish jamiyatida tobora ortib borayotgan o'zgarishlarni nazarda tutib ishlab chiqilgan o'quv reja va dasturlarni o'qitish bo'lsa, boshqa tomondan real maktabni bitirganlik haqidagi guvohnoma, umumiy o'rta ta'limni bitirganlik haqidagi guvohnoma bilan tenglashadi. Ushbu guvohnoma ko'pgina kasblarni o'rganishga asos hisoblanadi. Yuqori pog'onali maxsus maktablarda kasbiy yetuklik attestatini, kasbiy va maxsus gimnaziyalarda **umumiy oliy o'quv yurtlariga o'qish haqida guvohnomani** olish mumkin. Xullas, real maktablar Germaniyaning umumiy ta'lim tizimining o'rtasida turadi. Ular bir tomondan murakkab kasblarni o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lsa, boshqa tomondan esa, oliy o'quv yurtlarida o'qishga tayyorlaydi.

Gimnaziyalar. 1955 yilgi Dyusseldorf kelishuvidan keyin to'liq umumiy o'rta ta'limni beruvchi barcha maktablar gimnaziya deb nomlanadigan bo'ldi. Gimnaziya ikkinchi bosqich ta'limining ikki turini qamrab oladi.

Gimnaziya umumiy o'rta maktablarning 9- yoki 8- (5-sinfdan 13- yoki 12-sinfgacha) yoki keyingi 7 ta (7-sinfdan 13-sinfgacha) sinflarni qamrab oladi. Real maktabni tugatganligi haqida guvohnomaga ega o'quvchilar uchun gimnaziyalar ham mavjud. Gimnaziyaning tugatganligi haqida guvohnoma (umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnoma) barcha oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun malakaga ega bo'lganligi to'g'risidagi guvohnoma sifatida amal qiladi.

1990 yildan boshlab Germaniya umumiy o'rta ta'limida o'quvchilar real maktab va asosiy maktablarga nisbatan ko'proq gimnaziyaga bormoqda. Germaniyada yetuklik attestatini olish uchun eng to'g'ri yo'l gimnaziya hisoblanadi va u kasb-hunar ta'limiga, maxsus oliy o'quv yurtlariga yoki oliy o'quv yurtlariga to'g'ridan-to'g'ri kirish imkoniyatini beradi. Gimnaziya ta'lim mazmunining eng asosiy qismi 2 ta xorijiy tilni egallashdan iborat.

Gimnaziya tanlab oluvchi (ajratuvchi) maktab hisoblanadi, ya'ni o'quvchilar erishgan natijalar doimiy baholanib boriladi va past natija ko'rsatgan o'quvchilarga boshqa ta'lim yo'li orqali o'qish imkoniyati beriladi.

Birlashtirilgan maktablar. Germaniyada birlashtirilgan maktablar ko'pincha munozaraga tushgan maktab shakli hisoblanadi. Uning konsepsiyasi turli ehtiyojlarga asoslangan va ta'lim tizimida ko'proq imkoniyatlar berishni ko'zda tutadi.

Birlashtirilgan maktablarning ikki turlari mavjud:

- Integrallashgan birlashtirilgan maktablar
- Kooperatsiyalashgan birlashtirilgan maktablar

Birinchi turdagi birlashtirilgan maktab 1968 yili G'arbiy Berlinda sinov maktabi tariqasida tashkil etilgan. Bugungi kunda butun federal mamlakat hududida 800 ta integrallashgan birlashtirilgan maktablar mavjud. Boshlang'ich maktablarning eng yaxshi bitiruvchilari, ayniqsa ularning ota-onalari, real maktablar va gimnaziyalardan birlashtirilgan maktablarni afzal ko'radilar.

Ikkinchi bosqich II (Sekundarbereich II)

Ikkinchi bosqich II ta'limi yuqori sinflarni bildiradi. Unga kasb-hunar ta'limining dual tizimi va kasb-hunar maktablari, kasb-hunar ta'limiga tayyorlovchi o'quv yili, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari, texnikumlar, yuqori pog'onali maxsus maktablar, kasbiy gimnaziya hamda gimnaziyaning yuqori sinflari kiradi. Ko'pgina abituriyentlar kasb-hunar ta'limini egallab, ikkinchi bosqich II ta'limi orqali ta'limni ikki marta o'tib boradi.

Gimnaziyaning yuqori sinflari. Gimnaziyaning yuqori sinflari 11-sinfdan (8 yillik gimnaziyalarda 10-sinfdan) boshlanadi va o'qish 3 yil davom etadi. Ular bir yil kirish bosqichi va ikki yil malaka bosqichlarni qamrab oladi. 12-sinfgacha o'qitadigan gimnaziyalar ham mavjud. Saksoniya va Tyuringiyada faqat 11- va 12-sinflarni qamrab oladi va kirish bosqichi (kasbiy gimnaziya bundan mustasno) mavjud emas. Gimnaziyaning yuqori sinflarida oliy (akademik) ta'limga tayyorgarlik ko'rish maqsadida o'quvchilar afzal ko'rgan fanlar tanlab olinadi va asosiy sohalarga urg'u beriladi. Yetuklik attestatini beruvchi ikkinchi bosqich II muassasalariga va birlashtirilgan maktablarning yuqori sinflariga amal qiluvchi qoidalar gimnaziyaning yuqori sinflariga ham amal qiladi.

Hozirgi kunda qariyb barcha federal yerlarda yuqori sinflar islohoti kuchli boshlang'ich ta'lim berish va kamroq ixtisoslashtirish tamoyilida o'tkazilmoqda. Nemis tili, matematika, ingliz tili va boshqa yana bitta chet tili ko'pincha tanlangan asosiy va majburiy imtihon fanlari bo'lib hisoblanib kelmoqda.

Kasb-hunar maktablari. Germaniyada quyidagi shakldagi kasb-hunar maktablari mavjud va ularning har biri spetsifik vazifalarni bajaradi:

- Kasb-hunar ta'limiga tayyorlovchi o'quv yili
- Kasb-hunar ta'limining asosiy o'quv yili
- Kasb-hunar maktablari
- Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari
- Texnikumlar
- Yuqori pog'onali maxsus maktablar
- Kasbiy gimnaziya
- Kollejlar

Germaniyada to'liq o'quv haftalik maktabiga borish majburiyati 18 yoshgacha hisoblanadi, ungacha hamma yoshlar biron bir maktabga borishi lozim. Shuning uchun asosiy maktabni bitirgandan so'ng, kasb-hunar ta'limini boshlamagan o'quvchilar uchun kasb-hunar ta'limining asosiy o'quv yili (BGL) tashkil etilgan va unda o'quvchilar tanlagan kasb sohasidagi asosiy malakalarni o'zlashtiradilar. Asosiy maktabni tugatganligi haqida guvohnomani olmagan o'quvchilar kasb-hunar ta'limiga tayyorlovchi o'quv yili(BVJ)da kasb-hunar ta'limi haqidagi guvohnomani olishlari mumkin.



3-rasm. Drezden shahridagi kasb-hunar maktabidagi o'quv jarayoni

Klassik kasb-hunar maktablari dual ta'limning bir qismi hisoblanadi va ular kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonada davlat tomonidan tan olingan kasb bo'yicha ta'lim olayotgan o'quvchilarga maxsus fanning nazariy va umumiy ta'limini beradi. Bundan tashqari, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablari mavjud bo'lib, ularda ham dual ta'lim bo'yicha kasbiy ta'limni hamda maktab kasb-hunar ta'limini bitirish mumkin.

Ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabi to'liq haftalik maktab hisoblanadi va maktabga minimal 1 yil davomida boriladi. Maktabga kasb-hunar ta'limiga tayyorlovchi to'liq haftalik maktabga borish majburiyatini bajarish uchun ixtiyoriy boriladi. Maktabda o'qish yakuniy imtihon bilan tugatiladi. Ikki yil davomida mazkur maktabda o'qish orqali real maktabni bitirganlik haqida guvohnomaga tenglashtirilgan ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktabini bitirganlik haqida guvohnomani olish mumkin. Bitiruvchilar guvohnomani davlat tomonidan tan olingan dual kasb bo'yicha olishlari mumkin.

Texnikumga tugatilgan kasb-hunar ta'limi va amaliy kasbiy tajribadan keyingi, qisman ko'p yillik amaliy kasbiy tajriba yoki kasbga oid iqtidorni tasdiqlovchi ma'lumotnomaga binoan ixtiyoriy boriladi. Texnikumlar keyingi maxsus kasb-hunar ta'limni (misol uchun: ishlab chiqarish korxonadagi ustalarni tayyorlash maktablari, texniklarni tayyorlash maktablari) beradi. Texnikumda o'qish muddati to'liq haftalik maktab asosida yarim yildan 3 yilgacha, to'liq haftalik bo'lmagan maktab asosida esa 6-8 yil davom etadi.

Yuqori pog'onali maxsus maktab real maktabni tugatganligi haqida guvohnoma yoki shunga tenglashtirilgan guvohnomaga ega bo'lgan yoshlarni o'qitish uchun mo'ljallangan. Yuqori pog'onali maxsus maktab(FOS)da o'qish uchun umumiy o'rta maktab ta'limni bitirganlik haqida guvohnomaga ega bo'lish lozim va to'liq o'quv haftalik ikki yillik ta'limdan so'ng yuqori pog'onali maxsus maktabni bitirganlik haqida guvohnomani olish mumkin. Maktabda o'qish muddati to'liq haftalik maktab asosida 1 yil, to'liq haftalik bo'lmagan maktab asosida 3 yilgacha davom etadi. Mazkur maktabni bitirganlik haqidagi guvohnoma oliy texnika o'quv yurtiga kirish huquqini beradi.

Ba'zi federal yerlarda yuqori pog'onali maxsus maktabda o'qish orqali biror bir kasbga bog'langan oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnoma yoki umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnomani olish mumkin. Shimoliy Reyn-Vestfaliya va Bavariya yerlarda yuqori pog'onali maxsus maktabiga tenglashtirilgan yuqori pog'onali kasb-hunar maktabi mavjud va maktab turining davomiyligi hamda u beradigan guvohnomaga qarab barcha turdagi oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini beradigan guvohnomani ham olish mumkin. Yuqori pog'onali kasb-hunar maktabida o'qish uchun real maktabni bitirganligi haqida guvohnoma kabi kasb-hunar ta'limi bitirganlik haqida guvohnoma talab qilinadi va u yuqori pog'onali kasb-hunar maktabi tomonidan aniqlangan asosiy o'quv sohalarga mos kelishi lozim.

Kasb-hunar ta'limi ichida kasbiy gimnaziya alohida ahamiyatga ega. Bu yerda biror bir kasb sohasiga qaratilgan gimnaziyaning yuqori sinflari haqida gap ketmoqda va misol uchun: texnika gimnaziyasi, iqtisodiy gimnaziya, oziq-ovqat fanlari bo'yicha gimnaziya, biotexnologiya gimnaziyasi deb nomlanadi. Kasbiy gimnaziyalar gimnaziyaning yuqori sinflari kabi umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha guvohnomani beradi.

Kasbga yo'naltirilgan gimnaziyalar real maktabni tugatganligi haqida guvohnoma yoki shunga tenglashtirilgan guvohnoma asosida bilim beradigan ta'lim muaassasasidir. Kasbga yo'naltirilgan gimnaziyalar 3 yil (11-13 sinflar)lik o'quv yilidan so'ng, barcha oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun malakaga ega bo'lganligi haqida guvohnoma (umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnoma) beradi.

Kollejlarda biror bir kasb sohasiga qaratilgan gimnaziyaning yuqori sinflariga o'xshash umumiy o'rta ta'limga tenglashtirilgan kasb-hunar ta'limini beradi. Kollejlarda ham texnika, iqtisod va ijtimoiy sohalar mavjud. Kollejlar kasb-hunar ta'limini bitirganlik haqida guvohnoma (malakali mutaxassis va texnik o'rtasida) va umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish bo'yicha guvohnoma beradi.

Uchinchi bosqich (Tertiärbereich) – oliy ta'lim

Germaniya ta'lim tizimining oliy ta'lim bosqichi 400 ga yaqin oliy o'quv yurtlaridan tashkil topgan bo'lib, ular asosan davlat qaramog'idagi, ba'zi birlari cherkov qaramog'idagi hamda xususiy oliy o'quv yurtlaridir. 2007 yilda 391 ta oliy o'quv yurtlarining 124 tasi universitetlar, pedagogika va diniy oliy o'quv yurtlari bo'lgan va ularning 69 foiz talabalari Germaniyada tayyorlangan. Boshqa 215 ta oliy o'quv yurtlari maxsus (kasbiy) oliy o'quv yurtlardir. Bundan boshqa 52 ta oliy o'quv yurtlari san'at oliy yurtlari hisoblanadi. Oliy o'quv yurtlari federal yerlar tasarrufi va javobgarligi asosida faoliyat ko'rsatadi.

Oliy o'quv yurtlarining asosiy vazifalariga tadqiqot ishlari: bilim olish va malaka oshirishda yangi bilimlar va malakalarni o'rgatish hamda ilmiy darajalarni berish kiradi. Oliy o'quv yurtlari turli xil fakultetlarga yoki fan sohalariga, yaqin bo'lgan fan sohalari esa birlashtirilgan sohalarga bo'linadi. Hozirgi kungacha ma'muriy va servis bo'limlari har bir oliy o'quv yurtida tashkil etilgan.



4-rasm. Geydelberg universitetining tashqi ko'rinishi

Bulardan tashqari, Germaniya oliy ta'lim tizimiga oliy o'quv yurti deb hisoblanmaydigan kasbiy akademiyalar ham kiradi. Bunday muassasalar-da o'qishning yarim qismi korxonalarda o'tkaziladi.

Hozirgi kunda Germaniyada 1,9 million talabalar bor. 2011 yilga borib talabalarning soni 2,2 milliondan 2,4 milliongacha oshishi mumkin. O'qishga qabul qilish uchun oliy o'quv yurtlariga kirish huquqiga ega bo'lish lozim va u odatda yetuklik attestati hamda kasbiy yetuklik attestati hisoblanadi. 1990 yillar o'rtalaridan boshlab kasb-hunar ta'limini bitirgandan so'ng ham universitetga kirish mumkin. Yo'nalishlarga qarab boshqa kirish huquqi turli xil bo'ladi. Davlatning ta'limni qo'llab-quvvatlash to'g'risidagi federal qonuniga binoan yashash uchun va oziq-ovqatlarga qo'shimcha haq to'lanadi. Bundan tashqari, qobiliyatli va o'z qiziqishlarini ko'rsata olgan talabalarga turli xil fondlar tomonidan stipendiyalar beriladi.

Oliy ta'lim muassasalarida o'qish tartibi federal yerlarning oliy o'quv yurtlari to'g'risidagi qonunlari, oliy ta'lim bo'yicha nizomlar va imtihonlar bo'yicha nizomlarga ko'ra tartibga solinadi va ular oliy o'quv yurtlari tomonidan avtonom tasdiqlanadi. Diplomlar ta'lim yo'nalishlariga qarab beriladi. Eng muhim diplomlarga magistr, bakalavr, diplom, davlat imtihoni diplomlari kiradi. Professorlik darajasi oliy doktorlik unvonini olishga bog'liq. Bolonya bitimiga binoan bakalavr va magistr yo'nalishi joriy etilishi lozim.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki tamoyiliga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, talabalar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalarning o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejaları taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat

harajatlarini ko'tara olmasa, o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliyaviy yordam oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmi qarz tariqasida beriladi.

Oliy o'quv yurtlarida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish qadimiy an'analaridan biri. O'tgan asr boshlarida Vilgelm fon Gumboldt pruss universitetlarini isloh qildi, o'shandan beri «Tadqiqot va o'qitish birligi» ularning hayotiy tamoyiliga aylanib qolgan. Oliy o'quv yurtlari tadqiqotlarining asosiy yo'nalishi - fundamental va amaliy tadqiqotlar bo'lib, ularga boshqa ilmiy-tekshirish institutlari, sanoat laboratoriyalari yaqindan yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish asosiy muammolardan biri sanaladi. Moliyalashtirishga sanoat yoki turli fondlar tomonidan homiylik mablag'lari jalb etiladi. Investorlar qatoriga "Germaniya tadqiqotlar jamiyati" kabi nodavlat tashkilotlar ham kiradi. Oliy o'quv yurtlarini moliyalashtirish tartibi hozirgi kunda davlatning asosiy rejali moliyalashtirilishidan loyihaviy moliyalashtirishga o'tkazilmoqda.

Germaniyaning san'at va musiqa oliy o'quv yurtlarida talabalar tasviriy, badiiy va teatr san'atlari va musiqa fanlari bo'yicha tayyorlanadi. Diniy oliy o'quv yurtlarida din bo'yicha mutaxassislar tayyorlanadi. Pedagogik oliy o'quv yurtlarida (hozirgi kunda faqat Baden-Vyurtemberg, Saksoniya-Angalt, Shlezvig-Golshteyn va Tyuringiya yerlarda mavjud) boshlang'ich maktab, asosiy maktab, real maktab va qisman maxsus maktab o'qituvchilari tayyorlanadi. Boshqa federal yerlarda o'qituvchilarni tayyorlash universitetlarda, texnika universitetlarida, oliy texnika bilim yurtlarida, birlashtirilgan oliy o'quv yurtlarida, san'at va musiqa oliy yurtlarida amalga oshiriladi.

Germaniyaning birlashtirilgan oliy o'quv yurtlari (faqat Gessen va Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerlarda mavjud) o'qish va o'qitish, tadqiqot vazifalari, bundan tashqari universitetlar, pedagogika oliy o'quv yurtlari, maxsus oliy o'quv yurtlari hamda qisman san'at va musiqa oliy o'quv yurtlari vazifalarini bajaradi. Ularda ixtisoslashtirilgan ta'lim yo'nalishlari bo'yicha maxsus kurslar ishlab chiqilgan. Birlashtirilgan oliy o'quv yurtlari «Universitet-birlashtirilgan oliy o'quv yurti» belgisini bildiradi.

Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlari va maxsus ma'muriy oliy o'quv yurtlar ilmiy bilimlar va metodlar yoki badiiy bezak bo'yicha faoliyatni talab qiluvchi kasbiy faoliyatga kuchli amaliy ta'lim berish orqali tayyorlash kabi vazifalarni bajaradi. Ular eng avvalo muhandislarni tayyorlashga yo'naltirilgan hamda iqtisod, ijtimoiy ta'minot, qishloq xo'jalik va dizayn sohalari bo'yicha ta'lim kurslarini taklif qiladi. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida federal Hukumatning ijtimoiy boshqaruvi va yerlar uchun ijtimoiy boshqaruv sohasidagi yuqori mansablarni egallash uchun davlat xizmatchilari tayyorlanadi.

To'rtinchi bosqich (Quartärbereich) – malaka oshirish

To'rtinchi ta'lim bosqichi malaka oshirishning barcha shakllarini qamrab oladi. Malaka oshirishning asosiy qismini norasmiy bilim olish tashkil etadi. Rasmiy malaka oshirish kasbiy, umumiy va siyosiy malaka oshirishga bo'linadi. Kasbiy malaka oshirish sohasi ko'pincha umr bo'yi o'rganish haqidagi qoida bilan

bog'lanadi. Malaka oshirish sektorining odatiy amalga oshirish joylari quyidagilar hisoblanadi:

- kutubxonalar
- xalq oliy o'quv yurtlari
- cherkovlarning ta'lim markazlari
- kasaba uyushmalar va palatalar
- xususiy ta'lim muassasalari
- korxonalarning ta'lim muassasalari
- oliy o'quv yurtlari
- kechki gimnaziyalar

E-Learning, ya'ni masofaviy ta'lim, ayniqsa, malaka oshirish sohasida keng tarqalishini yangi tendensiya sifatida ko'rishimiz mumkin. Hozirgi jamiyatdagi o'zgarishlarga nazar solsak, doimiy malaka oshirish zaruriyatiga ehtiyoj sezilmoqda va shuning uchun tez orada malaka oshirish katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Malaka oshirish umumiy va kasbiy malaka oshirish kabi ikki asosiy sohalari bilan farqlanadi. Umumiy malaka oshirish siyosiy va madaniy malaka oshirishni o'z ichiga oladi. Ikkala malaka oshirish sohalari bo'yicha oliy o'quv yurtlaridagi kurslar, ta'lim muassasalarining ilmiy malaka oshirish kurslari hamda masofaviy malaka oshirish kurslari mavjud. Malaka oshirish sohalarida ishtirokchilarning ixtiyoriy ishtiroki, kurslarning turli xilligi va malaka oshirish muassasalarining ko'pligi mavjud bo'lib, davlatning subsidar roli yuqoridir.

Maxsus ta'lim sohalari (Sonderbereiche)

Davlat qaramog'idagi maktablar tizimiga yonma-yon ravishda davlat qaramog'idagi va qisman xususiy muassasalar qaramog'idagi maktablar va ta'lim muassasalari tizimi mavjud.

Ta'lim olishning ikkinchi yo'li

Ta'lim olishning ikkinchi yo'lida alohida muassasalar va kechki maktablar katta yoshdagilarga malaka oshirish imkoniyatini beradi va bu muassasalarda oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnoma olish mumkin.

Katta yoshdagilar uchun kechki maktablar va kollejlarda «Ikkinchi ta'lim yo'li orqali» asosiy maktabni tugatganligi, real maktabni tugatganligi yoki umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnomani olish muassasalari hisoblanadi. Bunday muassasalar kechki asosiy maktab, kechki real maktab va kechki gimnaziyalar turlariga bo'linadi. Dars kechki payt o'tkaziladi, kechki maktab tinglovchilari birinchi yili kasbiy faoliyatda bo'ladi. Kollejda esa umumiy oliy o'quv yurtlariga kirish haqida guvohnoma olish mumkin va ularning tinglovchilari kasbiy faoliyat olib borish xuquqiga ega bo'lmaydi. Kollejlarda to'liq haftalik maktab hisoblanadi.

Maxsus maktablar qo'shimcha ko'mak beruvchi maktablar

Umumta'lim maktablari tizimida nogironligi tufayli imkoniyati chegaralangan o'quvchilar uchun maxsus maktablar mavjud. Bugungi kunda ko'mak berish xarakterini ta'kidlash va ajratish belgisini yo'qotish uchun maxsus maktablarni ko'pincha qo'shimcha ko'mak beruvchi maktablar deb ham atalmoqda. 1778 yili

kar-soqovlar uchun Leypsigda maxsus ta'lim muassasasi tashkil etilgan va 1990 yilda maxsus maktablarning ilk ko'rinishi mavjud edi.

Maxsus maktablardagi ta'lim jarayoni maxsus pedagogik konsepsiyalar va qo'llab-quvvatlovchi kurslar orqali nogiron bolalar va yoshlarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan. Mazkur maktablarning har biri nogironlik turlari darajasiga binoan jihozlangan bo'lib, boshlang'ich ta'limdan kasb-hunar ta'limigacha (ko'pincha internatlar bilan) bo'lgan davrni qamrab oladi. Dars o'tishdan maqsad o'quvchilarga o'quv kurslar bilan birgalikda hayotiy, amaliy va ijtimoiy ko'nikmalar hamda ijtimoiylashuv bo'yicha yordam berish hisoblanadi. Shunga muvofiq, bunday muassasalar real maktab, gimnaziya va kasb-hunar maktablari tasarrufida ham tashkil etilgan.

Germaniyada maxsus maktablarning bir qancha turlari mavjud. Har bir federal yerda ularning barcha turlari mavjud emas hamda ular qisman turlicha nomlanadi:

Umumiy ko'mak beruvchi maktablar (oldingi ko'rinishi: ta'lim jarayonida qiynalganlar uchun maktab) – qisman ushbu maktabni bitirganlik haqida guvohnoma beradi va u asosiy maktabni bitirganlik haqida guvohnoma sifatida sanalmaydi.

Tarbiyasi og'irlar uchun maktab (oldingi ko'rinishi: axloqi tuzalmaydiganlar uchun maktab yoki tarbiyaga muhtojlar uchun maktab) – ko'pincha tarbiyasi og'ir yoshlar muassasalari va mehribonlik uylarida joylashgan, ko'pincha asosiy maktabni bitirganlik haqida guvohnoma yoki real maktabni bitirganlik haqida guvohnoma beradi.

Hayotni individual yengib chiquvchilar maktabi /har taraflama tarbiya beruvchi maktab (oldingi ko'rinishi: ruhiy nogironlar uchun maktab) – imkon qadar mustaqil hayot kechirish bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni beradi.

Karlar uchun maktab (oldingi ko'rinishi: eshitishda nuqsoni borlar-karlar uchun maktab) – boshqa odamlar bilan muloqot qilish layoqatini ko'llab-quvvatlaydi va keyingi bosqichdagi maktablarga tayyorlaydi.

Talaffuzida nuqsoni bor bolalar uchun maktab – bolalarni real maktabga kirish uchun tayyorlaydi.

Ko'rlar va ko'zi ojizlar uchun maktab – keyingi bosqichdagi maktablarga tayyorlaydi.

Jismoniy nogironlar uchun maktab – nogironlik darajasiga binoan guvohnoma berishga yo'naltirilgan.

Kasallar uchun maktab – doimiy statsionar tibbiy davolanishda saqlab turishi lozim.

Maxsus kasb-hunar maktabi – ruhiy nogironlar uchun alohida, odatda yordamchi kasblar (misol uchun: oshxona yordamchisi, bog'bon yordamchisi va shunga o'xshash) bo'yicha tayyorlaydi.

Maxsus maktablar qo'shimcha ko'mak beruvchi maktablar 1970 yillardan beri nogironlar va nogiron bo'lmagan o'quvchilarni real maktablarda integrativ tayyorlash bo'yicha ijobiy tajribalarga erishildi. Shunday ijobiy natijalarga asosan integratsiyalashgan maktablari soni muntazam oshib bormoqda. Baden-Vyuttenbergdagi maxsus maktablar nogironlik turiga qarab imkon qadar real

maktabni bitirganlik haqida guvohnoma beradi. Real maktablar imkon qadar nogiron bolalarni qabul qilishi lozim.

Xususiy maktablar. Germaniya ta'lim tizimida xususiy maktablar boshqa mamlakatlarga qaraganda unchalik katta ahamiyatga ega emas. Asosiy Qonun(konstitutsiyaning)ning 7-moddasiga ko'ra davlat butun ta'lim tizimini nazorat qiladi. Biroq mazkur modda xususiy maktablarni tashkil qilish huquqini ta'minlasada, davlat tomonidan tan olinishi quyidagi majburiyatga ko'ra amalga oshiriladi: agar xususiy maktablar tenglashtirilgan maktab guvohnomalarini bersa, qo'shimcha maktablar sifatida tan olinadi va o'qituvchilar, yashash va ma'muriy boshqaruv uchun harajatlar davlat tomonidan to'lanadi. Xususiy maktablar ko'pincha pedagogik talablarga ko'ra jihozlanadi. Hozirgi kunda yarim million o'quvchilar 2.500 ta xususiy umumta'lim va kasb-hunar maktablariga joylashtirilgan va ularning asosiy qismi cherkov qaramog'iga olingan. Ko'pgina maktablar mehribonlik maktablariga joylashtirilgan va tarbiyaga muhtojlar uchun yo'naltirilgan. Ularga o'rmon, qishloq maktablari va yerlarning tarbiyaga muhtojlar uchun maktablari ham tegishli.

Yordamchi kurslar. Yordamchi kurslar sektori maktabdagi natijalarni (baholarni) yaxshilashni hohlovchi o'quvchilar uchun maktabdan tashqari ko'mak beruvchi kurslarni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich ta'lim sohasi va ayniqsa, sinf ishlariga tayyorgarlik ko'pincha oila ichi davrasida o'tkazilsa, pullik yordamchi kurslar orqali yuqoriroq sinfga o'tish tobora oshib bormoqda. Yordamchi kurslar sektori hozirgacha deyarli tadqiq etilmagani bois, Mixail Beer 1990 yilda nashr etgan tadqiqotida aniqlashicha, jami o'quvchilarning yarmisi maktab davrida kamida bir marta pullik yordamchi kurs olgan. Yordamchi kurslar sohasi iqtisodiy jihatdan kengayib bormoqda va hozirgi kunda 3.000 dan ortiq xususiy yordamchi kurslar muassasalari mavjud, hatto ular o'z kurslarini talabalarga ham taklif qiladi. Oxirgi yillarda yordamchi kurslar tarmog'i oydinlashmoqda va internet orqali ishlaydigan maktab darsligi nashriyotlari va elektron dasrliklarni ishlab chiquvchi tashkilotlar ochilmoqda.

Ta'lim tizimi ishtirokchilari. Germaniya ta'lim tizimining ishtirokchilari uch guruhga bo'linadi.

O'quvchilar o'zlarining yoshi va statusiga ko'ra eng muhim guruh sifatida katta ta'sirga ega emas.

Davlat hamkor federalizm asosida (Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi - KMK, umumiy fanlar kengashi - GWK) federal, yerlar, kommunalar va komissiyalar darajasida faol qatnashadi. Fanlar kengashi kabi ba'zi davlat komissiyalari yoki Bundesrat (Germaniya parlamenti) 1975 yilgacha siyosiy maslahatlar berib qatnashib kelgan.

Nodavlat tashkilotlar darajasida ta'lim tizimida turli xil qatnashchilarning qiziqishlarini himoya qiluvchi tashkilotlar mavjud, ular: universitetlar (Oliy o'quv yurtlari rektorlari kengashi – HRK), iqtisod va hunarmandchilik qiziqishlarini himoya qiluvchi birlashmalar (Germaniya iqtisod instituti), ixtisoslashtirilgan o'qituvchilar birlashmalari va o'qituvchilar kasaba uyushmalari (Tarbiya va fan bo'yicha kasaba uyushmasi - (GEW), Germaniya o'qituvchilar birlashmasi) va ochiq maktablar, boshqa ta'lim muassasalari hamda boshqa tashkilotlar

(Germaniya xususiy maktablarning federal birlashmasi, O'rmon qishloq maktablari ittifoqi, ochiq alternativ maktablar federal birlashmasi - BFAS), kattalarni o'qitish bo'yicha Germaniya instituti.

Federal yerlarning ta'lim tizimidagi suvereniteti (oliy hokimiyati)ga ko'ra federativ davlat eng avvalo oliy ta'lim va kasb-hunar ta'limi sohalarida mavjud bo'lgan ta'limning siyosiy muammolarni hal qilish bilan cheklanib qolishi lozim. Maktabning ichki ishlariga faqat federal yerlar mas'uldir. Ular maktab ta'limi tizimini tashkil qiladi va nazorat qiluvchi organlar orqali ta'lim nazoratini amalga oshiradi. Bundan tashqari ular maktab ta'limi tizimini moliyalashtiradi, qonunlar va nizomlarni qabul qiladi, maktab darsliklarini tasdiqlaydi. Mahalliy hokimiyat organlari vazifalariga binolarning ma'muriy boshqaruvi va jihozlanishini kuchaytirish kabi maktabning tashqi ishlari kiradi. Ta'lim tizimining shak-shubhasiz birdamligiga erishish uchun Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi - KMK kabi hamkor federalizm kengashlari muhim o'ringa ega.

Nodavlat ishtirokchilar va maslahat berish komissiyalari ta'lim tizimiga bevosita ta'sir o'tkaza olmaydi, lekin ular maslahat berish vositasi bilan qatnashadi. Shu asnoda ular konsepsiyalar va tavsiyalar loyihalarini ishlab chiqadi yoki ta'lim siyosatiga talablar qo'yadi, ta'limni tadqiqot qilishda ishtirok etadi yoki ta'lim bo'yicha tadqiqotlar o'tkazadi. Ular ta'lim siyosatiga hisobsiz kuchli ta'sir o'tkazib turadi.

O'qituvchilar. Bugungi Germaniyada barcha o'qituvchilar oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan bo'lishi kerak. 1960 yillarga qadar pedagogika oliy o'quv yurtlarida xalq ta'limi maktablari o'qituvchilarini tayyorlash ilm-fanga yo'naltirilmagan edi. Bugungi kunda pedagogika oliy o'quv yurtlari qisqartirildi yoki universitetlarga joylashtirildi. Baden-Vyuttembergda mustaqil pedagogika oliy o'quv yurtlari ilm-fanga yo'naltirildi.

Xalqaro taqqosga ko'ra katta qismini pedagogika qamrab olgan jami 5 yildan – 6 yilgacha bo'lgan muddatda o'qituvchilarni tayyorlash ikki bosqichda bo'lib o'tadi. Dastlab referendariat (Referendariat)ni boshlamasdan oldin oliy o'quv yurtini tamomlashi lozim. Oliy o'quv yurtida o'qish ikki yoki undan ortiq maxsus fanlar bilan birga pedagogika fani ham o'qitiladi va istalgan maktab shakliga qarab turli xil hajmda bo'ladi. Hozirgi kunda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'qituvchilik kasbi uchun tahsil olish mumkin:

Gimnaziyalar yo'nalishida ta'lim olsa – gimnaziyada, real maktabda va asosiy maktabda dars berish huquqini beradi.

Real maktablar yo'nalishida ta'lim olsa – gimnaziyada o'rta bosqis yakunigacha, real maktabda va asosiy maktabda dars berish huquqini beradi.

Boshlang'ich va asosiy maktablar yo'nalishida ta'lim olsa – boshlang'ich va asosiy maktablarda dars berish huquqini beradi.

Kasbiy maktablar yo'nalishida ta'lim olsa – hamma turdagi kasb-hunar maktablarda va kasbiy gimnaziyalarda dars berish huquqini beradi.

Maxsus maktablar yo'nalishida ta'lim olsa – boshlang'ich maktabda, asosiy maktabda va maxsus maktabda hamda integratsiyalashgan birlashtirilgan maktabda maxsus pedagogika qismiga dars berish huquqini beradi.

Ba'zi federal yerlarda o'qituvchilarni quyidagi yo'nalishlarga muvofiq bosqichli tayyorlash mavjud:

Birinchi bosqich (Boshlang'ich maktablar uchun);

Ikkinchi bosqich I (10 sinfgacha bo'lgan barcha maktablar uchun);

Ikkinchi bosqich II (10 sinfdan yuqori barcha maktablar uchun).

Oliy o'quv yurtlarida o'qituvchilarni ilmiy jihatdan tayyorlash maxsus metodlar va dasturlar bo'yicha o'tkaziladigan birinchi davlat imtihoni bilan yakunlanadi. Ikkinchi bosqich o'qituvchilik seminariyasi (o'qituvchilarni tayyorlash maktabi)dan iborat bo'lib, amaliyotga yo'naltirilgan tayyorlash davrini o'z ichiga oladi. Ushbu davrning boshlanishida pedagogik amaliyot eng birinchi o'rinda turadi. Ikkinchi davlat imtihoni orqali talabaning Referendariat (Referendariat)ga yaroqliligi aniqlanadi.

Bugungi kunda Bolonya bitimiga binoan barcha federal yerlarda o'qituvchilarni tayyorlash islohotlari o'tkazilmoqda. Ushbu islohotlarga ko'ra oliy ta'lim bakalavr va magistr bosqichlariga o'tkazilishi, asta sekin bakalavr (Bachelor of Education) va magistr (Master of Education) diplomlari joriy etilishi lozim.

Federal yerlarning amaldor xodimlarning maoshi bo'yicha nizomiga binoan ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtlarida o'qish orqali maxsus fan o'qituvchisi bo'lish ham ko'zda tutilgan. Oliy ta'lim muassasasini o'qituvchilik kasbi bo'yicha bitirmagan, turli yo'nalishlar bo'yicha o'qishni tugatgan hamda ishlab-qiqarishdagi amaliyotdan kelib chiqqan (injenerlar, hunarmandchilik va sanoat korxonalari ustalari) mutaxassislar boshqalardan farqli o'laroq kasb-hunar maktablariga o'qituvchi sifatida jalb etiladi.

Baden-Vyurtembergda san'at-texnika fanlari bo'yicha maxsus fan o'qituvchilari mavjud. Ular oliy ta'limda o'qishni tamomlamagan, lekin maxsus pedagogik seminarlarda tayyorlangan bo'lib, turli xil maktablarga jalb etiladi. Ixtisoslashtirilgan oliy o'quv yurtini bitirganligi va qishloq xo'jalik ishlariga yaroqli ekanligini tasdiqlab beruvchi hujjat orqali orqali ba'zi mutaxassislar qishloq xo'jalik kasb-hunar maktablariga maxsus fanlar bo'yicha o'qituvchi va maslahatchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Germaniyada kasb-hunar ta'limi

Germaniya kasb-hunar ta'limining dual tizimi. Germaniyada kasb-hunar ta'limi dual tizimga asosan tashkil etilgan. "Dual" tushunchasi ikkilik degan ma'noni bildiradi va uning asosiy elementidan biri korxona bo'lsa, ikkinchisi kasb-hunar maktabi hisoblanadi. Korxona va kasb-hunar maktabi hamkorlikda kasb-hunar ta'limi jarayonini ta'minlaydi. Korxona va kasb-hunar maktabi o'rnashgan joyi va ishlash vaqti turli xil bo'lsada, bir-biri bilan hamkorlik qiladi.

Dual tizim, hatto o'zini oqlagan bo'lsa ham, uni kamdan kam mamlakatlarda uchratish mumkin. U kasb-hunar ta'limining bir necha o'qitish joylari (kasb-hunar maktabi va kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonalar)ga bo'linganligi bilan xarakterlanadi va ba'zida korxonalararo o'quv markaziga yuboriladi. Kasb-hunar maktabi maxsus nazariy va umumiy ta'limni beradi. Ular aniq biror bir kasbga bog'liq fanlarni, umumiy kasbiy fanlarni yoki siyosiy va umumta'lim fanlarni o'qitadi. Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi(KMK)da tasdiqlangan namunaviy o'quv rejaga asoslangan holda har bir kasb-hunar maktabi o'zining

o'quv rejasini ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish korxonasida, ya'ni ish joyidagi ta'lim amaliy kasb-hunar ta'limini beradi. «Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom»da belgilab berilgandek, korxona o'z vaqtini rejalashtirishni, o'qitish joyini va o'qitish metodini erkin tanlaydi. Korxonalararo va korxona ichidagi o'quv markazda qisman ta'lim kurslari o'tkaziladi.

Odatda korxona va kasb-hunar maktabining vazifalari quyidagicha taqsimlangan: korxona amaliy ko'nikmalarni o'rgatishga, kasb-hunar maktabi esa nazariy bilimlarni berishga mas'ul. Real hayotda korxona nazariy mashg'ulotlarni ham o'tkazadi, kasb-hunar maktabida esa nazariy mashg'ulotlarga qo'shimcha ravishda amaliy mashg'ulotlar ham o'tkaziladi. Bundan kelib chiqish aytish mumkinki, dual tizimida bir-birini takrorlash o'rniga, bir-birini to'ldirib borish juda muhimdir.

Korxona va kasb-hunar maktabi o'rtasidagi hamkorlikdan bir misol keltirsak. Korxonaning ustaxonasida o'quvchi «Ford» va «Folksvagen» avtomobil modellari asosiy qismlarining tuzilishi va vazifasini o'rganadi. Kasb-hunar maktabida o'quvchi avtomobilning ehtiyot qismlarini almashtirish bo'yicha nazariy bilimlarni o'rganadi va bo'lajak mehnat faoliyatida boshqa firma avtomobillari modellarining ehtiyot qismlarini ham almashtira olishi kerak.

O'quvchi nazariy mashg'ulotlarda nimani o'rgansa, shuni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olishi lozim. O'quvchi avtomobil asosiy qismlarini ko'rishi yetarli emas, balki uni o'rnata olishni ham bilishi kerak. Bundan tashqari o'quvchi o'rgangan bilim va ko'nikmalarini shunga o'xshash vazifa va mashqlarda ham qo'llay olishi lozim.

Dual tizimi asosan quyidagi joylarda:

- korxonada;
- davlat tashkilotlarida, shuningdek davlat boshqarmalarida va idoralarida;
- erkin kasblar bo'yicha muassasalarda (misol uchun: shifoxonalarda, advokatlar idorasida, arxitektura bo'limlarida);
- ta'lim muassasalarida va maxsus maktablarda, shuningdek, ishlab chiqarish ta'lim ustalarini tayyorlash maktablarida, ixtisoslashtirilgan kasb-hunar maktablarida o'tkaziladi.

Germaniyada kasb-hunar ta'lim tizimi asosan o'quvchilarning korxonadagi kasbiy faoliyati bilan boshlanadi. Germaniyada davlat tomonidan tan olingan 350 ta kasblar bo'yicha korxonalarda o'quvchilarga kasb-hunar ta'limi beriladi.

Germaniyada odatda ko'pchilik yoshlar maktabni bitirgandan so'ng, kasb-hunar ta'limi oladi.

Kasb-hunar ta'limining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- o'quvchi tanlagan kasbining asoslarini o'rganishi;
- o'quvchi kasbiy faoliyatiga zarur bo'lgan muayyan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishi;
- o'quvchi o'z kasbiy faoliyatda ishlash layoqatiga ega bo'lishi;
- o'quvchi ta'lim olish davomida ish tajribalarini to'plashi.

Kasb-hunar ta'limi yakunida o'quvchi mas'ul organlar (odatda savdo va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi) tomonidan imtihon qilinadi.

Imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limini bitirganlik haqida guvohnoma oladi. Guvohnoma o'quvchiga egallagan kasbiy bilim va ko'nikmalari bo'yicha ish joyi topib, ishlash imkoniyatini beradi. Korxonalar o'quvchiga berilgan guvohnomadan uning kerakli bilim va ko'nikmalarni egallaganini bilib olishi mumkin.

Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun. Germaniyada kasb-hunar ta'limi "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun"ga ko'ra tartibga solinadi. Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi qonun 1969 yil 14 avgustda qabul qilingan. Qonun 9 qism va 113 moddadan iborat. Qonun korxonalarga o'quvchilarni mustaqil qabul qilish va ularga kasb-hunar ta'limi berish huquqlarini beradi. Ushbu federal qonun korxonalarda kasb-hunar ta'limini amalga oshirish uchun dastlabki zamin va shart-sharoit hisoblanadi. Qonun savdo-sotiq va sanoat, davlat organlarida xizmat qilish, «erkin kasblar» va shuningdek qisman hunarmandchilik sohalarida faoliyat olib boruvchi korxonalarga amal qiladi.

Hunarmandchilik yo'nalishlari bo'yicha kasb-hunar ta'limi olish uchun hunarmandchilik to'g'risidagi nizom mavjud. Ushbu nizomning bo'limlari taxminan "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun" moddalariga mos keladi. "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun" kasb-hunar ta'limi berishga yaroqli korxonalardagi barcha o'qitish masalalarini tartibga soladi.

Kasb-hunar maktabida o'qish federal yerlarning ta'lim bo'yicha qonunlariga asosan tartibga solinadi.

"Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun"ning asosiy moddalariga quyidagilar kiradi:

- ta'lim shartnomasining mazmuni;
- korxona va ishlab chiqarish ta'limi ustalariga qo'yilgan talablar;
- o'quvchining ish xaqi olish huquqi;
- kasb-hunar ta'limi beruvchi korxona va o'quvchining huquq va majburiyatlari;
- uzluksiz ta'lim uchun kasb-hunar ta'lim haqida nizomning mohiyati;
- imtihonlarni topshirish tartibi;
- o'quvchining kasb-hunar ta'limini bitirganlik haqida guvohnomani olish huquqi;
- tegishli mas'ul organ (palata)lar tomonidan kasb-hunar ta'limining tashkil etilishi va nazorat qilinishi.

"Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom"da Kasb-hunar ta'limi doirasida o'qitiladigan har bir kasb uchun ta'lim kursining mazmuni bayon qilingan.

Dual tizimga mas'ul organlar. «Yaxshi kasb-hunar ta'limi, bu - kelajakka investitsiya» shiorida Germaniyada ta'lim siyosati, korxonalar va kasaba uyushmalari birlashgan.

Germaniyada kasb-hunar ta'limining dual tizimi murakkab va keng ko'lamdagi tizim hisoblanadi. Dual tizimini rejalashtirish, amalga oshirish va yanada rivojlantirish uchun umumiy javobgarlik hamma darajalardagi barcha ishtirokchilarning (ish beruvchi, ishchi, davlat) qiziqishlari va javobgarliklaridan

kelib chiqadi. Barcha darajalar (federal mamlakat, yerlar, hududlar, o'quv yurti)dagi hamkorlik qonuniylashtirilgan va o'zini oqlagan.

Federal mamlakat darajasida Ta'lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi asosiy va muvofiqlashtiruvchi vazirlik hisoblanadi. Boshqa federal vazirliklar (tarmoq vazirliklar) ta'lim va tadqiqot ishlari federal vazirligi bilan kelishilgan holda bo'yruq va farmoyishlar chiqaradi. Kasb-hunar ta'limi federal institutining bosh qo'mitasida ish beruvchilar, kasaba uyushmalari, federal yerlar va federal hukumat vakillari tenghuquqli asosida birgalikda qatnashadi.

Federal yerlar vazirlari yig'ilishlarda ta'lim, fan va madaniyatdagi butun yerlarni qamrab oluvchi umumiylikni ta'minlaydi. Korxonalarda kasb-hunar ta'limi federal hukumat tomonidan tartibga solinadi. Maktablardagi kasb-hunar ta'limi yerlarning javobgarligiga kiradi.

Yerlar darajasida birinchi navbatda yerlar hukumatlari (ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirliklari vakillik qiladi) umumiy va kasb-hunar ta'limi maktablariga mas'ul hisoblanadi. Kasb-hunar ta'limi bo'yicha yerlar qo'mitalarida ish beruvchilar, ishchilar va har bir yer hukumatidan vakillar qatnashadi. Yerlarning qo'mitalari yerlar hukumatlariga kasb-hunar ta'limi masalalari bo'yicha maslahat beradi. Ayniqsa ular kasb-hunar maktablar va korxonalar o'rtasida kasb-hunar ta'limi bo'yicha hamkorlik hamda ta'lim tizimi rivojlanishda kasb-hunar ta'limini nazarda tutish bo'yicha faoliyatini yo'naltirishi lozim.

Hududlar darajasida iqtisodiyotning o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlari, birinchi o'rinda savdo-sotiq va sanoat palatasi, hunarmandchilik palatasi va b. mavjud. Ular tegishli hududlardagi kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonalarga maslahatlar beradi va ularni nazorat qiladi (kasb-hunar ta'lim beruvchi korxonalar va ishlab chiqarish ta'lim ustasiga yaroqligini aniqlaydi). Ular ta'lim shartnomalarini qayd qilib boradi. Kasb-hunar ta'limida ishchilarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha oraliq va yakuniy imtihon komissiyalarni tuzadi. Kasb-hunar ta'lim beruvchi korxonalarga hududiy mas'ul organlarni nazorat qiluvchi mas'ul boshqarmalar odatda yerlarning iqtisodiyot vazirliklari hisoblanadi.

O'quv yurtlari darajasida kasb-hunar ta'limi beruvchilar korxonalarda tanlab olingan ishchilar vakillari (ishlab chiqarish kengashi) korxonadagi ishchilar vakillari organi to'g'risidagi qonunga ko'ra kasb-hunar ta'limini rejalashtirish va amalga oshirish hamda ishlab chiqarish ta'lim ustalarini ishga qabul qilish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda ishtirok etadi.

Kasb-hunar maktabi. Dual tizimida kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonalarning hamkorlari kasb-hunar maktablari hisoblanadi. Kasb-hunar maktabda o'quvchilar tanlagan kasbi bo'yicha zarur nazariy bilimlarni oladi. Bundan tashqari kasb-hunar maktabi amaliy mashg'ulotlarni to'ldirib boradi. Misol uchun: maktabning o'quv ustaxonasida avtomobilning tuzilishini ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, kasb-hunar maktabi nemis tili, siyosatshunoslik, dinshunoslik va jismoniy madaniyat kabi umumta'lim fanlarni o'qitadi. Ko'pgina kasblarni egallash uchun ingliz tili ham o'qitiladi.

Kasb-hunar maktabi to'liqsiz o'quv xaftalik majburiy davlat o'quv muassasasi hisoblanadi. Kasb-hunar maktabiga borish federal yerlarda turli-xil tartibga

solingan. Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerida 21 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar kasb-hunar ta'limida o'qishni boshlasa, kasb-hunar maktabga borishi majburiy hisoblanadi. Ushbu majburiyat kasb-hunar ta'limini bitirgungacha davom etadi. O'quvchi 21 yoshga to'lib, kasb-hunar ta'limida o'qishni boshlagan bo'lsa, kasb-hunar maktabga borish huquqi o'zida saqlanib qoladi. Korxona o'quvchilarni kasb-hunar maktabga borganini qayd qilib borishga majbur. Ularni maktabga borishi uchun barcha ishlardan ozod qiladi.



5-rasm. Gros-Gerau shahridagi kasb-hunar maktabidagi o'quv jarayoni
(sartaroshlik yo'nalishi bo'yicha)

Kasb-hunar maktabida dars jadvali belgilangan tartibda ishlab chiqiladi. O'quvchilar maktabga haftada bir kundan ikki kungacha keladi. Ba'zi kasb-hunar maktablarda blok darslari o'tiladi va blok darslar bir necha hafta davomida o'tilishi mumkin. Kasb-hunar maktabda o'qish davomida o'quvchilar o'y vazifalarini har kunlik korxona va kasb-hunar maktabga borishdan tashqari vaqtlarda bajarishi lozim.

Kasb-hunar maktabiga bitta kasb bo'yicha yetarli miqdorda o'quvchilar kelsa, kasb bo'yicha sinf tashkil etiladi. Bitta kasb bo'yicha yetarli miqdorda o'quvchilar kelmasa, o'xshash kasblarni birlashtirib sinf tashkil etiladi. Ayrim hollarda bitta sinfdan turli xil kasblar bo'yicha yig'ilgan o'quvchilar ta'lim oladi. Kam uchraydigan kasblar bo'yicha bitta yer yoki ikkita yerlar dajasida bitta sinf tashkil etiladi. Bunday hollarda o'quvchilar maxsus belgilangan kasb-hunar maktablarga blok darslarini o'qish uchun keladi. Korxona ko'p miqdorda o'quvchilarni o'qitsa, bunday korxonalar o'quvchilari uchun alohida sinflar tashkil etiladi.

Kasb-hunar maktabidagi ta'lim mazmuni. Kasb-hunar maktablari va kasb-hunar ta'limi beruvchi korxonalar ta'lim bo'yicha umumiy vazifalarni bajaradi. Kasb-hunar maktablari mustaqil o'quv yurti hisoblanadi va kasb-hunar ta'limidagi boshqa qatnashuvchilar bilan teng huquqli hamkor sifatida hamkorlikda ishlaydi. Kasb-hunar maktablari kasb-hunar ta'limi talablarini ko'zda tutgan holda o'quvchilarga kasbiy va umumta'lim fanlarini o'rgatishi lozim. Bundan tashqari kasb-hunar maktablari yerlarning huquqiy qonun-qoidalariga asosan kasbiy malaka oshirish kabi qo'shimcha vazifalarni ham bajarishi mumkin.

Kasb-hunar maktablari to'g'risidagi umumiy (doiraviy) kelishuvga (Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashining 14/15.3.1991 dagi qarori) ko'ra darslarning uchdan ikki qismi kasbga bog'langan va uchdan bir qismi umumta'lim fanlari bo'yicha taqsimlanishi lozim. Jami darslar kamida 12 haftani qamrab oladi. Darslarning kasbga bog'langan qismi Ta'lim, din va madaniyat ishlari vazirlari kengashi tasdiqlagan namunaviy o'quv rejalariga asosan ishlab chiqiladi. Namunaviy o'quv rejalar federal va yerlar o'rtasida tegishli «Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Nizom»larga muvofiq ravishda kelishilgan. Yangi namunaviy o'quv rejalar o'quv sohasiga qarab bo'linadi. O'quv sohalari biror bir kasbning asosiy vazifalaridan kelib chiqib belgilangan mavzular hisoblanadi. Ushbu yangi konsepsiya kasb-hunar maktabida o'tiladigan mavzular va korxonalaridagi o'quv jarayoni bilan bog'langan majmuaviy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan. Umumta'lim fanlariga jamiyatshunoslik, iqtisod, nemis tili, chet tili, dinshunoslik va jismoniy tarbiya darslari kiradi va ular kasbga bog'langan holda o'tiladi.

Savdo va sanoat palatasi. Mahalliy savdo va sanoat palatalari o'z a'zolarining manfaatlarini kommunalar, yerlar va shuningdek mahalliy davlat tuzilmasidagi organlar oldida himoya qiladi. Butun Germaniya bo'ylab taxminan 3,6 million sanoat va tijorat korxonalari savdo va sanoat palatalarining doimiy a'zolari hisoblanadi.

Savdo va sanoat palatalari mahalliy tamoyillarga ko'ra tashkil etilgan. Germaniya hududida 82 ta savdo va sanoat palatalari ishlaydi.

Savdo va sanoat palatalari o'z a'zolariga har taraflama yordam beradi. Ularga tadbirkorlikni tashkil etish, tashqi savdo, soliq ishlari bo'yicha maslahatlarni berib boradi.

Kasb-hunar ta'limi sohasida savdo va sanoat palatalari huquqiy me'yorlarni tarqatadi va kasb-hunar ta'limini nazorat qiladi.

O'quvchilarga kasb-hunar ta'limini berishni xohlovchi korxonalar har bir savdo va sanoat palatasida mavjud bo'lgan kasb-hunar ta'limi bo'yicha maslahatchilarga murojaat qiladi. Ko'pincha ular korxonalarga tashrif buyuradi va kasb-hunar ta'limini tashkil etish bo'yicha barcha masalalarni hal qiladi.

Hunarmandchilik palatasi. Hunarmandchilik korxonalari mahalliy tamoyillarga ko'ra hunarmandchilik palatalariga bo'ysunadi. Germaniya territoriyasida jami 55 ta hunarmandchilik palatalari ishlaydi. Hunarmandchilik palatasi o'z a'zolarining manfaatlarini siyosiy va kommunal darajada himoya qiladi. Hunarmandchilik palatalari Germaniya hududagi 850.000 a'zolarni qamrab olgan va ularga texnikaviy, iqtisodiy va huquqiy yordamdan boshlab, kasb-hunar ta'limigacha bo'lgan masalalar bo'yicha keng xizmatlarni ko'rsatadi.

Hunarmandchilik palatalari federal mamlakat darajasida Germaniya hunarmandchilik palatalari markaziy assotsiatsiyasiga a'zo bo'lib, uning shtab-kvartirasi Berlin shahrida joylangan. Mazkur assotsiatsiyaga hunarmandchilik palatalaridan tashqari 42 ta markaziy tarmoq hunarmandchilik kengashlari kiradi va shu bilan birga, Germaniyaning boshqa iqtisodiy va hunarmandchilik salmog'iga ega tashkilotlar ham kiradi.

Germaniyaning "Kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi Qonun"iga ko'ra hunarmandchilik palatalariga taxminan 120 ta hunarmandchilik kasblari bo'yicha kasb-hunar ta'limini berishga javobgarlik yuklatilgan. Hunarmandchilik sohasidagi kasb-hunar ta'limi bo'yicha masalalar bilan hunarmandlar birlashmasi ham shug'ullanadi.

Kasb-hunar ta'limi o'quvchilari. Germaniya korxonasida biror bir kasb bo'yicha kasb-hunar ta'limi bo'yicha ta'lim oluvchi shaxs - o'quvchi hisoblanadi. Avvallari o'quvchiga nisbatan "shogird" so'zi ishlatilgan va bu so'z hozirgi kunda faqat hunarmandchilik sohasida ishlatiladi. Odatda umumiy o'rta maktab bitiruvchilari kasb-hunar ta'limida ta'lim olish uchun ta'lim joyini tanlashdan boshlaydi va shu paytda ularning yoshi 16 yoshdan 19 yoshgacha bo'ladi. Ba'zi yoshlar kasb-hunar ta'limida ta'lim olishga kechroq qaror qabul qiladi, shuning uchun 20 yoshga to'lgan yoshlarni o'quvchilikka nomzodlarni tanlab olish jarayonida uchratish hollari ham bo'lgan. Korxonalar asosan o'quvchilarni ularning guvohnomasidagi baholarga qarab tanlab oladi, lekin bo'lajak o'quvchining baholari past bo'lsa ham, korxonalar unga ta'lim olish imkoniyatini berishi lozim. Bunday hollarda korxonalar tanlov suhbatida o'quvchining qiziqishlari, iqtidori borligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Har doim o'quvchidan o'quv jarayonida faol qatnashish talab etiladi. O'quvchi kasb-hunar ta'limini muvaffaqiyatli bitirishi uchun zarur bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga harakat qilishi kerak. O'quvchi o'quv jarayoniga bog'liq bo'lmagan ishlarni yoki jismoniy imkoniyatlaridan ortiq bo'lgan ishlarni bajarishdan bosh tortishi mumkin. Misol uchun, ish yurituvchi nusxa ko'chirish apparati bilan ishlash bo'yicha ko'nikmalarni egallashi lozim, lekin u kun bo'yi hujjatlardan nusxa ko'chirish bilan band bo'lmasligi kerak.

O'quvchi uchun o'quv jarayoni davomida quyidagi ishlarni bajarishi majburiy hisoblanadi:

- ishlab chiqarish ta'lim ustalari tomonidan berilgan kasb-hunar ta'limiga bog'liq bo'lgan bo'yruqlarni bajarish;

- kasb-hunar maktabida va korxonalararo o'quv markazida o'tkaziladigan darslarda qatnashish;

- hisobot daftarlarini muntazam to'ldirib borish va ularda o'quv jarayonining har bir bosqichni yozib borish;

- korxonaning ishlab chiqarish sirlarini oshkor qilishdan saqlanish va raqobatdan ogoh bo'lish.

O'quvchilarni qabul qilish tartibi. Korxona egasi o'quvchilar(o'quvchilikka nomzod)ni qabul qilishdan oldin quyidagilar haqida aniq qaror qabul qilishi lozim:

- O'quvchi qanday guvohnomaga ega bo'lishi kerak?

- Qaysi fanlar bo'yicha yaxshi baholarga ega bo'lishi lozim?
- O'quvchi bo'lajak kasbi uchun qanday xususiyatlarga ega bo'lishi muhim (misol uchun, hunarmandchilik kasbi bo'yicha mahorat)?

Korxonalar o'quvchilikka nomzodlarni topish uchun bandlik agentligi yordamiga murojaat qilishi yoki gazetada e'lon berishi mumkin. Korxona e'lon berishdan oldin o'quvchilikka nomzodlarga qanday talablar qo'yilishini aniq belgilab olishi lozim.

Korxona nomzodlarning kasb-hunar ta'limi joyiga bo'lgan birinchi munosabatini yuborilgan hujjatlar papkasidan bilib oladi. Hujjatlar papkasi nomzodning tarjimai holi, arizasining qisqacha mazmuni, maktabni bitirganlik haqida guvohnoma, boshqa guvohnoma va ma'lumotlardan iborat. Nomzodlarning hujjatlar papkasi soni ko'payib ketgan taqdirda, korxona dastlabki tanlovni o'tkazishi mumkin. Ular odatda nomzodlar bilan suhbat yoki qo'shimcha tanlov testini o'tkazadi.

Odatda nomzodlar bilan suhbat davomida korxonaning egasi, ishlab chiqarish ta'lim ustasi, katta firmalarda kadrlar bo'limi boshlig'i va kasb-hunar ta'limiga mas'ul bo'lim boshlig'i qatnashadi. Bunday suhbatlarni o'tkazish uchun korxona oldindan tayyorgarlik ko'rishi lozim. Ish beruvchi nomzodlarni yaqindan bilib olishi uchun qanday savollarni berishni o'ylab olishi kerak.

Ko'pincha ular quyidagi savollarni nomzodlar bilan o'tkaziladigan suhbatda beradi:

- Nima uchun bu kasbni tanladingiz?
- Nima uchun bizning korxonada ta'lim olishni xohlaysiz?
- Siz 5 yildan keyin bo'lajak mehnat faoliyatingizni qanday tasavvur qilasiz?

Suhbat davomida nomzodlar ham savollar berishi mumkin. Suhbat natijasi nomzod haqidagi fikrlardan kelib chiqiladi va shunday tariqa hamkorlikda samarali tanlov o'tkaziladi.

O'zbekiston va Germaniyada ta'lim tizimining umumiy va o'ziga xos xususiyatlari

O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi "Talim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish tashabbusini qo'lga kiritgan bo'lib, uning bir komponenti bo'lib, bir necha nafar o'qituvchilarni xorijda o'qitish kurslarini tashkil qilish hisoblanadi.

"Talim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasi Osiyo taraqqiyot banki (OTB) tomonidan 2002 yil dekabr oyida maqullangan hamda 2003 yildan hozirgacha amalga oshirib kelinayotgan bo'lib, O'zbekiston xalq talimini isloh qilish bo'yicha chora – tadbirlarni amalga oshirishni taminlashga qaratilgandir, yani:

- Talim jarayoni, tarkibi va strukturasini modernizatsiyalash;
- Talim sektori samaradorligi va barqarorligini takomillashtirish;
- Talim sektorini boshqarish tizimini isloh qilish;
- Talim olish jarayonida kam taminlangan aholi qatlamini himoyalash.

Talim tizimining sifatli va samaradorligi yaxshilash bo'yicha belgilangan asosiy maqsad doirasida loyihaning muayyan sohalarini amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etdi, yani sektorni rejalashtirishni kuchaytirish va boshqarishni

tashkil qilish imkoniyatlarni oshirish, shuningdek, o'qituvchilar malakasini oshirish dasturlarini takomillashtirish va rivojlantirish.

Talim sektorini isloh qilishning barcha komponentlarini hisobga olgan holda turli maqsadli guruhlar uchun trening dasturini, jumladan ularning xorijda o'quv kurslarga qatnashishlarini tashkil qilish belgilangan maqsadlarga erishishning tabiiy va zaruriy chorasi sifatida tan olindi.

Xorijda o'quv kurslarini tashkillashtirishda o'qituvchilar malakasini oshirish bo'yicha dasturlarni amalga oshirish sohasi bo'yicha professional xizmatlarni yetkazib beruvchi tashkilotlar xizmatlaridan foydalanish ehtiyoji tug'ildi. Shu munosabat bilan Osiyo taraqqiyot banki tomonidan Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi Loyihani amalga oshirish guruhi bilan birgalikda o'qituvchilarni o'qitish va ta'lim jarayonida masofaviy o'qitishni tashkil qilish sohasida faoliyat yuritadigan xalqaro ta'lim markazlari o'rtasida tanlov o'tkazildi, buning natijasida Myugelzee Ta'lim Markazi tanlab olindi. Ushbu ta'lim Markazi hamda Xalq ta'limi vazirligi qoshidagi "Ta'lim sektorini rivojlantirish dasturi" loyihasini amalga oshirish guruhi o'rtasida o'qituvchilar uchun yuqorida tilga olingan o'quv kurslarini tashkil qilish to'g'risida shartnoma imzolandi.

O'qituvchilar uchun o'quv tashriflarini tashkil qilish bir necha lotlar, ya'ni guruhlarga bo'lingan holda amalga oshiriladi:

- 36 nafar maktab direktorlari uchun o'quv tashrifi;
- 44 nafar matematika va axborot texnologiyasi fan o'qituvchilari uchun o'quv tashrifi;
- 40 nafar jo'g'rofiya va iqtisodiyot fan o'qituvchilari uchun o'quv tashrifi;
- 47 nafar chet tillari fan o'qituvchilari uchun o'quv tashrifi;
- 48 nafar kimyo, biologiya va fizika fan o'qituvchilari uchun o'quv tashrifi;
- 45 nafar boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun o'quv tashrifi;

Tashriflarning asosiy maqsadi: o'xshash ta'lim muassasalari faoliyatini, ularni boshqarish amaliyotini, ularda o'quvchilar ta'limini tashkil qilishni o'rganishdir, bu esa Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi va 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirishning Davlat umummilliy Dasturiga muvofiq xalq ta'limi xodimlarini tayyorlash jarayonining ajralmas qismi sifatida qaraladi.

Bundan tashqari, tashkil etilayotgan o'quv kurslari ta'lim berish sifatini yanada ko'tarish maqsadida umumta'lim maktablari o'qituvchilari va direktorini tayyorlash darajasini oshirishga imkon berishi ko'zda tutiladi. Ayniqsa,

- xalqaro ta'lim tizimlari bo'yicha yetuk professional tajribani yetkazib berish, bu tajriba o'qitishning pozitiv va innovatsion tajribasini aks ettirishga hamda undan ish faoliyati jarayonida foydalanishga imkon beradi;

- o'quv qatnashchilariga o'z hamkasblari bilan tajriba hamda tashrif davomida olingan axborot bilan almashinishga imkon berish;

- Ilg'or tajriba bilan almashinish yo'llarining ochilishi, maktab va ta'lim muassasalari o'rtasida xalqaro ta'lim aloqalarini rivojlantirish.

Germaniyada malaka oshirish quyidagilardan iborat bo'ladi:

- O'quv qism (amaliy malakaga ega bo'lishga qaratilgan).
- Korxonalarda amaliyot o'tash qismi.

O'zbekistonda ta'lim turlari		Germaniyada ta'lim turlari	
	Maktabgacha ta'lim		Bolalar bog'chalari.
	Umumiy o'rta ta'lim		Boshlang'ich maktablar.
	O'rta maxsus va kasbiy ta'lim		Asosiy maktablar
	Oliy ta'lim		Real maktablar
	Maktabdan keyingi ta'lim		Gimnaziyalar
	Oiladagi ta'lim		Maxsus gimnaziyalar
	Malaka oshirish va qayta tayyorlash		Maxsus maktablar
			Kechki maktablar kollejlari
			Dual kasbiy ta'lim
			Maxsus yuqori maktab
			Maxsus kasb-xunar maktablar
			Sog'liqni saqlash maktablari
			Universitetlar
			San'at, musiqa, pedagogik oliygohlar
			Umumiy oliygohlar
			Maxsus oliygohlar
			Maxsus oliygohlar va maxsus boshqa oliygohlar
			Malaka oshirish
O'zbekistonda ta'lim jarayonining o'ziga xos xususiyatlari			
	Ta'limning o'qituvchi-o'quvchi maqsad, metod, mazmuni, shakl natija		Ta'limning o'qituvchi-o'quvchi maqsad, metod, mazmuni, shakl natija
	Ta'lim maqsadi ozod, erkin, hur fikrli avlodlarni tarbiyalash. Ta'limning shaxsni shakllantirishga yo'naltirish		Ta'lim maqsadi. Kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'limni tashkil etish
	Ta'lim mazmuni DTS mavjud, DTS asosida namunaviy o'quv-rejasi, ishchi o'quv rejalari, dasturlari mavjud. Darslik va o'quv qo'llanmalar yaratilgan.		Ta'lim mazmuni DTS ishlab chiqilmagan,FE maktablar uchun namunaviy dastur mavjud bo'lib, u ham maktab direktorida
	Ta'lim metodlari og'zaki, ko'rgazmali, amaliy interfaol		Ta'lim metodlari. Induktiv, deduktiv interfaol.
	Ta'lim shakli Ml 25 – 40 Vk 6 kunlik 8 ⁰⁰ – 14 ⁰⁰		Ta'lim shakli Ml 24 – 26 Vk 5 kunlik 7 ⁰⁰ – 16 ⁰⁰

	Natijalarni baholash Baholanadi.		Natijani baholash. Baholash erkin Nazorat turini o'qituvchi aniqlaydi.
O'zbekistonda ta'lim omilining o'ziga xos xususiyatlari		Germaniyada oliy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari	
1	Oliy ta'lim bosqichlari Bakalavr – 4yil Magistratura – 2 yil	1	Oliy ta'lim bosqichlari Bakalavr – 3 – 3.5 yil Magistratura-1.5-2 yil
	Oliy ta'lim maqsadi yetuk, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash		Oliy ta'lim maqsadi yetuk, raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash
	Oliy ta'lim mazmuni DTS mavjud. DTS ni bajarishga yo'naltirilgan.		Oliy ta'lim mazmuni DTS chiqilmagan Kompetensiyaga yo'naltirilgan.

**Yuqoridagi taqqoslashlardan kelib chiqqan holda quyidagi tavsiyalarni
taklif qilamiz.**

1. Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori darajadagi moddiy texnik bazasini yaratish.
2. O'quvchilarning o'zlashtirgan bilimlarini amaliyotga tatbiq etish.
3. Maktab o'qituvchilarining pedagogik faoliyatdagi erkinligini ta'minlash.

Germaniyada gumanistik harakat

Shaharlarning o'sishi savdo va sanoatning rivojlanishi insonparvarlik qarashlarining tug'ilishiga zamin tayyorlaydi. Nemis gumanistlari grek va rim klassiklarining asarlari orqali qadimgi kishilarning dunyoviy, xushchaqchaq hayoti bilan tanishdilar, shu tarzda antiklikning «porloq obrazlari oldida o'rta asrning sharpalari ko'rinmay ketdi». Ilg'or nemis gumanistlari o'zlarini antik adabiyot, san'atning merosxo'rlari deb sanaydi. Germaniyani esa o'rta asr jaholatidan holi, birlashgan mamlakat qiyofasida ko'rishni hohlaydilar. Ular o'z kurashlarida Italiya gumanistik madaniyati yaratgan ma'naviy boyliklardan foydalandilar. Savdo-sotiq keng rivojlangan Nyurenberg, Strasburg, Augsburg kabi nemis shaharlari Germaniyada gumanistik harakatning rivojlanishi va yoyilishida muhim rol o'ynaydi. Italiya bilan savdo va madaniy aloqalar olib borgan bu shaharlardan yetishib chiqqan mutafakkirlar o'zlarini italyan gumanistlarining shogirdlari deb hisoblaydilar. Ularning ko'pchiligi Uyg'onish harakatining beshigi hisoblangan Italiyada ta'lim oladilar. Dastlabki nemis gumanistlaridan biri va papaning ashaddiy dushmani bo'lgan yurist *Gregor fon Geymburg* 1410-1472 yillarda yashagan. Qadimgi Rim yozuvchilarining asarlarini keng yoyishga uringan va Germaniyaning turli universitetlarida ishlagan filolog-gumanist *Peter Luder* va *Samuel Karoxlar* shular jumlasiga kiradi. Germaniyaning janubiy shaharlarida me'morchilik, rassomlik san'ati rivojlangan edi. Nyurenbergda astronom Regiomontanus, geograf Bexeym shuningdek, buyuk nemis gumanisti rassom *Albrext Dyurer* yetishib chiqadi. Nemis gumanistlarining ko'pgina asarlarini lotin

tilida yaratadilar. Lotin tilida asar yozgan gumanistlar orasida keng ma'lumotli, grekchadan lotinchaga tarjima qilgan gollandiyalik shoir va notiq *Rudolf Anrikola* (1444-1485y), uning shogirdi *German Bush* (1468-1534) va ayniqsa nemis Uyg'onish davrining talantli lirik shoiri *Konrad Seltis* (1459-1508)larning ijodi shu davrga mansubdir. Ilk nemis gumanistik adabiyotidagi demokratik oqimning yirik vakillaridan biri satirik yozuvchi *Sebastyan Brant* 1457-1521 yillarda yashagan. Brant o'z asarlarini nemis tilida yozishi bilan nemis milliy madaniyatining rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Brant to'la ma'nodagi erkin fikrli kishi bo'lmasa ham, lekin o'zining «Nodonlar kemasi» (1449) yozilgan she'riy satirasi bilan byurgerlar orasida katta shuhrat qozonadi. Nemis gumanistik harakatining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan shoirlardan biri *Iogann Reyxlin* 1455-1522 yilda yashab ijod etgan. Yurist, filolog, tarixchi va teolog Reyxlin o'z zamonasi ijtimoiy harakatlariga faol qatnashadi. Qadimiy tillarni yaxshi bilgan bu olim o'z zamondoshlarini grek adabiyoti bilan tanishtiradi, ularning asarlarini lotin tiliga tarjima qiladi. *Martin Lyuter* 1483 yili dehqon-konchi oilasida tug'iladi. U Erfurt universitetida ilohiyat ilmini o'rganadi, o'qishni bitirgach, Avgustin monastirida xizmat qiladi. So'ngra Vittenbergda ilohiyat fakultetining professori bo'ladi. 1517 yilda Lyuter Vittenberg cherkovi devorlariga katolik cherkovining kirdikorlarini fosh etgan o'zining 95 ta tezisini yopishtirib qo'yadi. Xalq kitoblari - bu kitoblarning yaratilish manbalari turlichadir. Ulardan ba'zilari («Go'zal Meluzina», «Pont va Sedoniya», «Tristan va Izolda», «Gersog Ernest», «Shoxli Zigfrid» va boshqalar) fransuz va nemis epik dostonlari, ritsar romanlari, xristian afsonalari va shvanklarning prozaik bayonidan iborat edi. Lekin «Til Eylenshpigel», «Doktor Faust», «Shildbyurgerlar» nomli asarlar original xalq asarlaridir.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Germaniyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Germaniyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?
6. Germaniyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fachglossar – Betriyebliche Ausbildung. Deutsch-Russisch. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2008. Bonn, 60 S.
2. Berufsausbildung sichtbar gemacht. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2003. Bonn, 72 S.
3. Bildung in Deutschland. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2004. Bonn, 6 S.
4. Ausbildung und Beruf. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2007. Bonn, 222 S.
5. Berufsbildung in Deutschland. Europäisches Zentrum für die Förderung der Berufsbildung. (CEDEFOP). Thessaloniki. 2007, 102 S.
6. Jugend und Berufsbildung in Deutschland. Bundesinstitut für Berufsbildung. 1994. Berlin, 31 S.
7. www.wikipedia.org
8. www.ref.uz
9. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
10. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
11. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
12. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.

9-MAVZU: ITALIYADA TA'LIM

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Italiya ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Italiyadagi ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Italiya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Italiyada ta'lim tizimi.
2. Italiyada gumanistik harakat.

Italiyada ta'lim tizimi

Italiyada 13 yillik majburiy maktab ta'limi mavjud.

Italyan farzandlari o'qishni erta boshlashadi. Italyan ota-onalar farzandlarini 3 yoshda bolalar bog'chalariga (scuola materna) beradilar hamda u yerda 3 yil mobaynida maktabga tayyorlaydilar. Pedagog Marii Montessori usuli asosida guruhda 15-30 o'quvchi o'qiydi. U yerda bolalar o'ynaydi, bir-biri bilan muloqot qilishni o'rganadilar kelajakda maktabga borish uchun harakat qiladilar. Serkov va monarxiya qoshidagi bog'chalarda diniy tarbiya beradilar. Mazkur bog'chalarga 3 yoshdan 6 yoshgacha tarbiyalanadilar. Davlat ixtiyoridagi bog'chalardan tashqari xususiy katolik bog'chalar ham mavjud.

6 yoshda boshlang'ich maktabga boradilar. Birinchi 2 ta bosqich ta'lim, ya'ni – scuola elementare 1 va scuola elementare 2 – barcha uchun bepul hisoblanadi. Bu bosqichlarda o'qish, husnixat, rasm, arifmetika, musiqa va boshqa fanlar asosiy hisoblanadi, ixtiyoriy ravishda diniy ta'limot oladilar. O'quv rejada bitta chet tilini o'rganish kiritilgan.

Bolalar haftada 5 kun, ya'ni 30 soat o'qiydilar. Har bir bosqich yakunida test o'tkaziladi. Natijalar «a'lo», «yaxshi», «qoniqarli» baholanadi. Invalid bolalar sog'lom bolalar bilan ta'lim olishadi. Maktabda bolalar majburan bajarishmaydi, aksincha ko'ngliga kelganini hal qilishadi. 5 yillik boshlang'ich maktabda birinchi ikki bosqichni og'zaki hamda yozma bajaradilar. Yakuniy natijalar asosida boshlang'ich ta'lim attestati beriladi hamda o'quvchilar o'rta maktabga qabul qilinib 14 yoshgacha o'kiydilar. O'rta ta'limda o'quvchilar tarix, geografiya, italyan tili, matematika, tabiiy fanlar, san'at, musiqani o'rganadilar. Har yili imtihonlar o'tkazilib, «o'tdi-o'tmadi» deb natijalar belgilangan. O'rta ta'lim yakunida o'quvchilar yakuniy imtihonlarni italyan tili, matematika va chet tilidan yozma, qolganlarini esa og'zaki topshiradilar. Bitiruvchilar yetuklik attestatini olib universitetga topshiradilar. O'rta ta'lim maktab bitiruvchilari Italiyadagi mavjud turli kasb oliy o'rta maktablar va litseylariga topshirishi mumkin. Bu yerda 14-19 yoshgacha o'qishi mumkin.

Montessori maktabi

Italyan vrachi va pedagogi Mariya Montessorining mehnatiga ota-onalar va tarbiyachilar judayam qiziqishmoqda. Ko'p yillik tajribalari asosida usullar ishlab chiqdiki, bunda bola tomonidan o'rganilgan ko'nikmalar shakllanishiga sharoit yaratib beriladi. Bolaning rivojlanishi tabiiy holda, ya'ni uning harakati hamda turli materiallar bilan munosabati asosida shakllanadi. Mariya Montessorining shiori «O'zim bajarishimga yordam ber» degan so'zni kattalarga aytganidir. Binobarin shakllangan ko'nikmalar yordamida o'qish va husnixatni o'rganishga poydevor hisoblanadi. Montessorining fikricha bolalar o'qishni 4-5 yoshdan o'rganadi. Shuningdek, maktabga borganda o'qishni alfavit bilimisiz o'rganadilar. Bu jarayonni «o'qish tuyg'uchi» deb nomlaydi

Italiyada gumanistik harakat

Feodalizm sharoitida shakllana boshlagan kapitalistik munosabatlar G'arbiy Yevropada Renesans (Uyg'onish) harakatiga asos bo'ldi. Madaniyat tarixida Renesans nomi bilan yuritiladigan bu harakat dastlab Italiyada va ko'p o'tmay Yevropaning qolgan mamlakatlarida ham yuzaga keladi. Ishlab chiqarish shakllarining yangi kurtaklari–manufakturaga o'tish, buyuk geografik kashfiyotlar (Amerikaning topilishi, Hindistonga dengiz yo'lining ochilishi) va dunyo miqyosida savdo-sotiqning rivojlanishi absolyutizmning g'alabasi natijasida feodal tarqoqlikka chek qo'yilib, milliy davlatlarning paydo bo'lishi, buyuk dehqonlar urushi va xalq qo'zg'olonlari - bular ijtimoiy hayot va ijtimoiy tushunchada qator yangiliklar tug'diradi. Italiyada san'at mislsiz darajada yuksaldi, bu yuksalish go'yo klassik qadim zamonning shu'lasini bo'ldi va keyinchalik unga erishish aslo mumkin bo'lmadi. Italiya, Fransiya va Germaniyada

yangi, ilk hozirgi zamon adabiyoti vujudga keladi. Shundan so'ng Angliya va Ispaniya o'z klassik adabiyoti davrini kechiradi. Bu- o'sha davrga qadar insoniyat boshidan kechirgan keskin o'zgarishlar ichida eng buyuk progressiv o'zgarish edi, titanlarga muhtoj bo'lgan, hamda tafakkur kuchi, zavqu-ehtirosi, xarakteri, har taraflama ma'lumotlilik va bilimdonligi jihatidan titanlarni vujudga keltirgan davr edi. Uyg'onish davri madaniyatining ahamiyati uning feodal tuzumi va cherkovga qarshi g'oyaviy kurash olib borishi bilan belgilanadi. Shaxs erkinligi va uni din sirtmog'idan ozod etish hamda dunyoviy madaniyat yaratish uchun o'z bilim va kuchlarini sarf etgan bu titanlar - o'zlarini gumanistlar deb atadilar. Bu so'z lotincha-humanis ya'ni insoniylik degan so'zdan kelib chiqqandir. Uyg'onish davrining muhim xususiyatlari - inson shaxsini ulug'lash, kishi ongini din sarqitlaridan tozalash, tabiat va jamiyatni esa inson manfaatlariga xizmat ettirishda aks etadi. Uyg'onish davrining muhim xususiyatlaridan yana biri antik madaniyatga munosabat masalasida namoyon bo'ladi. Gumanistlar antik davrga qaytish maqsadida emas, o'zlarining ilg'or fikrlarini asoslash va kelajakka ishonch bilan qadam tashlash uchun uzoq o'tmishning ulug' siymolari ijodiga murojaat qiladilar. Ular rim va grek adabiyoti janrlarining turli uslub shakllarigagina emas, balki ularning tarixiy manbalari, g'oyaviy mazmuniga ham diqqat etadilar. Italyan olimi va yozuvchilari, shu jumladan birinchi gumanist *Bokkachcho* unutib yuborigan qadimgi qo'lyozmalarni qidirib topishga kirishdi. Konstantinopol yemirilganidan so'ng u yerdan qochgan grek olimlari Italiyaga juda ko'p noyob antik qo'lyozmalarni keltirganlar. Uyg'onish davrining yana bir xususiyati shundaki, gumanistik adabiyotning rivoj topishi va uning realistik mazmunda ekanligidir. Gumanistlar antik manbalardan tenglik va adolat uchun kurash g'oyalarini oladilar. Antik adabiyotning bunday xususiyatlaridan ta'sirlanish F.Rable "Gargantua va Pantagryul", Servantes "Don Kixot", Shekspir va Marloning tragediyalarida yaqqol gavdalanadi. Xalq turmushidan olingan tematik obraz va folklor motivlari Bokkachcho va M.Novarskaya ijodida yaqqol ko'zga tashlanadi. Italiyaning bir qancha shaharlarida savdo-sotiq tez sur'atlar bilan rivojlanadi. Venetsiya va Genuya savdo bilan Florensiya sanoat va bank ishlari bilan shuhrat qozonadi. Insoniyat madaniyat taraqqiyotining mahsuli bo'lgan buyuk so'z ustalarining biri *Dante Alig'eri*. Uning asli ismi Durante familiyasi Alig'eridir. U 1265 yilning may oyida kambag'allashib qolgan aslzoda oilasida dunyoga keladi. Yoshligida u diniy maktabda o'qib, keyin Bolonya universitetida tahsil olgan deb hisoblaydilar. Umr bo'yi falsafa, axloq, ilohiyot, tarix, mantiq va turli xalqlar adabiyotini mustaqil ravishda o'rgangan. U zamonasining eng bilimdon kishilaridan biri hisoblangan. Florensiyaning siyosiy hayotida faol ishtirok etgan shoirmi 1302 yil g'olib chiqqan "qoralar" ona shahridan surgun qiladilar va u hayotining so'nggi 19 yilini sarson-sargardonlikda o'tkazadi. Dante 1321 yil 14 sentabrda Ravennada vafot etadi.

Dante inson umrini to'rt faslga bo'ladi:

- A) Yoshlik: u issiqlik va namlikka monand;
- B) Balog'at: unga issiqlik va quruqlik xos;
- V) Keksalik: unda sovuqlik va quruqlik bor;
- G) Qartayish: unda sovuqlik va namlik bor.

Italiya uygʻonish davrining ikkinchi yirik vakili *J.Bokkachcho* olim va adib boʻlib, oʻsha vaqtda “nazar ilgʻamas” deb hisoblangan zamonaviy novella janrini yuqori bosqichga koʻtaradi, uning realistik va demokratik yoʻnalishini belgilab beradi. Bokkachcho 1313 yil Parijda tugʻiladi, onasi vafot etgach, u Italiyaga olib ketiladi. Otasining istagi bilan kommertsantlik, shuningdek, huquqshunoslikni oʻrgansa ham antik yozuvchilarning asarlariga unda qiziqish katta boʻladi. Bokkachcho yigitlik davrini(1327-1340) Neapolda oʻtkazadi. Bu yerda u gumanistlar bilan yaqindan tanishib, grek tili va antik adabiyotni oʻrganishga kirishadi. Yangi orttirgan doʻstlari tufayli qirol Robert Anjuyskiy saroyidagi adabiy doiraga jalb qilinadi. Bokkachcho ijodining dastlabki bosqichida ritsar romanlarini qayta ishlash bilan shugʻullanadi. Oʻrta asr diniy-asketik taʼlimotiga shafqatsiz zarba bergan Bokkachcho bu oʻlmas asari bilan mangu barhayotdir.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Italiyada taʼlim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlangʻich, oʻrta taʼlim – oʻquv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Italiyada oliy taʼlim qanday olib boriladi?
7. Italiyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni toʻldiring:

Maktabgacha taʼlim	Majburiy taʼlim		Oliy taʼlim	Ilmiy faoliyat
	Boshlangʻich taʼlim	Oʻrta taʼlim		

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:Oʻzbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yoʻldoshev J.Gʻ. Xorijiy mamlakatlarda taʼlim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:Gʻofur Gʻulom, 2001. – 288 b.

10-MAVZU: NIDERLANDIYA TAʼLIMI

Maqsad:

4) taʼlimiy maqsad: Niderlandiya taʼlimi taraqqiyotining asosiy yoʻnalishlari boʻyicha maʼlumotlar berish

- 5) **tarbiyaviy maqsad:** Niderlandiya ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish
- 6) **rivojlantiruvchi maqsad:** Niderlandiya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Ta'lim tizimi tarkibi.
2. Maktabgacha ta'lim.
3. Boshlang'ich va o'rta ta'lim.
4. Kasbiy ta'lim.
5. Oliy ta'lim.

Biz bu mamlakatning Xsemskerke shahriga ta'lim bo'yicha xalqaro seminarga taklif etilgai edik.

Nidsrlaidiya mamlakatida ta'lim qanday yo'lga qo'yilganligini muhtaram mushtariylarimizga bayon qilishni boshlashdan oldin, ularga bu ajoyib mamlakat to'g'risida ba'zi ma'lumotlarni berish maqsadga muvofiq dsb hisoblaymiz. Niderlandiyaning yer maydoni 42 ming km/kv bo'lib, unda 15 million aholi istiqomat qiladi. Uning shimoliy dengiz bo'yida uch dars Rsyn, Maasa, Sxelds dengizga quyilish joyida joydlashganligi, Niderlandiyaga katta geografik qulaylik tug'diradn. Shu tufayli ham aholining katta qismi kemasozlik, turizm, tranzit yuklarni kemalar bilan tashib berish bilan band. Ishga yaroqli aholidan 6 millioni yoki 67 foizi maishiy xizmat ko'rsatish sohasida, 28 foizi sanoatda, 5 foizi qishloq xo'jaligi na baliqchilik xo'jaliklarida mehnat qiladi. Davlat tuzimida konstitutsion monarxiya, uning o'z parlamepti ham faoliyat ko'rsatadi. Bu mamlakat 12 viloyatdan tashkil topgan, poytaxti Lmsterdam shahridir.

Niderlandiya kichik mamlakat bo'lsada, lekin xalqaro ijtimoiy, iqtisolin, siyosiy hayotda faol ishtirok etadi. Hozirgi Birlashgan millatlar tashkilotining o'tmishdoshi bo'lgan millatlarligasi aynan birinchi bor Niderlandiyada tashkil etilgan edi. Bu mamlakatda 1899, 1907-yillarda xalqaro tinchlik konferensinlari bo'lib o'tgan. Hozir xalqaro arbitraj, xalqaro sulim mamlakatning Gaga shahrining Tipchlik saroyida joylashgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Niderlandiyada qulratli industriyani barpo etish ishlari boshlandi. Bu mamlakat to'g'risida qisqacha ma'lumot ana shularlan iborat.

Endi asosiy vazifa Niderlandiyala ta'lim tarbiya ishlarining amalga oshirilishi bo'yicha ma'lumot bershiga kirisha-miz.

Biz ishtirok etgan xalqaro seminar ta'limning moliyaviy ta'minoti masalalariga bag'ishlangan bo'lnb, bu haqda mamlakat ta'lim vaziri M. M. Ritzer, Xeemskerka viloyatnning meri V. I. Xoobrukx va boshqalar so'zga chiqdilar. Umuman qo'yilgan masala yuzasidan 37 muzokora tinglandi. Tanaffus va bo'sh paytlarda bu anjumanga ishtirok etgan mamlakatlar vakillari bilan keng qamrovli tajriba almashuvlar bo'lib o'tdi.

Bizdagi ta'lim tizimining qo'yilishi bo'yicha AQSh, Fransiya, Buyuk Britaniya mutaxassislarining fikri muallif diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi. Ular bir ovozdan sobiq SSSRning barcha hududlarida ta'limning amalga oshirilishi bo'yicha jahonning istagan mamlakati bilan raqobatlasha olishi, uni saqlash va

takomillashtirish zarurligini, sobiq SSSR ta'lim tizimlarida ibratli jihatlar ko'pligini ta'kidladilar. Ayniqsa mustaqillikka erishgan har bir davlat o'z hududiy, mahalliy etnopedagogik xususiyatidan kelib chiqib, ta'limni isloh etishi zarurligini qayd etdilar.

Niderlandiya ta'lim tizimlarining shakllanish davri 1789 yilda fransuz revolyutsiyasi natijasida paydo bo'lgan Bativ Respublikasi davriga to'g'ri keladi.

Hozirgi paytda mamlakatning 75 foiz maktablari xususiy shaxslar, tashkilotlar va jamiyatlar tomonidan, shu jumladan xrestianklikni katolik cherkovlari tomonidan tashkil qilingan.

Bu mamlakatda ta'lim tizimi 7-3-2 shakldadir. Boshlang'ich ta'lim maktabgacha tarbiya bilan qo'shilgan.

Uning shakli quyidagi bosqichdadir:

- boshlang'ich ta'lim;
- o'rta ta'lim;
- maxsus ta'lim;
- oliy ta'lim;
- chst elliklar uchun ta'lim.

Boshlang'ich ta'lim

Boshlang'ich maktab 4-12 yoshli bolalarga mo'ljallaigan. Bolalar 4-5 yoshlarida maktabga keladilar. Boshlang'ich sinflarda o'qish haftasiga 5 kun. Bolalar 8 dan 15 gacha maktabda bo'ladilar. Mashg'ulotlar o'yin formasida amalga oshiriladi, dars soatlari chsgaralangan emas Golland maktablarida 15, 20, 30, 40 minutlik darslarni uchratish mumkin. Soat 12 dan 13.30 gacha tushlik tanaffus. Bu naytda bolalar uylarida ovqatlanib keladilar. O'qituvchilar uchun tushlikda 45 minut tanaffus beriladi. Mashg'ulotlar aksariyat potok bo'yicha amalga oshiriladn.

Bu mamlakatda 4 yoshdan kichik bolalar uchun o'quv-tarbiya muassasalari yo'q. Bolalar yaslilari ham bor, lekin ular ta'lim vazirligi tasarrufida emas.

Boshlang'ich maktabning dastlabki ikki yili o'quv o'yin rejasida bolalarni o'qishga, yechishga, hisoblashga, rasm solishga, qo'l mehnatiga o'rgatish ko'zda tutilgan. O'qishning keyingi 6 yillik bosqichida bolalarga niderland tili, matematika, yozuv, tarix, geografiya, fizika, jamiyatshunoslik fanlaridan dars o'tiladi. Maxsus maktablarda ilohiyot darslari o'qitiladi. Boshlang'ich maktab o'quvining so'nggi bosqichida bolalarga ingliz tilidan dars bsriladi. Boshlang'ich sinfni bitirganlik haqida o'quvchilarga maxsus hujjat berilmaydi. Bolaning boshlangich maktabdagi bilimi, aqliy va jismoniy rivojlanishiga qarab ota-onalar o'rta maktab tanlaydilar.

O'rta ta'lim

Niderlandiya maktablarida o'rta ta'lim:

- umumiy o'rta ta'lim;
- umumiy ilmiy o'rta ta'lim;
- hunar-texnika ta'limi va hokazolardan tashkil topadi.

O'z navbatida umumiy o'rta ta'lim o'qish muddati 4 yil bo'lgan o'rta va o'quv mudlati 5 yil hisoblangan oliy bosqichga bo'linadi.

Tayyorlov bosqichi hisoblangan ilmiy o'rta ta'lim ham ikki ko'rinishga ega: gimnaziya va atensum deb ataladigai tipga bo'linadi. Har ikki ko'rinishda ham o'qish muddati 6 yil. Tayyorlov ilmiy o'rta ta'lim oliy ilmiy o'quv yurtlariga kiruvchilarni yetishtirib chiqaradi.

Hunar-texnika (ularida hunar-texnika) ta'limi quyi hunar-texnika ta'limi, o'rta va oliy hunar-tyoxnika ta'limidan iborat uch bosqichdan iborat.

O'quvchilar o'quv yurtlariga kirish uchun topshiradigan sinovlari ularning qaysi bosqich o'quv yurtlariga kirish hohishi va albatta shunga munosib bilim darajasiga qarab belgilanadi. O'rta ta'lim bosqichi o'quvchilarga o'rta hunar-gexnika bilim yurtlariga, oliy tip o'rta maktablari esa oliy toifa hunar-texnika bilim yurtlari hamda tayyorlov ilmiy o'quv muassasalarining bitiruvchilariga universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtiga kirib o'qish imkoniyatlarini ochadi.

Hunar-texnika ta'limi o'z kasb yo'nalishiga ko'ra quyidagicha ko'rinishda:

- qishloq xo'jalik ishlari ta'limi;
- iqtisodiyot va ma'muriy ta'lim;
- texnik ta'lim;
- maishiy xizmat va tibbiyot ta'limi;
- ro'zg'or yuritish, xalq hunarmandchiligi ta'limi;
- savdo o'rta ta'limi;
- dengizchilik o'quv yurti va hokazo.

Niderlandiyada yoshlar 16 yoshga to'lgunga qadar o'qishga majbur. Shundan keyin olingan kasb yo'nalishlarini yanada takomillashtirish, yuqori malakaga ega bo'lish uchun o'qishlar yana ikki yil davom etdiriladi. Bunday holda o'quvchi haftaning bir yoki ikki kunida o'qishda bo'lsa qolgan kunlari ishda bo'ladi.

Ta'lim standartlari deganda, gollandiyalik ta'lim mutaxassislari reja va dasturlarni tushunadilar.

Niderland maktablari faqat ta'lim bilan shug'ullanadilar. Maktablarda oshxonalar va bufetlar yo'q. Maktablarda ovqatlantirish, qonunbuzarlikni oldini olish ishlari bilav asosan oila, jamoat tashkilotlari mashg'uldirlar.

Maktablarda 60-70 foiz o'zlashtirishni normal holat deb hisoblaydilar. Qolganlari bo'sh yoki o'zlashtirmovchi o'quvchilardir. Bizning tushunchamizdek «ikkichilar» Niderlandiya-da yo'q.

Yangi maktab qurilishini loyihalashtirishga qo'yilgan asosiy talablar quyidagilar:

- sinfda har bir o'quvchi uchun 6-8 m joy bo'lishi;
- kruglikning me'yorida bo'lishi;
- har bir o'quvchiga yetarli maydonning mavjudligi (sinfda ham maktab hovlisida ham);
- individual e'tiborning bo'lishi va hokazo.

Maktablarda devor, tom, derazalar oynavand, yorug' va bahavo qurilgan.

Niderlandiyada «yoshlar ishlari bo'yicha federatsiyasi mavjud bo'lib uining vazifasi hukumatda, parlamentda yoshlar manfaatini ia ularninghuquqlarini himoya qilishdaya iborat.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Niderlandiyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Niderlandiyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?
8. Niderlandiyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.

11-MAVZU: TURKIYA MAORIFI

Maqsad:

- 1) **ta'limiy maqsad:** Turkiya ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish
- 2) **tarbiyaviy maqsad:** Turkiya ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish
- 3) **rivojlantiruvchi maqsad:** Turkiya ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Ta'lim tizimi tarkibi.
2. Maktabgacha ta'lim.
3. Boshlang'ich va o'rta ta'lim.
4. Kasbiy ta'lim.
5. Oliy ta'lim.

O'zbekiston Respublikasi istiqbolga erishgach, uning mustaqilligini birinchi bo'lib qardosh Turkiya Respublikasi tan oldi. Mamlakatlarimiz o'rtasida iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar, shu jumladan, ta'lim bo'yicha hamkorlik tez rivojlanib

bordi va u bizning xorijiy mamlakatlar bilai aloqalarimizda yetakchi o'rinlardan birini egalladi.

Respublikamizda 20dan ortiq o'zbek-turk hamkorligidagi lideylar tashkil etildi na ular yaxshi faoliyat ko'rsatmoqdalar. Har yili yuzlab o'zbekistonlik o'quvchilar va talabalar ta'lim olish uchun Turkiyaga jo'natilmoqda. Ayni vaqtda turkiyalik yoshlar ham Respublikamiz o'quv muassasalarida bilim olmoqdalar.

Shuningdek, bu mamlakat bilan keng ko'lamda ta'lim bo'yicha mutaxassislar almashish yo'lga qo'yilgan. Har ikki mamlakatdan ta'limni boshqarish muassasalarining, o'quv yurtlarining hamda ta'lim bo'yicha ilmiy tadqiqotlar va ilmiy-mustodik ishlar olib boruvchi mutaxassislar, o'qituvchilar va tarbiyachilar bir-birlariga tashriflar uyushtirib o'zaro tajribalar almashmoqdalar. Bularning barchasi ikki mamlakat maorifchilarining umumiy maqsad yo'lidagi ishlarni rivojlantirishga hissa bo'lib qo'shgani. Turkiya Respublikasida ta'limning qo'yilishining o'ziga xos tomonlari borligini hisobga olib, u haqda to'laroq ma'lumotlar berish o'rinli deb hisoblaymiz.

Respublikada hozir amaldagi ta'lim tizimlariga turk xalqining asl farzandi Kamol Otaturk asos solgan. Turkiya ta'lim tizimlari mamlakat Konstitutsiyasi, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi qonunlar, «Milliy maorif vazirligining tuzilishi va vazifalari haqida»gi 179, 208, 385-sonli qonunlarda hamda hukumat dasturlarida har tomonlama chuqur ifodalangan.

Respublika Konstitutsiyasining 42-moddasida «*Barcha kishilar ta'lim-tarbiya olish huquqiga egadilar*» deb yozib qo'yilgan va fuqarolarning bilim olish huquqlari kafolatlangan. Turkiya Respublikasida barcha tipdagi ta'lim to'la davlat nazoratida bo'lib, bunday nazoratga kirmaydigan ta'lim-tarbiya maskanlarini ochish mumkin emas. Xususiy maktablar ham davlat ta'lim standartlari talabiga mos kelishi va davlat dasturlarini to'la bajarishga majbur.

Boshlang'ich ta'lim barcha kishilar uchun majburiy, davlat maktablarida bepul o'qitiladi. Majburiy ta'limdan so'ng uning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish istagini bildirgan, kam ta'minlangan oilalardan chiqqan bolalar davlat tomonidan stipendiyalar bilan ta'minlanadilar, ularga boshqa tegishli imtiyozlar ham belgilangan.

Ta'lim muassasalarida faqat o'quv-tarbiya ishlari, uni g'akomillashtirish bilan bog'liq vazifalarnigina bajaradilar. Undan tashqari faoliyatlarga yo'l qo'yilmaydi.

Turk millatiga mansub kishilarga ona tili sifatida boshqa biror xorijiy davlat tili o'rgatish mumkin emas. Turkiya milliy maorif tizimlarining umumiy tuzilishi quyidagicha: ta'lim tizimi bu mamlakatda ikki asosiy qismga bo'linadi. Ulardan birinchi qismi maktab ta'limi bo'lib, uning tarkibiga maktabgacha tarbiya, boshlang'ich ta'lim, o'rta va oliy ta'lim kiradi. Uning tarkibi quyidagicha:

1. Maktabgacha tarbiya bosqichiga maktab yoshiga yetmagan bolalarni qabul qilish ixtiyoriydir. Maktabgacha ta'lim-tarbiyaning maqsadi bolalarni jismoniy, aqliy va axloqiy rivojlanishini ta'minlash, ularni maktab bosqichiga puxta taysrlab berish, kam ta'minlangan o'quvchilarga sharoit yaratish, turk tilida to'g'ri va chiroyli gapirishni o'rgatish dan iboratdir.

1992 yilda Turkiyada 131023 bolani qamrab olgan 7763 bog'cha ishladi. Bu maktabgacha tarbiya boshidagi umumiy bolalar sonining 5 foizini tashkil etadi.

2. Boshlang'ich maktabda esa bolalar 6 yoshdan 14 shgacha ta'lim oladilar. Bu bosqichdagi maktab quyidagi maqsad va vazifalarni ro'sbga chiqarishga xizmat qiladi;

a) har bir turk farzandiga yaxshi inson bo'lib kamol topish, bilimli bo'lish, uni milliy iftixor ruhida tarbiyalash va fikrlashga o'rgatish;

b) har bir turk farzandiga qiziqishi, qobiliyati va iste'dodlariga ko'ra ta'lim bsrish, ularni hayotga, o'qishning ksyingi bosqichlariga puxta tayerlashdan iborat.

Boshlang'ich ta'lim muassasalari maktabgacha tarbiya bosqichidan so'ng ikki qismga: 5 yillik boshlang'ich va 3 yillik o'rta maktablar bosqichiga bo'linadi. Har ikki bosqich maktabini bitirganlik haqida o'quvchilarga attestat bsriladi.

Bu ikki bosqich maktab sharoitiga qarab bir maktab bazasi alohida-alohida ikki maktab tarkibida tashkil qilinishi mumkii.

Aholi siyrak va tarqoq qishloqlarla maktab markaziy qishloqlardan birida ochiladi, guruhlashtirish imkoniyati bo'lmagai tumanlarla esa bu ta'lim bosqichi internatlar tipidagi o'quv muassasalari shaklida amalga oshiriladi.

3. O'rta ta'lim boshlang'ich ta'limga tayanib, kamida uch yillik ta'lim bsruvchi umumiy, kasbiy va texnik ta'lim muassasalarini o'z ichiga oladi.

Uning asosiy maqsadi barcha o'quvchilarga umumiy o'rta ta'lim va shunga muvofiq umumiy madaniyat, inson va jamiyat muammolariiii o'rgatib, ularni oliy ta'lim bosqichiga, hayotga, kasb-kor sohalariga tayyorlashdir.

Bu maqsadlar o'rta umumiy ta'lim, turli dasturlarda kasb-kor o'rgatuvchi tsxnik-qurilish qishloq xo'jaligi yo'nalishlaridagi litseylarda amalga oshiriladi.

O'quvning har bir bosqichi bo'yicha alohida-alohida dasturlar mavjud.

Bu dasturlar quyidagilardir:

- Ta'limning Oliy bosqichiga tayyorlash dasturi;
- kasbga va oliy ta'limga tayyorlash dasturi;
- hayotga, ishlab chiqarishga tayerlash dasguri va hokazolar.

Litseylar o'z turlariga va jumhuriyat ehtiyojiga ko'ra quyidagicha ixtisoslashtirilganlar:

- umumiy litssylar - o'quvchilarni oliy ta'limga tayyorlaydi, 3 yil;
- fan litssylari - alohida fanlardan iqtidorli va ijodkor o'quvchilar bilimini va qobiliyatini takomillashtiradi, 5 yil;
- kichik litseylar - kunduzgi litseylarla o'qish imkoniti bo'lmaganlar uchun, o'qish 4 yil;
- kasb-hunar litseylari - o'quvchilarga o'ch qiziqishlari bo'yicha turli kasb-hunar o'rgatadi, o'qish muddati 3 yil;
- nafis san'at litseyi - ona tili va adabiyoti, rasm, musiqa kabi bo'limlarga ega;
- o'qituvchilar litseylari - boshlang'ich ta'lim bo'yicha o'qituvchilar tayyorlaydi. O'qish muddati 1 yil tayyorlov kursini hisobga olganda 4 yil;
- tijorat va turizm ta'limi litseylari - maishiy xizmat ko'rsatish, savdo,

umumiy ovqatlanish shahobchalariga va boshqa sohalarga mutaxassislar tayyorlab beradi;

- diniy ta'lim maktablari – imom xatib hamda din darsini o'tuvchi o'qituvchilar tayerlaydi;

- maxsus ta'lim maktablari - ular korreksion maktablar bo'lib, jismoniy-aqliy jihatdan iuqsoni bor bolalar uchun mo'ljallangan;

- texnik litseylar – o'quvchilarga umumiy fanlar bilan bir qatorda industrial kasb-hunar ta'limini bsradi.

Bundan tashqari Turkiyada qizlar kasb litseyi, qizlar texnik litseyi, qizlar san'at o'rta maktablari, qizlar, o'g'il bolalar xususiy maktablari mavjud.

4. Oliy ta'lim - mamlakatda oliy malakali turli kasb mutaxassisliklarini, ilmiy tadqiqot ishlarni olib borishga qodir kishilarni yetishtirib beradi.

Turkiyada bunday mutaxassisliklar bo'yicha hozir 235 universitetlar va oliy texnologik institutlar ishlab turibli. Bu universitetlarlan 2 tasi diniy mahkamalar tasarrufidagilar.

Mamlakatdan tashqarida yashovchi turk millatiga mansub kishilarning (ular 2,5 mln. dan ortiq) ta'lim-tarbiyasiga ham katta ahamiyat beriladi. Hozir shunday toifadagi kishilarni o'qitish uchun Turkiya hukumati tomonidan 1,2,3,6ta o'qituvchi ajratilgan. Ularning barchasiga davlat tomonidan haq to'lanadi.

Turkiya hukumati «Milliy maorifining asosiy Qonuni»da maktab ta'limi bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'limga ham katta e'tibor berilgan.

Maktabdan tashqari ta'limga qo'yilgan asosiy talab katta yoshdagilarni o'qish va yozishga o'rgatish; ularga umumiy va kasb-kor bilimlarini berish; savodxonlikdagi nuqsonlarni bartaraf etish kabi vazifalarni bajaradi, shuningdek, bu muassasalar fuqarolarga, birinchi galda yoshlarga ijtimoiy hayotning ilmiy, texnologik, iqtisodiy, madaniy hayotiga to'la moslashish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi. Shuningdek, turli sohalarida mehnat qilayotgan qishilarning ishdan ajralmagan holda kasb malakalarini oshirishga imkoniyat tug'diradi. Turkiya Respublikasida maktabdan tashqari ta'lim ikki manba orqali beriladi. Ulardan biri maktab bo'lsa, ikkinchisi ustoz-shogirdlik yo'nalishidir.

Ularning sohalar bo'yicha dasturlari quyidagilar:

1. Umumiy ta'lim dasturlari;
2. Kasb-hunar, texnik ta'lim dasturlari;
3. Shogirdlik va ustalik ta'limi dasturlari;
4. Ochiq ta'lim dasturlari va hokazolar.

Maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarkibiga bulardan tashqari amaliy san'at maktablari, qizlar amaliy maktablari, yetuklik institutlari va yetuklik texnik ta'lim markazlari ham kiritilgan.

Shuningdek, keyingi yillarda o'quvchilar va talabalarning bo'sh vaqtlarini ko'ngilli va sermazmun o'tkazishga katta ahamiyat berilmoqda.

Shu maqsadda til o'rgatnsh markazlari musiqa, xalq o'yinlari, foto, teatr studiyalari, shaxmat-shashka klublarn, turli sayohatlar uyushtirish, lagerda dam olishni tashkil qilish, hamshiralik, rassomchilik to'garaklari yo'lga qo'yilayotir, ular orqali turli tanlovlar o'tkazishni amalga oshiril-moqda. Talabalar va

o'quvchilar uchun sportniig turli sohalari bo'yicha seksiyalartashkil etilgan, ularda sportning ommaviy turlari bo'yicha turnirlar, musobaqalar tashkil etilmoqla. Qizlar uchun esa qo'lda to'qish, bichish-tikish, pazandalik yo'nalishlaridagi to'garaklar mavjud. Ular tomoiidan to'qilgan, tikilgan, tayerlangan mahsulotlar har yili Anqaradagi katta ko'rgazmada namoyish etiladi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. Turkiyada ta'lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Boshlang'ich, o'rta ta'lim – o'quv jarayonini qanday tashkil qilinadi
3. Qanday ijtimoiy shart-sharoitlar mavjud?
4. Turkiyada oliy ta'lim qanday olib boriladi?
5. Turkiyada ilmiy faoliyat qanaqa olib boriladi?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to'ldiring:

Maktabgacha ta'lim	Majburiy ta'lim		Oliy ta'lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang'ich ta'lim	O'rta ta'lim		

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b.

12-MAVZU: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING XALQARO ALOQALARI

Maqsad:

1) ta'limiy maqsad: O'zbekiston Respublikasi ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlar berish

2) tarbiyaviy maqsad: Mustaqillik davridagi ta'lim tizimini tahlil etishni o'rganish

3) rivojlantiruvchi maqsad: O'zbekiston Respublikasi ta'limidagi ta'lim muammolarini tahlil etish

Reja:

1. Xalqaro aloqalar bo'limi.

2. Xalqaro loyihalar, grantlar va ularni tadbiq qilish
3. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining xalqaro aloqalari.

Xalqaro aloqalar bo'limi

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab maqsadli tarzda bozor munosabatlariga o'tish dasturini amalga oshirmoqda, bunda muhim o'rinni jahon talablariga javob beradigan, ya'ni yuqori professional darajadagi, tadbirkorlik qobiliyatiga ega bo'lgan mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan.

1991 yilda Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universitetida Xalqaro aloqalar bo'limi ochishga zaruriyat tug'ildi va bugunda jahonning yetakchi universitet va ilmiy markazlari bilan halqaro aloqalar o'rnatish va qo'llab quvvatlash bo'yicha respublikada yetakchi o'rinda turadi. Universitetda zamonaviy xalqaro tajribaga asoslangan tashqi iqtisodiy profildagi mutaxassislar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha keng miqiyosdagi dastur ishlab chiqilgan. O'zbekiston va chet eldagi tashqi-savdo muassalarida va qo'shma korxonalarida mutaxassislar va professor-o'qituvchilarni tajriba oshirishlari uchun dastur belgilangan. Xorijiy oliy ta'lim muassasalari bilan kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish, xususan, kadrlarni o'qitishda xamkorlik qilish, ilmiy-tadqiqot ishlar, anjumanlar, simpoziumlar o'tkazish masalalari bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri aloqa qilish jarayonni faol rivojlantirilmoqda.

Xalqaro aloqalar bo'limi quyidagi masalalar bilan shug'ullanadi:

- chet el ta'lim muassasalari va ilmiy markazlari bilan hamkorlikni va do'stlikni rivojlantirish va mustahkamlash;
- milliy kadrlar tayyorlashda rivojlanayotgan davlatlarga yordam berish;
- xorijiy ta'lim muassasalaridagi fan va texnika sohasidagi ijobiy yutuqlarni o'rganishda ko'maklashish va o'zbek tilini chet elda targ'ib qilishda hamkorlik qilish;
- TDIU olim va mutaxassislarini xalqaro ilmiy forumlar faoliyatida qatnashishlarini joriy qilish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va ilmiy tadqiqotni rejalashtirish bilan tanishtirish;
- ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish;
- o'qish, ilmiy-amaliy tajriba ortirish, malaka oshirish va chet tillarni bilish darajasini rivojlantirish;
- o'zbek tilini o'qitishni chet elda rivojlantirish;
- ilmiy forumlarda, xalqaro ilmiy kongresslarda va anjumanlarda qatnashish;
- dolzarb ilmiy muammolar bo'yicha leksiylar o'qish va chet elda tarqatish.

Xalqaro loyihalar, grantlar va ularni tadbiq qilish

Universitet halqaro tashkilotlarning dasturlarida faol ishtirok etmoqda:

TEMPUS; JICA; JICE; KOICA; DAAD; Sasakava Foundation, Butunjahon banki loyihalari va boshqalar. 1993 yilda Universitet Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Jahon banki instituti bilan hamkorlikda Birlashgan Vena Instituti va Birlashgan bank va moliya markazi tashkil qildi. Unda AQSh, Avstriya va MDH mamlakatlari davlat ishchilari, bank rahbarlari va olimlar uchun ko'plab seminar va ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilindi.

1996-1999 yillarda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti AQSh bilan birgalikda qo'shma loyiha amalga oshirildi, hususan, Nyu Palasdagi Nyu-York Universiteti bilan MVA kursini tashkil qilindi.


1996-2006 yillarda universitet uchta yevropa hamjamiyati bilan hamkorlikda va bir kichik kompakt Tempus loyihalarini amalga oshirdi. Shu jumladan, 1999 yil CP-20537-99 «Irotas-halqaro aloqalar bo'limi» mobil halqaro bo'lim yaratish, yevropaning yetakchi institutlarining tajribasini Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti xalqaro aloqalarini rivojlantirishda tadbqiq etish, xalqaro bo'lim xodimlarini professional bilim va ko'nikmalarini mukammallashtirish bo'yicha loyiha amalga oshirdi. Ushbu loyihada Belgiyaning Gent universiteti, ISACF La Cambre markazi va Italiyaning Milan politexnika instituti hamkorlar bo'lishdi. 2000 yilda IB-JEP 21126-2000 "Matador 2000" –menejerlarni o'qitish loyihasi Daniyaning "Daniya ishberuvchilar assosiasiyasi" Xerning kolleji tomonidan amalga oshirildi. O'ndan ortiq kishi Daniya va Italiyada tajribalari oshirib qaytishdi.

2002 yilda ikkita mintaqaviy loyiha CD-JEP-23030-2002 «Ijtimoiy iqtisodiyotda magistr darajasi o'quv rejani rivojlantirish» Venadagi akademik tadqiqotlar instituti va Kassel universiteti va MP-JEP-23027-2002 "TOHOST-CA: O'rta Osiyoda turizm va mexmondo'stlikni o'qitish» Bryusselning Erasmus oliy maktabi, Finlyandiyaning Rovaniyemi politexnika instituti, Italiyaning Perudji universiteti va Buyuk Britaniyaning Solford universiteti hamkorligida. Ular universitetning amaliy iqtisodiyot va turizm sohasidagi intellektual va texnik bazasini ko'tarishga katta ko'mak berishdi.

2002 yilda Iqtisodiy ta'lim bo'yicha milliy kengash "o'qituvchilarni malakasi oshirish" bo'yicha kurs tashkil qildi va bu kursda Universitetning besh professori Moskva, Sankt-Peterburg, Omsk, Almata shaxarlarida qayta tayyorlandi va sertifikatlar olishdi.

Universitet bir necha bor professorlarning chet elda ma'ruza o'qish bo'yicha grantlarida g'olib bo'lib kelmoqda, jumladan, USAID, Fulbright dasturi doirasida va boshqalar. Universitetimizning 10 nafar professorlari Fulbright grantini ko'lga kiritishgan va Michigan Davlat Universiteti va Kaliforniya Universitetlarga ma'ruza o'qish uchun taklif qilinganlar.

Universitet studentlar va professor-o'qituvchilarining almashuv dasturlari va qo'shma ilmiy tadqiqotlar o'tkazish bo'yicha Yevropa, AQSh va Osiyoning yetakchi va mashhur universitetlari bilan mustahkam ko'prik qurgan.



Yevropa Komissiyasining T012B06-2006 SM-SCM “O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimida sifat ta’minoti” (UKASE) TEMPUS loyihasi doirasida OTMLar sifatini baholash tizimini yaratish masalasini o‘rganib, mamlakatimizga mos va oliy ta’lim tizimiga xos sifat ta’minoti modelini ishlab chiqish faoliyati olib borildi. Mazkur loyiha ishida quyidagi universitetlar qatnashdilar:

1. Bryussel Erkin universiteti (VUB), Belgiya;
2. Adam Miskevich universiteti (AMU Poznan), Polsha;
3. Buxoro davlat universiteti (BuxDU);
4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU);
5. Samarqand iqtisodiyot va servis institute(SamISI);
6. Urgench davlat universiteti (UrDU);
7. Qarshi muhandislik va iqtisodiyot institute (QarMII).

Loyiha 1 yilga mo‘ljallangan bo‘lib, 2007 yil sentabr oyidan 2008 yil sentabrgacha muddatda xorijda 2 ta (Bryusel, Poznan) va O‘zbekistonda 7 ta (BuxDU, UrDU, TDIU, SamISI, QarMII) ishchi seminar va amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazildi. Loyiha doirasida qo‘lga kiritilgan asosiy natijalar quyida keltirilgan:

- O‘zbekiston Oliy ta’lim tizimida sifat ta’minoti: UQASE modeli monografiyasi;

- Loyiha ishtirokchilarining ishchi taqdimotlar to‘plami:

Hozirda Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti quyidagi chet el davlatlari oliy o‘quv yurtlari va xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilish shartnomalariga ega:

O‘zbekiston – Fransiya munosabatlari. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatiya munosabatlari 1992 yil fevralda o‘rnatilgan bo‘lsada, mamlakatlar orasidagi aloqalar uzoq tarixga borib taqaladi. Fransiya qiroli Karl XI de Valua (1368 - 1422) va Amir Temur davridagi o‘zaro savdo-sotiq va do‘stona munosobatlarga oid yozishmalar bizga ma’lum.

1992 yil Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi, 1995 yilda O'zbekistonning Fransiya'dagi elchixonasi o'z faoliyatini boshlagach, o'zaro aloqalar, delegatsiyalarning tashriflari yo'lga qo'yildi. Ikki tomonlama aloqalar rivojlanishining tamal toshlari O'zR Prezidenti I. Karimovning 1993 yil oktabrda Fransiya davlat tashrifi paytida qo'yilgan bo'lib, unda bir qator shartnomalarga imzo chekildi. O'zbekiston Respublikasi va Fransiya Respublikasi o'rtasidagi do'stlik va hamkorlik to'g'risidagi shartnoma, hukumatlar o'rtasidagi investitsiyani himoyalash va o'zaro rag'batlantirish haqidagi bitim, hukumatlarning madaniy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik to'g'risidagi bitimi shular jumlasiga kiradi. 1994 yil aprelda Fransiyaning sobiq prezidenti F. Mitteran eng rivojlangan yetti mamlakat rahbarlari orasida birinchi bo'lib, O'zbekiston Respublikasiga davlat tashrifi bilan keldi.

O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida do'stlik va hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish to'g'risida

QO'SHMA DEKLARATSIYA

Pekin shahrida 1999 yil 8 noyabr kuni imzolangan

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Szyan Szeminning taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov 1999 yil 8-10 noyabr kunlari Xitoy Xalq Respublikasida davlat tashrifi bilan bo'ldi.

Ikkala davlat rahbarlari do'stlik va ishchanlik ruhida ikki tomonlama munosabatlar, shuningdek o'zaro qiziqish uyg'otadigan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashdilar. O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi, bundan keyin Tomonlar deb ataluvchilar, ikkala mamlakat o'rtasida uzoq muddatli hamda barqaror do'stlik va hamkorlik munosabatlarini yanada kengaytirish va chuqurlashtirishga intilishdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatish to'g'risida 1992 yil 2 yanvarda imzolangan Qo'shma Kommyunike, O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida 1992 yil 13 martda imzolangan Qo'shma Kommyunike, shuningdek O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida o'zaro munosabatlarning asosiy prinsiplari to'g'risida 1994 yil 24 oktabrda imzolangan Qo'shma Deklaratsiya hamda O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida 1996 yil 3 iyulda imzolangan Qo'shma Deklaratsiya prinsiplariga o'zlarining sodiq ekanliklarini tasdiqlab, quyidagilarni bayon qiladilar:

1. Tomonlar ikki mamlakat o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatilganidan buyon siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy-texnikaviy, maorif va boshqa sohalarda o'zaro manfaatli hamkorlikning rivojlanishidan qoniqish izhor etib, bundan keyin ikki tomonlama munosabatlarni yangi sifat darajasiga ko'tarish uchun kuch-g'ayratlarini ayamaydilar.

2. Tomonlar bundan keyin ham o'zaro anglash va o'zaro ishonchni chuqurlashtirishning muhim omili sifatida turli darajalarda, jumladan oliy darajada siyosiy muloqotlar o'tkazilishini qo'llab-quvvatlaydilar va rivojlantiradilar.

3. Ikkala mamlakatning rahbarlari savdo-iqtisodiy sohada hamda ishlab chiqarish xizmatlari tarmog'ida erishilgan yutuqlarning muhimligini qayd etgan

holda, o'zaro manfaatli savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishga birinchi darajali ahamiyat beradilar.

Tomonlar bundan keyin ham to'qimachilik sanoati hamda elektr texnikasi ishlab chiqarish, aloqa, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotini qayta ishlash sohasida Tomonlarning salohiyatidan samarali foydalanish, har turli va o'zaro manfaatli texnikaviy-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, ikkala davlat uchun qiziqish uyg'otadigan sohalarga o'zaro investitsiya kiritilishiga ko'maklashishlarini bildiradilar.

4. Tomonlar transport kommunikatsiyalari sohasida hamkorlikni rivojlantirish hamda ikkala mamlakat hududida yuklarni tranzit tashish shartlarini uyg'unlashtirishga ustuvor ahamiyat beradilar, "Buyuk ipak yo'li"ni qayta tiklash bo'yicha ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama sa'y-harakatlar tufayli erishilgan yutuqlarni qoniqish bilan qayd etadilar.

XXRda Korla-Qashqar temir yo'li qurib bitkazilganligi munosabati bilan, Tomonlar Qashqar-Andijon temir yo'li qurilishi loyihasi hamda uning texnikaviy-iqtisodiy asoslovlarini tayyorlashni tezlashtirish va ko'p tomonlama bitim tuzish zarur deb hisoblaydilar.

5. Tomonlar fan va texnika, madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, axborot, sayyohlik hamda sport sohasida ikki tomonlama aloqalar va hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydilar, buning uchun ikki mamlakatning hukumatlari zarur shart-sharoitlarni barpo etadilar.

6. Tomonlar atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy muhitning ifloslanishi va unga sanoatning zararli ta'sir ko'rsatishiga qarshi kurashish sohasida hamkorlikni rivojlantirish zarurligini e'tirof etadilar.

7. Tomonlar huquqni muhofaza etish hamda boshqa vakolatli organlarning qalin hamkorlikda ish olib borishlarini ta'minlaydilar, terrorizm, transchegaraviy uyushgan jinoyatchilikning, shuningdek giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlarni yetishtirish, ishlab chiqarish, noqonuniy yurgizishga bog'liq jinoyatlarning oldini olish, barham berish va tergov o'tkazish bo'yicha kuch-g'ayratlarini birlashtiradilar.

8. Tomonlar diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va milliy ajraluvchilikning har qanday ko'rinishlariga qarshi ekanliklarini, o'z hududlarida hech qanday tashkilot va kuchlarning boshqa Tomonga qarshi qaratilgan ajraluvchilik va ekstremistik faoliyatiga yo'l qo'ymasliklari hamda davlatlararo, millatlararo va konfessiyalararo qarama-qarshiliklarni avj oldirishga qarshi chiqishlarini bildiradilar.

9. Tomonlar ikkala mamlakat suverenitet, mustaqillik va hududiy yaxlitligini saqlash sohasida bir-biriga o'zaro ko'maklashishini bildiradilar.

Xitoy tomoni O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini hurmat qiladi, O'zbekiston rahbariyatining davlat mustaqilligi va konstitutsiyaviy tuzumini mustahkamlashga, milliy iqtisodiyotni taraqqiy ettirish va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanishlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan xatti-harakatlarini qo'llab-quvvatlashini izxor qiladi. O'zbek tomoni Xitoy Xalq Respublikasining Hukumatini Xitoyning yagona qonuniy hukumati, Tayvan esa Xitoyning tarkibiy qismi deb e'tirof etadi. O'zbekiston

Hukumati "ikki Xitoy" yoki "bir Xitoy, bir Tayvan"ni barpo etishga yo'naltirilgan urinishlarga qarshi chiqadi va Tayvan bilan qanday shaklda bo'lmasin, rasmiy munosabat o'rnatmasligini bildiradi.

10. Xitoy tomoni O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim rolini ijobiy baholaydi, O'zbekistonning Markaziy Osiyoda yadroviy quroldan xoli zona barpo etish borasidagi sa'y-harakatlarini yuksak baholaydi va o'zining yadroviy quroldan xoli zonalar masalasidagi o'zgarmas pozitsiyasiga sodiq qolgan holda, Markaziy Osiyodagi besh mamlakatni yadroviy quroldan xoli zona barpo etishda faol qo'llab-quvvatlashga tayyorligini bildiradi.

Tomonlar Afg'onistondagi mojaroni tinch hal etish borasida "6+2" guruhi doirasidagi tegishli mamlakatlarning sa'y-harakatlarini ijobiy baholaydilar hamda ichki afg'on tomonlarini milliy yarashga erishish uchun samarali choralar ko'rish va Toshkent Deklaratsiyasi prinsiplariga amal qilishga chaqiradilar. Tomonlar Tojikistondagi milliy yarashuv jarayonini qo'llab-quvvatlaydilar hamda bu mamlakatda mustahkam tinchlik va barqarorlik o'rnatilishiga umid bildiradilar.

11. O'zaro qiziqish uyg'otadigan mintaqaviy va xalqaro masalalar yuzasidan fikr almashuvlar Tomonlarning ko'p jihatdan bir xil yoki yaqin pozitsiyada ekanini ko'rsatdi. Tomonlar xalqaro ishlarda hamkorlikni bundan keyin ham rivojlantirishga kelishib oldilar. Tomonlar umumdunyoviy tinchlik va xavfsizlikni saqlab turishda BMTni eng muhim xalqaro tashkilot deb bilib, uning roli va e'tiborini yanada ko'tarish maqsadida uning ishlarida ikki tomonlama hamkorlikni kengaytirishga tayyor ekanliklarini izhor etadilar, BMT Nizomida ko'zda tutilgan maqsadlar va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan me'yorlariga sodiq ekanliklarini bildiradilar, davlat suverenitetini hurmat qilish hamda bir-birlarining ichki ishlariga aralashmaslik asosiy prinsiplarini yoqlaydilar. Tomonlar adolatli va oqilona yangi xalqaro siyosiy va iqtisodiy tartiblarni o'rnatilishiga o'z kuch-g'ayratlarini sarflaydilar.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Szzyan Szeminni O'zbekiston Respublikasiga rasmiy tashrif buyurishga taklif etdi. Taklif mamnuniyat bilan qabul qilindi.

Tashrif muddati diplomatik kanallar orqali qo'shimcha ravishda kelishib olinadi.

O'zbekiston Respublikasi

Xitoy Xalq Respublikasi

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirligining xalqaro aloqalari

Respublikamiz o'z mustaqilligini qo'lga kiritganiga yillar oshdi. O'tgan bu qisqa davr ichida O'zbekiston tarixiga zarhal harflar bilan bitishga arzigulik ulkan o'zgarishlar sodir bo'ldi.

Ayniqsa, mamlakatimiz tashqi aloqalarini rivojlantirish sohasida olib borilgan to'g'ri va izchil siyosat tufayli Respublikamiz jahonga yuz tutdi, uning xalqaro obro'si kundan kunga oshib bormoqda. Ana shularning iatijasida yurtimizning chet mamlakatlar bilan keng ko'lamda madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy aloqalar o'rnatishiga ham katta zamin yaratildi.

Yaratib berilgan u imkoniyatdan Respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynatib, xalq ta'limi ham faollik ko'rsatib, o'zining chet davlatlardagi hamkasabalari bilan uzviy hamkorlik ishlarini boshlab yubordi.

Vazirlikning xalqaro aloqalarini muvofiqlashtirib borishni ta'minlash maqsadida uning tarkibida xalqaro aloqalar bo'limi faoliyat ko'rsata boshladi.

Respublika xalq ta'limi vazirligining chet mamlakatlar bilan hamkorligidan ko'zda tutgan asosiy maqsadi, chet el ta'limi tizimidagi ilg'or g'oyalar tajribalar bilan tanishib, ta'lim mazmunini rivojlantirish, uni jahon talablari darajasiga olib chiqish, pirovard yana 1 darajada yuqori malakali kadrlar tayerlab, mustaqil Respublikamiz iqtisodiy va ma'naviy qudratini oshirish ishiga xizmat qildirishdan iboratdir.

Bu maqsadni to'la-to'kis ro'yobga chiqarishning asosiy omili chet el safarlarida bo'lib ilg'or tajribalar bilai tanishish, o'quvchilarga chet tillarini puxta o'rgatishdan, uni takomillashtirishdan iboratdir.

Bu borada vazirlik tomonidan muayyan ishlar olib borilmoqda. Birgina ingliz tilini o'rgatish qanday amalga oshirilayotganligiga nazar tashlaylik. Bu tilni Respublikamizda mavjud 8963 maktabning 4846 tasida, 7460.1 sinfda qariyb 1,4 million o'quvchi o'rganmoqda. Ingliz tilini chuqurlashtirib o'rgatuvchi 165 maxsus maktablar faoliyat ko'rsatmoqda.

1993-94o'quv yilidan boshlab «O'zbekiston Respublikasida chet tillarini chuqurlashtirib o'rgatish Nizomi» ishlab amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari chet tillarini puxta o'rgatishga maktabdan va sinfdan tashqari ishlar imkoniyati ham safarbar qilindi. Umumiy ta'lim maktablarida, pedagogika o'quv yurtlarida, sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim markazlarida 7000 ga yaqin, shu jumladan 87 ta kattalar uchun chet tilini o'rgatish to'garaklari ishlatilmoqda.

O'zbekistonning Germaniya bilan ta'lim sohasidagi hamkorligi tobora rivojlanib bormoqda. Bu bejiz emas, chunki O'zbekiston maktablarida nemis tilini o'rganish tobora kengayib bormoqda. Bugun bu xalq tilini Respublikamizning 2887 maktabida 860 mingdan ortiq o'quvchi o'rganayotir. Shu jumladan 66 maktabda olmon tili chuqurlashtirib o'rgatilmoqda. Toshkentda 60-gimnaziya, 506-bog'chada ta'lim faqat nemis tilida olib boriladi.

Shuningdek, fransuz tilini o'rganayotgan maktablar soni ham yildan-yilga ortib borayotir. Bu tilni Respublikamizning 1617 maktabida qariyb yarim million o'quvchi o'rganayotir. Toshkent shahrida fransuz tiliga ixtisoslashgan 51-maktab ishlatilmoqda.

Biz bu raqamlarni alohida ajratib ko'rsatishimizning sababi shundaki, maktablarda ta'lim mazmunini yangilash, o'qituvchilar nazariy-metodik saviyasini yaxshilash, ularning malakasini oshirishlarini takomillashtirish o'quvchi ko'rgazmali hamda texnik vositalar bilan yaxshiroq ta'minlash ta'lim vazirligini aynan shu maktablar bilan uzviy hamkorlik aloqalarini tiklashni, yuqoridagi jarayonlarni ular bilan hamkorlikda amalga oshirishni taqozo etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.—Toshkent:O'zbekiston, 1995.— 204 b.

2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo’ldoshev J.G’. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G’ofur G’ulom, 2001. – 288 b.
5. <http://www.tdiu.uz/uzb/xalqaroaloqa.php>

Nazorat savol va topshiriqlari:

1. O’zbekiston Respublikasida ta’lim tarkibi nimalardan iborat?
2. Xalqaro aloqalarni tushuntirib bering.
3. Xalqaro loyihalar degenda nimani tushunasiz?

Mustaqil ish topshiriqlari:

Jadvalni to’ldiring:

Maktabgacha ta’lim	Umumiy o’rta ta’lim		O’rta maxsus, kasb-hunar ta’lim	Oliy ta’lim	Ilmiy faoliyat
	Boshlang’ich ta’lim	O’rta ta’lim			

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O’zbekiston, 1995.– 204 b.
2. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
3. Yo’ldoshev J.G’. Xorijiy mamlakatlarda ta’lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
4. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G’ofur G’ulom, 2001. – 288 b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 1992. – 47 b.
2. Islom Karimov. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: Sharq, 1999.-181 b.
3. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. Toshkent: O'zbekiston, 1997.-63 b.
4. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
5. Alisher Fayzullayev. Inson, siyosat, boshqaruv.–Toshkent:O'zbekiston, 1995.– 204 b.
6. Abdullev Yu. Jahon oliy maktabi:qiyosiy tahlil.–Toshkent:G'ofur G'ulom, 2001. – 288 b
7. Ausbildung und Beruf. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2007. Bonn, 222 S.
8. Berufsausbildung sichtbar gemacht. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2003. Bonn, 72 S.
9. Bildung in Deutschland. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2004. Bonn, 6 S.
10. Berufsbildung in Deutschland. Europäisches Zentrum für die Förderung der Berufsbildung. (CEDEFOP). Thessaloniki. 2007, 102 S.
11. Jugend und Berufsbildung in Deutschland. Bundesinstitut für Berufsbildung. 1994. Berlin, 31 S.
12. Yo'ldoshev J.G'. Xorijiy mamlakatlarda ta'lim. – Toshkent: Sharq, 1995.
13. Yuldasheva M.B. Obrazovaniye za rubejom. –Tashkent, 2006. – 79 str.
14. Fachglossar – Betriebliche Ausbildung. Deutsch-Russisch. Bundesministerium für Bildung und Forschung. 2008. Bonn, 60 S.
15. www.wikipedia.org
16. www.ref.uz

MUNDARIJA

Kirish	3
1-mavzu: Chet el ta'limi taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari	4
2-mavzu: Yaponiyada ta'lim tizimlari	14
3-mavzu: Amerika qo'shma shtatlarida ta'lim tizimii	24
4-mavzu: Fransiyada ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari	30
5-mavzu: Ispaniyada ta'lim	36
6-mavzu: Buyuk Britaniyada ta'lim tizimi	43
7-mavzu: Koreyada ta'lim tizimlari	49
8-mavzu: Germaniyada ta'lim tizimi	52
9-mavzu: Italiyada ta'lim	84
10-mavzu: Niderlandiya ta'limi	87
11-mavzu: Turkiya maorifi	91
12-mavzu: O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining xalqaro aloqalari	95
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	104